Shoshgan — shaytonga erishar, sabr qilgan — maqsadga yetar.Sabr bilan tosh yorilar.Sabrning mevasi — shirin. Yaxshi xulq va insoniylik haqida;Yaxshilik qil — daryoga ot, baliq bilmasa, Xudo bilar.Yaxshi bilan yursang topilarsan, yomon bilan yursang — yo‘qilarsan.Yaxshi so‘z — jon ozig‘i.Insof — inson ziynati.Yaxshi do‘st — qora kunda bilinadi. Ota-ona va oilaviy tarbiya haqida;ta-onang — boshingdagi tojiing.Ota xizmatini qilgan — otaday bo‘ladi.Onani ranjitgan — Xudoni ranjitgan.Ota-ona roziligi — Tangri roziligi.Farzand — ota onaning soyasidir.

Do‘stlik va mehr-oqibat haqida;Yaxshi do‘st yomon kunda bilinadi.Mehringni ayama, dilingni qoraytirma.Mehr — dardga davo.Yaxshi yurak — yomonlikni unutadi.Birlik — kuch, ajralish — zaiflik. matallar,iboralar

Xulosa qilib aytganda maqollar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos shakli bo‘lib, ularning tuzilishi sodda, lekin mazmunan chuqurdir. Ular inson hayoti, jamiyat, axloqiy qadriyatlar va milliy tafakkur haqida keng qamrovli ma’lumot beradi. Maqollar orqali avlodlar orasidagi madaniy aloqa, axloqiy tarbiya va til boyligi saqlanib qoladi. Shunday ekan, maqollarni o‘rganish va ularni kundalik hayotda qo‘llash har birimizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 36 b.

2. Xoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi. – Toshkent: 1995.

3. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. - T.: “Bayoz”. 2013
4. Bobomirzaev X. Xalq og‘zaki ijodi va uning ta’lim-tarbiyadagi samarasi. - T.: «O‘qituvchi», 1996. - 173-bet.

JALOLIDDIN MANGUBERDI - VATAN HIMOYACHISI

K.Salimjonova
Namangan davlat pedagogika institutining
Ijtimoiy fanlar kafedrasi O'zbek tili va Adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Pozilova**

Annotatsiya: Ushbu maqola Jaloliddin Manguberdi yoki Jaloliddin Menguberdi (Jalol id-Diniya va-d-Din Abu-l-Muzaffar Mankburni ibn Muhammad) eng so'nggi xorazmshoh hayoti, uning qahramonliklari haqida boradi.

Annotation: This article is about the life and heroism of Jalal ad-Din Manguberdi, also known as Jalal ad-Din Mingburnu (Jalal ad-Din Abu al-Muzaffar Mangburni ibn Muhammad), the last great Khwarazmshah.

Аннотация: Эта статья посвящена жизни и подвигам Джалаладдина Манкбурни (Джалолиддина Менгуберди) (Джалол ад-Дин Абу аль-Музаффар Манкбурни ибн Мухаммад) — последнего великого хорезмшаха.

Kalit so'zlar : "national hero", the last great Khwarazmshah

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) – buyuk xorazmshohlar davlatining so‘nggi vakili, xorazmshoh Alouddin Muhammadning to‘ng‘ich farzandi, mustaqillik uchun fidokorona kurashi, ajoyib sarkardalik faoliyati, shaxsiy jasorati, Vatanga muhabbati bilan tarixdan munosib o‘rin olgan davlat arbobi. Jaloliddin Manguberdi Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan (1198 yili) tug‘ilgan. U 1215 yilda G‘azna, Bomiyon, o‘ur, Bust, Takinobod, Zamindovar, Shimoliy Hindiston yerlariga hokim va taxt vorisi etib tayinlangan. Momosi Turkon xotun va qipchoq amirlarining noroziligi sababli ukasi Qutbiddin O‘zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etildi Jaloliddin Mekburni (yoki Manguberdi) nomini olib, “burnida xoli bor” ma’nosini anglatadi. Jaloliddin harbiy muhitda ulg‘ayadi va jang san’atini erta o‘zlashtiradi. G‘azna (hozirgi Afg‘oniston) uning qaramog‘ida bo‘lishiga qaramay, otasi fitnalardan saqlanib, o‘g‘lini o‘zini oldida Gurganjda ushlab turadi. Yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo‘lib o‘tuvchi chegaraga chiqishga haraqat qiladi. Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangberdi” nomli asarida Jaloliddin Manguberdini quyidagicha tasvirlaydi: “U bug‘doyrang, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi. Shu bilan birga forsiyda ham so‘zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o‘tish kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi".

Alouddin Muhammad farzandlarini 1220 yili to‘plab, o‘limi oldidan Jaloliddin Manguberdi Xorazm hukmdori deb e’lon qildi. Urganch mudofaasi uchun yetib kelgan Jaloliddin Manguberdi bu yerda Tukon xotunning akasi Xumor Teginning sulton deb e’lon qilinganligini va unga suiqasd uyushtirilayotganini sezib, uch yuzta suvoriysi bilan Urganchni tark etib, Xuroson tomonga qarab yo‘lga chiqadi. Nishopur yaqinida o‘zidan ikki barobar ko‘proq bo‘lgan dushman qo‘shinini yengib, shaharga kiradi. Bu yerda qo‘shin to‘plab Kandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘illar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etadi. 1221 yilda G‘aznaga yetib kelgan Jaloliddin Manguberdiga oldin qo‘shilgan qaynotasi, Hirot voliysi Aminalmulkdan tashqari halaj qabilasi boshlig‘i Sayfiddin Ig‘roq, Balx voliysi A’zam Malik, afg‘onlar sardori Muzaffar Malik, qorluqlar boshlig‘i Hasan Qorluq o‘z askarlari bilan qo‘shildilar.Jaloliddin Manguberdi **Valiyon qal’asini** qamal qilayotgan ko‘psonli mo‘g‘illar ustidan birinchi katta g‘alabani qo‘lga kiritdi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon Shiki Xutuhu boshliq 45 000 qo‘shinini Jaloliddin Manguberdiga qarshi jo‘natadi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. G‘azni yaqinidagi **Parvon jangida** Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi,

biroq jangdan so‘ng Jaloliddin Manguberdining lashkarboshilari o‘lja ustida o‘zaro janjallashib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig‘roq, A’zam malik va Muzaffar maliklar Jaloliddin Manguberdini tark etganlar. Bu tark etishni sababi turlicha bo‘lgan. Masalan, Turkmanlar yo‘lboshchisi bo‘lgan Sayfuddin Ag‘roq bilan bir arabiy ot ustida talashib qolishadi. (O‘ljalar orasida eng noyob ulush ot hisoblagan. Otlar zotiga va chiroyiga qarab bir necha ming tilloga baholangan.) Tortishuv paytida qizishib ketgan Amin Malik Sayfuddin Ig‘roqni boshiga qamchi bilan uradi. Jaloliddin esa Amin Malikni bu ishi uchun jazolamaydi (Amin Malik Jaloliddinning qaynotasi edi, balki Amin Malikni jazolamaganiga sabab shu ham ham bo‘lishi ehtimol.) Bu nomusga chiday olmagan va qattiq ranjigan A’zam Malik Muzaffar Malikni olib, Jaloliddin qo‘shinni tark etadi. Buning natijasida xoramzshoh qo‘shini yarmiga qisqaradi. Jaloliddin Manguberdining yonida faqat Amin Malik o‘z lashkari bilan qolgan, xolos. Bu vaziyatdan xabar topgan Chingizxon ning shaxsan o‘zi Jaloliddin Manguberdiga qarshi otlanadi. **1221 yil 25 noyabrda Sind daryosi bo‘yidagi** Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlangan. Fapdiz qal’asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o‘tishiga imkon bermay qurshab oladi. O'sha mash’um jangda jasorat va shijoat bilan kurashgan Jaloliddin Manguberdi mag‘lub bo‘lsa ham dushmani – Chingizxon e’tiboriga sazovor bo‘ldi.Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o‘tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo‘lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo‘yidagi jang) mag‘lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o‘ng sohiliga suzib o‘tib, cho‘l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho‘l hozirda ham Cho‘li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o‘z o‘g‘illariga qarab: „Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim!“, degan.

Oradan bir necha kun o‘tgach, Jaloliddin Manguberdi qo‘shini soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars bahodir, Kabkuh va Sa’diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o‘z kishilari bilan kelib qo‘shildi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho‘lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo‘lgan Shatra viloyati rana (shoh) si Jaloliddin Manguberdiga xujum qilgan. Jaloliddin Manguberdining merganlik bilan otgan kamon o‘qidan rana halok bo‘ladi, qo‘shini esa parokanda bo‘lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o‘ljani qo‘lga kiritadi
Bu g‘alabadan so‘ng Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur va Peshovar hokimi Nosiriddin Qubacha (1205—27)ning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o‘zini xayrixohligini izhor etib, sovg‘a-salomlar jo‘natgan. G‘iyosiddin Pirshoh ajralib ketgan amirlardan Sanjoqonxon, Elchi pahlavon, O‘rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o‘z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo‘shildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal’alarini qo‘lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo‘shini hamda mamluklar sulolasidan bo‘lgan Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmishdan olgan qo‘shimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag‘lubiyatga uchragan, uning xazinasi, qurol-yarog‘lari o‘lja tushgan.

1227 yil Rey yaqinida Jaloliddin mo‘g‘ullar qo‘shinini tor-mor etadi. Shu yilning o‘zida Isfaxon aholisi tomonidan yordamga chaqirilgan xorazmshoh Isfaxon shahri yaqinida mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi. Jaloliddin bir varakayiga ikki jangovar harakatni tutadi: G‘arbiy Eronda mo‘g‘ullarga qarshi hamda Kavkaz ortida arman va gruzinlarga qarshi. Ammo 1228 yil kilik-arman podshosi Getum I va misrlik sulton Ashraf bilan birlashgan rum sultoni Alouddin xorazmshohga qarshi jang boshlaydi. Xorazmshoh qo‘shini ushbu hujumga bardosh bera olmay, mag‘lubiyatga uchraydi.
Jaloliddin ko‘p yillar davomida Chingizxon qo‘shinlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashdi, ammo mo‘g‘ullarga birlashgan qarshilik frontini tashkil eta olmay, Kurdiston tog‘larida halok bo‘ldi. Alamut hukmdori orqali mo‘g‘ullar Jaloliddin yaqinda bo‘lgan mag‘lubiyatdan zaiflashganini bilib oldilar. O‘sha yili Cho‘rmag‘on boshchiligidagi o‘ttiz minglik mo‘g‘ul qo‘shini Jaloliddinni osonlikcha yengib, Shimoliy Eronni egalladi. Xorazmshoh Ganjaga chekindi. Mo‘g‘ullar ergashib Arranni egallab olishdi. Jalol ad-Din Mayafarikin tog‘larida panoh topdi va shu yilning avgust oyida u saljuqiylar tomonidan yollangan noma’lum bosqinchi tomonidan o‘ldirilgan.

Jaloliddin Manguberdining o‘limi haqida ham turlicha qarashlar bor. Bu haqda ma'rifatparvar podshoh, falakiyotshunos olim Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” kitobida shunday yozadi: “Tarix arboblari sulton Jaloluddin ibn sulton Muhammad Xorazmshohning molu holi haqida qarama-qarshi fikr bildirdilar. Chunonchi, ba'zilarning so‘zicha, mo‘g‘ullar qo‘lida qatl etilgan. Ba'zilarning fikricha, sulton Jaloluddin mo‘g‘ullardan qochib, tog‘lar orasiga kelgan va otda ko‘p yurgani uchun qattiq charchagan,

otdan tushib tog‘ orasida uyquga ketgan. Bir guruh odamlar ot va sulton xil'ati ta'masida uyqudagi Jaloluddinni halok qilganlar. Boshqalarning rivoyat qilishlaricha, sulton tasavvuf ahlining libosini kiyib, sayohatni ixtiyor qilgan. Xudo bilguvchiroq!”. Jaloliddin Manguberdi garchi jangda mag‘lub bo‘lgan bo‘lsada, ma'nan g‘olib bo‘lganini hatto Chingizxon ham tan olgani esa tarixiy haqiqatdir. Bu haqda Mirzo Ulug‘bek shunday yozadi: “Sultonning barcha fe'lu harakati Chingizxonga manzur bo‘lib, tahsin og‘zini ochib, o‘g‘illariga yuzlandi va dedi:

— Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!

Bu sultondan ko‘p ishlar va hisobsiz qissalar vujudga keldi va uning ishlaridan har qanday oqil o‘g‘il g‘ofil qolmasligi kerak! ”

Jaloliddin siymosi afsonaga aylanadi, unga yozuvchi Vasiliy Yanning “Mardlik qanotlarida” ertak-qissasi va boshqa asarlar bag‘ishlangan.

Jaloliddin Manguberdi “milliy qahramon”lardan biri. 1999 yili mamlakatimizda Jaloliddin tavalludining 800 yilligi keng nishonlangan. O‘zbeksitonda unga atab bir nechta haykallar o‘rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlangan memorial majmua qurilgan.

1999 yil Jaloliddinning 800-yillik yubileyiga bag‘ishlangan 25 so’mlik yubiley tangalar muomalaga kiritilgan.

2000 yilning 30 avgust kuni “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgan. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog‘ini himoya qilishda hamda uni ko‘z qorachig‘iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. 2003 yilning 22 avgust kuni ushbu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Jaloliddin, shuningdek, Turkmanistonda ham hurmat qozongan bo‘lib, uning mo‘g‘ullarga qarshi jasorati bugungi kunda ham tarannum etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
2. Jaloliddin Manguberdi (o‘zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999;
3. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999;
4. Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998.

AMIR TEMUR- BUYUK DAVLAT ARBOBI

N.F.Ahmadaliyeva
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Pozilova**

Anatatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, siyosiy qarashlari, boshqaruv tizimi, iqtisodiy siyosati hamda ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan yondashuvi yoritilgan. Maqola tarixiy manbalar asosida tayyorlanib, o‘qituvchilar uchun metodik material sifatida qo’llanishi mumkin.

Kalit so’zlar: Amir Temur, davlat boshqaruvi, siyosat, tarix, ilm-fan, madaniyat, Temuriylar davlati, adolatli boshqaruv, ilmiy meros.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность Амира Темура как выдающегося государственного деятеля, его политические взгляды, система управления, экономическая политика и отношение к науке и культуре. Материал может быть использован в качестве методического пособия для преподавателе.

Ключевые слова: Амир Темур, государственное управление, политика, история, наука, культура, государство Тимуридов, справедливое правление, научное наследие

Annotation: This article explores Amir Temur’s role as a great statesman, his political vision, governance system, economic policies, and approach to science and culture. Based on historical sources, the article serves as a methodological resource for educators.

Keywords: Amir Temur, state governance, politics, history, science, culture, Timurid Empire, just leadership, scientific heritage.

O‘zbekiston tarixida Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyati alohida o‘rin tutadi. U XIV asrda yashab, jahonga mashhur bo‘lgan sarkarda, siyosatchi va davlat arbobi sifatida tanilgan. Amir Temur tomonidan barpo etilgan Temuriylar davlati O‘rta Osiyo tarixida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojlanishga kuchli turtki bergan. U yaratgan markazlashgan kuchli davlat, adolatli boshqaruv tizimi, kuchli harbiy siyosat va ilm-fan, madaniyatga bo‘lgan e’tibori bilan yuksak qadrlanadi.
Amir Temurning davlat boshqaruvidagi adolatparvarligi, qat’iy intizom va yuksak strategik tafakkuri tufayli u o‘z davrining eng kuchli hukmdorlaridan biriga aylangan. Uning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy, harbiy, madaniy va ilmiy yutuqlar bugungi kunda ham chuqur o‘rganilmoqda.

1.Amir Temurning siyosiy faoliyati va davlat boshqaruvi: Amir Temur o‘z faoliyatini kuchli markazlashgan davlat qurishga qaratdi. U “Tuzuklari Temuriy” asarida davlatni boshqarish prinsiplari, rahbarlik fazilatlari, harbiy tartib va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash yo‘llarini aniq ko‘rsatib bergan. U harbiy yurishlar orqali katta hududlarni zabt etib, o‘z davlatining chegaralarini Hindistondan to Turkiyagacha kengaytirdi.Temur adolatli boshqaruvni targ‘ib qilgan. Uning siyosatida ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi muvozanat, soliqlarni adolatli yig‘ish, sud-huquq tizimini takomillashtirish muhim o‘rin tutgan. U boshqaruv tizimini har bir mintaqada mahalliy vakillar orqali olib borgan, biroq ularning ustidan markaziy nazoratni saqlab qolgan.Amir Temurning siyosiy faoliyati O‘rta asr Sharq tarixida alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining yuksak salohiyati, siyosiy farosati va strategik tafakkuri bilan parokanda yurtni birlashtirib, kuchli va markazlashgan davlat asoslarini yaratdi. Uning asosiy maqsadi ichki barqarorlikni ta’minlash va xalq farovonligini oshirish edi.Temur o‘z faoliyatida adolat, tartib-intizom va qat’iylikni bosh tamoyil sifatida ilgari surdi. U tomonidan yaratilgan “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi sohasida muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu asarda harbiy-siyosiy tartib, mansabdor shaxslarning majburiyatlari va fuqarolarga nisbatan adolatli munosabat asosiy o‘ringa qo‘yilgan.Amir Temur davlatni boshqarishda harbiy kuchdan ustalik bilan foydalangan. Barcha yurishlari puxta rejalashtirilib, xalq va yurtdoshlar manfaatlarini ko‘zlagan. U o‘z harakatlarini keng hududlarda siyosiy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bilan asoslagan.Davlatni samarali boshqarish uchun Temur mahalliy hokimlarga mas’uliyat yuklab, ularning faoliyatini nazorat ostida ushlab turdi. Bu orqali markaziy hokimiyatni kuchaytirib, hududlararo bog‘liqlikni mustahkamladi. Uning boshqaruv tizimi qat’iy intizom va aniq tuzilishga ega bo‘lganligi tufayli Temur imperiyasi uzoq yillar davomida kuchli siyosiy tuzum sifatida yashab qoldi.

2.Iqtisodiy siyosat va ijtimoiy barqarorlik: Amir Temur davlatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan. U savdo yo‘llarini himoya qilgan, bozorlarga erkinlik bergan, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligini rivojlantirgan. Bu orqali mamlakatda ichki va tashqi savdo munosabatlari rivojlangan. Yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarda yangi binolar, madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar qurilgan. Bu infratuzilmaviy rivojlanish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilgan. Amir Temur tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosat, avvalo, davlatning ichki barqarorligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan edi. U iqtisodiy taraqqiyotni mamlakat mustahkamligi va xalq roziligining muhim sharti deb bilgan. Shuning uchun ham Temur o‘z siyosatida qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqqa alohida e’tibor bergan.Temur hukmronligi davrida dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida sug‘orish tizimlari takomillashtirildi, yangi ariq va kanallar qurildi. Bu esa hosildorlikning oshishiga xizmat qildi. Hunarmandlar uchun sharoitlar yaratilib, ularning faoliyati qo‘llab-quvvatlandi. Ayniqsa, shaharlardagi hunarmandlar mahallalari iqtisodiy hayotda muhim o‘rin tutgan.Savdo yo‘llarining xavfsizligi ta’minlanib, xalqaro karvon yo‘llari faol ishlay boshladi. Temur chet el savdogarlari va elchilariga kafolatlar bergan, bu esa tashqi savdoning kengayishiga olib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan shaharlarda bozorlar, karvonsaroylar va savdo rastalari barpo etilib, savdo-sotiq yuksaldi.Ijtimoiy barqarorlik masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Adolatli soliq siyosati, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash orqali Temur davlatida aholi hayot darajasi ko‘tarilgan. Uning har bir islohotida xalq manfaati ustuvor bo‘lgan. Shu tufayli, u boshqargan yillarda ijtimoiy hayot barqarorlik kasb etgan, xalq hukumatga ishonch bilan qaragan.

3. Ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan munosabat: Amir Temur ilm-fan va madaniyatni davlatning taraqqiyotida asosiy omil deb bilgan. Uning davrida ko‘plab olimlar, mutafakkirlar, me’morlar va

san’atkorlar faoliyat yuritgan. Temur Samarqandni o‘z davrining eng muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirgan.Uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek bu an’anani davom ettirib, ilm-fanning buyuk namoyandasiga aylangan. Temur davrida yaratilib boshlangan madaniy uyg‘onish keyinchalik Temuriylar davrida yuqori cho‘qqiga chiqqan.

Amir Temur o‘zining siyosiy va harbiy faoliyati bilan bir qatorda, ilm-fan va madaniyatga ham katta ahamiyat bergan. U ilmni jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb bilgan va bu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan. Temur o‘z davrida bilimdon kishilarni to‘plab, ularni davlatning fikr yurituvchi tayanchi sifatida qadrlagan.Temur hukmronligida Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent kabi shaharlar ilm-ma’rifat va madaniyat markazlariga aylangan. U ulug‘ allomalar, tabiblar, astronomlar va me’morlarni o‘z atrofida jamlab, ularga ijod qilish, tadqiqot olib borish uchun sharoit yaratgan. Bu holat keyinchalik Temuriylar davrida o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga erishgan ilmiy-madaniy uyg‘onish uchun zamin bo‘lgan.

Me’morchilik va san’at rivoji ham Temur davrida alohida o‘rin tutgan. Uning buyurtmasi bilan qurilgan Registon majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqa me’moriy yodgorliklar bugungi kungacha o‘z tarixiy va estetik qimmatini yo‘qotmagan. Bu obidalar nafaqat diniy va siyosiy markaz, balki ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qiluvchi muassasalar sifatida ham faoliyat yuritgan.Shuningdek, Temur kutubxonalar tashkil etishga buyruq bergan, qimmatli qo‘lyozmalarni to‘plagan. Uning madaniyatga bo‘lgan e’tibori nafaqat moddiy, balki ma’naviy taraqqiyotga ham xizmat qilgan. U yurtni ilmli, odobli va madaniyatli kishilar boshqarishini istagan.

Xulosa: Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki donishmand siyosatchi va davlat arbobi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosati va madaniyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Temur merosi O‘zbekiston tarixiy merosining ajralmas qismidir va yosh avlodni vatanparvarlik, adolat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Tursunov A., Jo‘raqulov Sh. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2016.
3. Shoniyozov K. Amir Temur va temuriylar davri. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Bobojonov S. Amir Temur shaxsiyati va siyosiy merosi. – Samarqand: Imkon, 2020.
5. Yakubov Sh. Temur tuzuklari: siyosiy va huquqiy tamoyillar. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. Tahrir hay’ati: T. Shirinov va boshq. – Toshkent: Sharq, 1996.
7. Alimova D.A., Inoyatov Z.I. O‘zbekiston tarixi: qadimgi davrlardan hozirgi kungacha. – Toshkent: Fan, 2021.
8. Barthold V.V. Sochineniya po istorii Sredney Azii. – Moskva: Nauka, 1963

JALOLIDDIN MANGUBERDI-VATAN HIMOYACHISI

M.U.Xoshimova
Namangan davlat pedagogika insituti talabasi
Ilmiy raxbar: **M.Pozilova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIII asr oxirlarida yashab o‘tgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdiyning hayoti hamda uning vatanni himoya qilish yo‘lidagi jasoratli kurashlari yoritilgan. Maqolada Manguberdiyning mo’g’ullar istilosiga qarshi olib borgan mardona harbiy harakatlari, siyosiy yetakchilik fazilatlari hamda xalq orasida shakllangan milliy qahramonlik timsoli sifatida tutgan o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada uning merosi bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi. Ishda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda, Jaloliddin Manguberdiy ning tarixdagi o’rni aniq dalillar bilan asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatan himoyasi, mo’g’ullar istilosi, milliy qahramon, tarixiy meros, vatanparvarlik, sarkardalik, XIII asr, jasorat, O‘rta asrlar tarixi, Horazmshohlar davlati, siyosiy mustaqillik, harbiy strategiya, tarixiy shaxs, xalq birligi.

Abistract: This article is devoted to the personality, military talent, and courageous struggle of Jaloliddin Manguberdi, a great commander and national hero of the 13th century. The article highlights Manguberdi’s efforts to defend the homeland from foreign invaders, evaluating his bravery, patriotism, and fight for independence as an inspiring example for future generations. It also explores how concepts such as heroism, patriotism, and national pride are embodied in his image. The work aims to encourage respect for historical heritage and foster loyalty to the homeland among young people.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, defense of the homeland, Mongol invasion, national hero, historical heritage, patriotism, military leadership, 13th century, bravery, medieval history, Khwarazmshahs state, political independence, military strategy, historical figure, national unity.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь и героическая борьба великого полководца и государственного деятеля Джалолиддина Мангуберди, жившего в конце XIII века. В статье проанализированы мужественные военные действия Мангуберди против монгольского нашествия, его лидерские качества и образ национального героя, сформировавшийся среди народа. Также рассматривается значение его наследия в воспитании современной молодежи в духе патриотизма. Работа основана на исторических источниках и научной литературе, а роль Джалолиддина Мангуберди в истории обоснована конкретными фактами.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, защита Родины, монгольское нашествие, национальный герой, историческое наследие, патриотизм, полководец, XIII век, мужество, история средневековья, государство Хорезмшахов, политическая независимость, военная стратегия, историческая личность, народное единство.

Kirish. O‘zbekiston tarixida el-yurt ravnaqi, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida kurashgan, o‘z jasorati va mardligi bilan xalq qalbida abadiy iz qoldirgan buyuk shaxslar talaygina. Ularning ichida Jaloliddin Manguberdi alohida o’rin egallaydi. XIII asrda yashab o’tgan bu ulug‘ sarkarda nafaqat Horazmshohlar davlatining so’nggi timsoli, balki o’z ona yurtini mog’ul bosqinchilaridan himoya qilgan haqiqiy milliy qahramon sifatida tarix sahnasiga chiqqan.

Jaloliddin Manguberdi tarixiy maydonga eng tahlikali, og’ir bir davrda, butun musulmon sharqini larzaga solgan mo‘g‘ul istilosi davrida kirib kelgan edi. U yoshligidan shijoat, tadbir va harbiy iste’dod bilan ajralib turgan bo‘lib, hayoti davomida Vatanni himoya qilishni oliy burch deb bilgan. U boshchiligidagi kurashlar o’sha davrning eng yirik bosqinchilik harakatlariga qarshi jasorat timsoli bo’lib, xalq orasida afsonaviy qahramon obrazini yaratdi.

Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberdiyning hayoti, uning jasorati, harbiy va siyosiy faoliyati, shuningdek, tarixiy shaxs sifatida tutgan o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari, uning merosi bugungi kunda yoshlarga qanday saboq va ibrat bo‘lishi mumkinligi xususida ham fikr yuritiladi. Vatanparvarlik, milliy g‘urur, fidoyilik kabi yuksak fazilatlar aynan shu buyuk shaxs timsolida keng yoritiladi.

Jaloliddin Manguberdi XIII asrning boshlarida O‘rta Osiyo tarixida eng muhim va hal qiluvchi davrlardan birida sahnaga chiqqan qahramondir. U 1198-yilda Horazmshohlar sulolasining yirik vakili sifatida tug‘ilgan va yoshligidan harbiy tayyorgarlik, siyosiy bilim va davlat boshqaruvi sohalarida yetuk tarbiya olgan. Uning otasi – Alauddin Muhammad, Horazm imperiyasining so‘nggi buyuk hukmdorlaridan biri bo‘lib, Jaloliddinning keyinchalik kurashlar maydoniga kirib kelishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

1219-1221-yillarda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g’ul armiyasi Markaziy Osiyo hududlariga bosqin boshladi. Horazmshohlar davlati kuchli bo‘lishiga qaramay, ichki nizo, zodagonlar orasidagi kelishmovchilik va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi mog’ullarga qarshi izchil qarshilik ko’rsatishga to’sqinlik qildi. Ana shunday murakkab sharoitda Jaloliddin Manguberdi o’z zimmasiga Vatanni himoya qilishdek og‘ir, lekin sharafli burchni oldi. Otasining yurish-turishlaridan farqli ravishda u bosqinchilar qarshisida qat’iy va jasur pozitsiya tutdi.

Jaloliddinning harbiy faoliyati, ayniqsa, 1221-yildagi Indus daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda yaqqol namoyon bo‘ldi. U mo‘g‘ullar bilan yuzma-yuz jang qilib, ularga katta talofat yetkazdi. Ushbu jangda Jaloliddin Manguberdi o‘z qo‘shini bilan daryodan ot minib sakrab o‘tib qochgan – bu hodisa nafaqat tarixiy manbalarda, balki dostonlar va rivoyatlarda ham buyuk jasorat timsoli sifatida tilga olinadi. Hatto Chingizxon ham uning jasoratini tan olib: “Agar menda shunday o’g’il bo’lganida, butun dunyoni egallagan bo’lardim”, deganligi haqida tarixiy rivoyatlar mavjud.

Jaloliddin Manguberdi Hindiston, Eron, Ozarbayjon va Iroq hududlarida mo‘g’ullarga qarshi harakatlarni davom ettirdi. U faqat janglarda qatnashmagan, balki musulmon dunyosining turli xalqlarini birlashtirish va yagona frontda mo‘g’ullarga qarshi chiqish g‘oyasini ilgari surgan. Bu harakatlar, afsuski, o’zaro nizolar va siyosiy bo‘linishlar tufayli to‘liq amalga oshmagan bo’lsa-da, uning birlashtiruvchilik salohiyati tarixiy manbalarda yuksak baholangan.

Uning shijoati, siyosiy tadbirkorligi va strategik fikrlashi uni nafaqat mo‘g‘ullarga qarshi kurashgan oddiy sarkarda, balki mustaqil davlatni tiklashga harakat qilgan yirik arbob sifatida namoyon etdi. Jaloliddin Manguberdi hayotining so‘nggi yillari Eron va Iroq hududlarida mo’g’ullarga qarshi harbiy yurishlar bilan o’tgan. Tarixchilarning fikricha, u 1231-yilda Kurdiston yaqinida dushmanlar tomonidan o‘ldirilgan.

Jaloliddinning qahramonlik ruhi xalq og’zaki ijodida keng aks etgan. Uning nomiga bag‘ishlab dostonlar, rivoyatlar, tarixiy asarlar yaratilgan. O’zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qahramon sifatida Jaloliddin Manguberdi shaxsiga bo’lgan e’tibor yana-da ortdi. Uning hayoti haqida ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, tarixiy filmlar yaratilmoqda. Shuningdek, uning nomi ko‘plab ta’lim muassasalari, ko‘chalar va yodgorliklarga berilgan.

Bugungi yosh avlod uchun Jaloliddin Manguberdi siymosi — bu Vatanga sadoqat, jasorat, qat’iyat, birlik va g‘ururning timsolidir. Uning merosi yoshlar qalbida milliy g‘urur uyg‘otadi, tarixiy o’zlikni anglashga undaydi hamda Vatanni sevish, uni himoya qilish mas’uliyatini chuqur anglatadi.

Xulosa. Jaloliddin Manguberdi nafaqat o’z davrining jasur sarkardasi va siyosiy yetakchisi, balki xalqini mustamlakachilikdan himoya qilish uchun butun borlig‘ini bag‘ishlagan chinakam vatanparvar inson edi. U tarixiy adolatsizlikka qarshi turib, o‘zining qat’iyati, harbiy mahorati va milliy g‘ururi bilan minglab yuraklarga umid va ishonch baxsh etdi. Mo‘g‘ullar istilosi singari kuchli va tajovuzkor kuchga qarshi mardona kurashi, hatto dushman tomonidan ham e’tirof etilgan jasorati uni xalq xotirasida abadiy qoldirdi.

Jaloliddin Manguberdi hayoti biz uchun ibrat maktabidir. Uning qahramonligi — bugungi avlod uchun nafaqat tarixiy haqiqat, balki vatanparvarlik, fidoyilik, milliy birlik va mustaqillik g‘oyalarining timsolidir. Uning merosini o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish, faqat tarixiy voqea sifatida emas, balki hozirgi kunda ham amaliy ahamiyat kasb etuvchi ma’naviy boylik sifatida qarash muhimdir.

Bugungi mustaqil O’zbekiston yoshlari Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning jasoratli kurashlaridan saboq olib, Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va yurt ravnaqi yo‘lida intilish ruhida tarbiyalanishi zarur. Zero, tarixni bilgan, ajdodini e’zozlagan, o‘zligini tanigan xalqgina buyuk kelajak sari dadil qadam qo‘yadi.

Foydalinilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Vohidov Sh. Jaloliddin Manguberdi – milliy qahramon. – Toshkent: O’zbekiston, 1999.
3. Bekmurodov A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010.
4. Allambergenov M. O‘zbekiston tarixi: qadimgi davrlardan hozirgi kungacha. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.
5. Barthold V.V. Turkiston mongollar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1993.
6. Rashid ad-Din. Jome’ at-tavorix (Tarixlar majmuasi). Tarj. va izohlar bilan nashrga tayyorlovchi: M. Mirzaev. – Toshkent: Sharq, 1999.
7. Ahmedov B. Mo‘g‘ullar istilosi davrida Movarounnahr. – Toshkent: Fan, 1996.
8. Jo’raev A. Tarix saboqlari va tarixiy shaxslar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
9. Jalolov M. Jaloliddin Manguberdi – jasorat timsoli. // “Tarix va haqiqat” jurnali, 2021, №2.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-dekabrdagi PQ–3456-son qarori: Milliy g‘oya va ma’naviyatni yanada rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR- MILLIY G‘URUR VA TARIXIY XOTIRA TIMSOLI

M.Dedamirzayeva
Namangan davlat pedogogika institutining "O‘zbek tili adabiyot" yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Pozilova**

Annotasiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek xalqining tarixiy xotirasida tutgan o‘rni, uning siyosiy, adabiy va ma’naviy merosi tahlil qilinadi. Bobur shaxsiyati milliy g‘urur va tarixiy timsol sifatida yoritilib, uning asos solgan Boburiylar davlati, yozgan “Boburnoma” asari hamda she’riy ijodi asosida bugungi avlodga qanday ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilayotgani ochib berilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida Bobur merosiga bo‘lgan e’tibor, davlat miqyosida ko‘rilayotgan ilmiy va ma’naviy chora-tadbirlar haqida ham fikr yuritiladi. Maqola tarix, adabiyot va ma’naviyat bilan qiziqqan o‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Annotation. This article analyzes the place of Zahiriddin Muhammad Babur in the historical memory of the Uzbek people, his political, literary and spiritual heritage. The personality of Babur is highlighted as a national pride and historical symbol, and the Babur state he founded, the work "Boburnoma" he wrote, and his poetic work serve as a model for today's generation. It also discusses the attention paid to Babur's legacy during the years of independence, and the scientific and spiritual measures taken at the state level. The article serves as a useful source for students and researchers interested in history, literature and spirituality.

Аннотация. В статье анализируется место Захириддина Мухаммада Бабура в исторической памяти узбекского народа, а также его политическое, литературное и духовное наследие. Личность Бабура подчеркивается как символ национальной гордости и исторической значимости, а основанное им государство Бабура, написанное им произведение «Бабур-наме» и его поэтическое творчество раскрываются как образец для сегодняшнего поколения. В статье также обсуждается внимание, уделяемое наследию Бабура в годы независимости, а также научные и духовные меры, принимаемые на государственном уровне. Статья послужит полезным источником информации для читателей и исследователей, интересующихся историей, литературой и духовностью.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Boburiylar davlati, milliy g‘urur, tarixiy xotira, adabiy meros, mustaqillik, temuriylar, o‘zbek adabiyoti, vatanparvarlik.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, Babur state, national pride, historical memory, literary heritage, independence, Timurids, Uzbek literature, patriotism.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабур-наме, государство Бабура, национальная гордость, историческая память, литературное наследие, независимость, Тимуриды, узбекская литература, патриотизм.

O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslardan biri bu — Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning siyosiy faoliyati, adabiy merosi va madaniy qarashlari butun musulmon Sharqida, xususan, Markaziy Osiyoda chuqur iz qoldirgan. Bobur nafaqat zabardast sarkarda, balki chuqur tafakkur egasi, shoir, tarixchi, tabiatshunos, davlat arbobi sifatida tanilgan. U asos solgan Boburiylar imperiyasi Hindistonda uch asrdan ortiq davom etgan va bugungi kunda ham o‘z tarixiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Boburning hayoti va siyosiy faoliyati. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo, Amir Temurning nabirasi bo‘lib, Farg‘ona vodiysini boshqargan. Bobur yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lgan, arab, fors, turkiy tillarda savodli bo‘lgan. U 12 yoshida otasidan meros qolgan Farg‘ona taxtiga o‘tirgan. Bobur yoshlik yillaridanoq siyosiy kurashlarga aralashgan. Uning Samarqandni zabt etish yo‘lidagi urinishlari muvaffaqiyatli boshlangan bo‘lsa-da, ichki siyosiy beqarorliklar va tashqi tahdidlar uni ko‘plab chekinishlarga majbur qilgan. Keyinchalik u Movarounnahrni tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yo‘l oladi. Nihoyat, 1526-yil Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Lodiy ustidan g‘alaba qozonib, Boburiylar davlatiga asos soladi[1].
Bobur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi isloh qilinadi, adolatli soliq siyosati joriy qilinadi. U harbiy intizom, yer tuzumi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Hindiston xalqlari bilan bag‘rikeng munosabat o‘rnatib, diniy erkinlikni ta’minlaydi. Bu uning siyosiy yetukligi va strategik tafakkur egasi ekanini ko‘rsatadi[2].

Zahiriddin Boburning eng mashhur asari — “Boburnoma” bo‘lib, bu asar nafaqat xronika, balki badiiy-adabiy durdona sifatida ham tarixda alohida o‘rin tutadi. “Boburnoma”da Bobur o‘z hayoti, janglari, siyosiy voqealar, shaxsiy his-tuyg‘ulari, tabiat, geografik manzaralar va jamiyat haqida yozadi. U joylar, daryolar, tog‘lar, odamlar va iqlim haqida chuqur kuzatuvlar qiladi.

“Boburnoma” o‘zining sodda, ravon va samimiy tili bilan o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Asarda Bobur ko‘plab iqtiboslar bilan muhim fikrlarni ifodalaydi. Masalan, u yozadi: “Hayotda ko‘p g‘am ko‘rdim, lekin g‘am bilan birga tajriba ham oldim”[3]. Bu so‘zlar uning hayotga, sinovlarga va sabrga qanday qaraganini ko‘rsatadi.

Tarixchi va adabiyotshunos olimlar “Boburnoma”ni turkiy tilning yuksak yodgorligi, shuningdek, tarixiy manba sifatida qadrlashadi. Bu asar bugungi kunda ham ko‘plab tillarga tarjima qilingan va jahondagi yetakchi kutubxonalarda saqlanmoqda[4].

Bobur o‘z davrining yirik adiblaridan biri bo‘lgan. U “Bobur” taxallusi bilan ko‘plab she’rlar, g‘azallar yozgan. Uning g‘azallarida muhabbat, vatan, insoniylik, sabr-toqat va fano haqida chuqur falsafiy qarashlar mujassam. U shoir sifatida Alisher Navoiy an’analariga sodiq qolgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos uslub yaratishga erishgan. Boburning she’rlarida hayot va o‘lim, sevgi va hijron, dunyo va oxirat kabi mavzular borasida chuqur fikrlar uchraydi. Masalan, u bir baytida shunday deydi: “Dard ila xurramligim yo‘qtur, bu holim kim bilur,

Baxshidin necha jahon aytingki, dard ila kulur.”[5] Uning she’riyati bugungi o‘quvchi uchun ham estetik zavq va ma’naviy ozuqa manbaidir. Boburning lirikasida inson qalbi, ruhiy kechinmalar, hayot haqiqatlari go‘zal tasvir topgan.

Bobur o‘z davrida ilm-fan, san’at, me’morchilik va tabiatshunoslikni rivojlantirishga katta e’tibor bergan. “Boburnoma”da daraxtlar, gullar, hayvonlar haqida juda ko‘p ilmiy tavsiflar berilgan. U Hindiston iqlimi, tuprog‘i, daryolari haqida aniq va faktlarga asoslangan kuzatuvlar keltiradi[6]. Shuningdek, Bobur me’morchilikka ham katta e’tibor qaratgan. Uning tashabbusi bilan qurilgan bog‘lar va binolar hind me’morchiligiga yangi nafas olib kirgan. Ayniqsa, Boburiylar tomonidan keyinchalik qurilgan Toj Mahal, Humoyun maqbarasi, Agra qal’asi va boshqa yodgorliklar uning boshlab bergan madaniy siyosatining samarasidir[7].

Mustaqillik yillarida Zahiriddin Muhammad Boburga bo‘lgan e’tibor keskin oshdi. Uning yodgorliklari restavratsiya qilinmoqda, haykallari tiklanmoqda, Bobur nomidagi bog‘lar, maktablar, universitetlar tashkil etilgan. 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi keng nishonlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda qilgan nutqida shunday degan edi: “Bobur Mirzo — bu bizning milliy g‘ururimiz, tarixiy xotiramiz, ulkan ma’naviy kuch manbai.”[8]

Bugungi kunda Bobur merosi yoshlarga tarixiy xotira, vatanparvarlik, adolat va halollik saboqlarini beradi. Uning ijodi maktab o‘quv dasturlariga kiritilgan, universitetlarda maxsus fanlar orqali o‘rganiladi.

Xulosa. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining boy siyosiy, adabiy va ma’naviy merosi bilan nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun musulmon sharqining faxri bo‘lib kelmoqda. Uning asarlari, g‘oyalari, bosib o‘tgan hayot yo‘li bugungi va kelajak avlodlar uchun ibrat maktabidir. U tarixda zabardast sarkarda, chuqur tafakkur egasi va adolatparvar hukmdor sifatida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov A. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Fan, 1990.
2. Sultonova R. Boburiylar imperiyasi va ularning tarixdagi o‘rni. – “Sharq yulduzi”, 2017, №3.
3. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2002.
4. Alimov S. “Boburnoma” – tarix va adabiyot uyg‘unligi. – Toshkent, 2015.
5. Mirtemirov A. Bobur — shoir va mutafakkir. – “Ma’naviyat” jurnali, 2008, №2.
6. Rtveladze E.V. Bobur – tabiatshunos va tarixchi. – “O‘zbekiston tarixi” jurnali, 2004, №1.
7. Aliyeva N. Boburiy me’morchiligi va uning jahon merosidagi o‘rni. – “San’at”, 2011, №4.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

AMIR TEMUR SIYMOSI ADABIYOTDA VA TARIXDA

M.Abdullayeva
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti o’zbek tili va adabiyoti UZB-CU-24 guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Fozilova**

Annotatsiya::ushbu maqolada O‘rta asr Sharq tarixining buyuk arbobi Amir Temur siymosining tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotda aks etishi keng yoritiladi. Temurning davlat boshqaruvidagi salohiyati, harbiy iste’dodi, ilm-fan va madaniyatga e’tibori, shuningdek, zamonaviy adabiy yondashuvlarda qanday talqin qilinayotgani haqida fikr yuritiladi. Maqolada tarixiylik va badiiylik uyg‘unligidagi Temur siymosi chuqur tahlil qilinadi.

Kalit sòzlar : Temuriylar, harbiy iste’dod, davlat boshqaruvi, adolat, “Temurnoma”, sohibqiron, ilm-fan, tarixiylik-badiiylik, tarixiy manbalar, yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещается образ великого государственного деятеля Средневекового Востока Амир Темура в исторических источниках и художественной литературе. Анализируется его политическая деятельность, военное мастерство, внимание к науке и культуре, а также рассматриваются современные литературные подходы к его личности. В статье проводится глубокий анализ синтеза историчности и художественности образа Темура.

Ключевые слова: тимуриды, военное мастерство, государственное управление, справедливость, «Темурнаме», Сахибкирон, наука, культура, историко-художественный подход, исторические источники, подходы.

Annotation : This article provides a comprehensive analysis of the image of Amir Temur, a prominent figure in the medieval Eastern world, as portrayed in historical sources and literary works. It explores his state governance, military genius, commitment to science and culture, and examines how modern literature interprets his legacy. The study focuses on the interplay between historical accuracy and artistic representation of Temur’s persona.

Keywords: Timurids, military genius, state governance, justice, “Temurnama”, Sahibqiran, science, culture, historical-artistic synthesis, historical sources, approaches.

Buyuk shaxslar doimo tarixni yaratganlar va ularni tarix yaratgan. Bunday siymolardan biri — Amir Temur (1336–1405), ya’ni Sohibqiron bo‘lib, u nafaqat Movarounnahr, balki butun Sharq olamining taqdirini o‘zgartirgan buyuk arbobdir. Uning siymosi asrlar davomida tarixiy manbalar orqali ilmiy yondashuv bilan o‘rganilgan bo‘lsa, adabiyotda esa ma’naviy, ruhiy va ramziy qirralari bilan gavdalangan. Temur shaxsi o‘zbek xalqining milliy iftixori, buyuk ajdodlarimizning ramzi sifatida ham tarix, ham adabiyotda chuqur iz qoldirga

Amir Temurning tarixiy shaxs sifatidagi siymosi Amir Temur XIII–XIV asrlar chegarasida kuchsizlashgan Chingiziylar hukmronligi o‘rnida kuchli markazlashgan davlat — Temuriylar imperiyasini barpo etdi. U o‘zining “Tuzuklari” orqali davlat boshqaruvi tamoyillarini belgilab berdi. Bu me’yorlar: adolat, intizom, harbiy salohiyat, ilm-fanga e’tibor, ulamolar va san’atkorlarga homiylik kabi qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur 27 ta harbiy yurishlar tashkil etgan va ularning deyarli barchasida g‘alaba qozongan. Hindiston, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Armaniston, Suriya va boshqa hududlarni zabt etgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand Sharqning madaniy, ilmiy va savdo markaziga aylandi.

Temurnoma va tarixiy manbalar Temurnoma Amir Temurning shaxsiy topshirig‘i bilan yozilgan bo‘lib, unda uning hayot yo‘li, maqsadlari va g‘oyalari o‘z aksini topgan. Bu asar faqat tarixiy faktlarni emas, balki Temurning o‘z-o‘ziga bergan baholarini ham aks ettiradi. Sharafuddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asari ham Temurning harbiy yurishlari va davlat boshqaruvidagi yutuqlarini tarixiy dalillarga tayangan holda tasvirlaydi. Ibn Arabshoh esa Ajoyib al-maqdur asarida Temurni ko‘proq tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning harbiy strategiyasi va siyosiy aql-zakovati yuksak baholanadi.

Adabiyotda Amir Temur siymosi Amir Temur siymosi badiiy adabiyotda yuksak ideal, xalq ozodligi va adolat uchun kurashgan milliy qahramon sifatida talqin qilingan. Ko‘pgina adiblar uni tarixiy obro‘-e’tiborga sazovor shaxs, xalqparvar hukmdor sifatida tasvirlashgan. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dostoni bu borada eng yorqin misoldir. Ushbu asarda Temurning bolaligidan boshlab butun hayoti obrazli tilda, chuqur falsafiy mazmun bilan ifodalangan. Doston orqali Temur o‘z xalqining o‘tmishi va kelajagi uchun javobgar rahbar sifatida gavdalantiriladi. Erkin Vohidov o‘z she’riy merosida Temurni xalq ruhiyati, jasorat, sabr-toqat va g‘urur timsoli sifatida tasvirlaydi. Uning she’rlarida Temur obrazining zamonaviylik bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishini ko‘rish mumkin Oybek, Mirtemir, G‘afur G‘ulom kabi adiblar ham o‘z ijodlarida Temur siymosiga murojaat qilgan, uni xalqparvarlik va mustaqillik ramzi sifatida talqin etgan.

Amir Temur merosining zamonaviy talqini Bugungi kunda Amir Temur siymosi adabiyotda va tarixda faqat o‘tmishni eslash uchun emas, balki yosh avlodga vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik kabi fazilatlarni singdirish uchun ishlatilmoqda. Uning siymosi nafaqat dostonlar va tarixiy romanlarda, balki teatr, kino va publitsistikada ham keng ifoda topmoqda. Prezident farmoni bilan 1996-yil “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi va bu orqali Temur merosini yangicha qarashlar asosida o‘rganish boshlangan. Bugungi adabiyotda Temurning g‘oyalari global qarashlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda, bu esa uning siymosini faqat tarixiy emas, balki zamonaviy ijtimoiy timsolga aylantirmoqda. Amir Temur siymosi tarixiylik va badiiylik uyg‘unligida o‘zining abadiy qadriga ega. Tarixda u — buyuk sarkarda, davlat arbobi, siyosiy arbob sifatida tanilgan bo‘lsa, adabiyotda — ruhiy yetakchi, millat faxri, mustaqillik timsolidir. Uning siymosi orqali biz nafaqat tariximizni o‘rganamiz, balki kelajagimiz uchun g‘oyaviy, ma’naviy saboqlar olamiz. Har bir yosh avlod Amir Temur siymosidan ilhom olib, o‘zini yurt ravnaqi uchun mas’ul his etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafuddin Ali Yazdiy – Zafarnoma
2. Ibn Arabshoh – Ajayib al-maqdur fi tarikh al-Timurid
3. Nizomiddin Shomi – Zafarnoma
4. Abdulla Oripov – Sohibqiron dostoni
5. Erkin Vohidov – She’riy to‘plamlar
6. G‘afur G‘ulom – Adabiy tanqid asarlari
7. Oybek – Tarixiy obrazlar haqida maqolalar
8. R. Abdullayev – Temuriylar davlati tarixi
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yilgi farmoni: “Amir Temur yili” haqida
10. O‘zbekiston Tarixi. 1–2 jildlar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010.

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYALARI

Z.U.Faxriddinova
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Ikramova**

Anatatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyalarining ifodalanishi tahlil etiladi. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari asosida yozuvchi milliy o‘zlikni anglash, ma’rifat va adolat g‘oyalarini ilgari surganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tarixiy obrazlar orqali xalqni uyg‘otish, jamiyat muammolarini fosh etish orqali milliy uyg‘onish g‘oyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, milliy uyg‘onish, tarixiy roman

Анататсия: В статье рассматриваются идеи национального пробуждения в произведениях Абдуллы Кадыри. Например романов «Прошедшие дни» и «Скорпион из михраба» анализируется, как автор через исторические образы раскрывает темы национального самосознания, просвещения и социальной справедливости. Особое внимание уделяется духовному возрождению народа.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, национальное пробуждение, исторический роман.

Annotation:This article explores the ideas of national awakening in the works of Abdulla Qodiriy. Based on his novels “Bygone Days” and “Scorpion from the Mihrab”, it highlights how the author uses historical characters to reflect on national identity, enlightenment, and justice. The focus is on raising public consciousness through literary expression.

Keywords: Abdulla Qodiriy, national awakening, historical novel.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos uslub va g‘oyaviy boylik bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri bu — Abdulla Qodiriydir. XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jadidchilik harakati, xalqni ilm-ma’rifatga undash, milliy o‘zlikni anglash kabi muhim masalalar adabiyotda ham o‘z aksini topa boshladi. Bu jarayonda Qodiriyning asarlari xalq ongi va tafakkurining uyg‘onishiga katta hissa qo‘shdi.

Milliy uyg‘onish – bu xalqning o‘z tarixini, madaniyatini, tili va an’analarini anglab yetishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta boshlashi, ozodlik va taraqqiyot sari intilishidir. Abdulla Qodiriy ana shu ruhdagi g‘oyalarni badiiy asarlari orqali keng ommaga yetkazdi. Uning romanlarida tarixiy voqealar, milliy qahramonlar, jamiyatdagi ziddiyatlar va islohot zarurati aniq va obrazli tasvirlangan. Qodiriy milliy uyg‘onish g‘oyalarini faqat tarixiy tafakkur bilan emas, balki zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘un holda yoritdi. Shuning uchun ham uning asarlari o‘z davrida ham, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Abdulla Qodiriy ijodida milliy uyg‘onish g‘oyalarining eng yorqin ifodasi uning mashhur romanlari — “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarida ko‘rinadi. Bu asarlar orqali u xalqning ma’naviy va siyosiy uyg‘onishini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat, ilm-ma’rifat, ayollar huquqlari va erkinlik kabi muhim masalalarni ilgari surdi.

“O‘tkan kunlar” romanida uyg‘onish g‘oyalari: “O‘tkan kunlar” romanida Qodiriy XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston hayotini, ayniqsa, Buxoro va Qo‘qon atrofidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni tasvirlaydi. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali yozuvchi yangi, taraqqiyparvar, ilg‘or fikrli avlodning timsolini yaratadi. Otabek – milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi, xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan, ilmli, adolatparvar shaxsdir. Uning obrazida Qodiriy taraqqiyot, islohot va erkinlik uchun kurashayotgan o‘zbek ziyolilarining orzularini mujassamlashtiradi.

Roman orqali muallif tarixni esga olib, o‘tmishdagi adolatsizlik va johilliklarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u o‘quvchini kelajakka umid bilan qarashga, milliy qadriyatlarni unutmasdan yangilik sari intilishga undaydi. Ayniqsa, ayol erkinligi masalasiga e’tibor qaratilishi, Kumushning fidoyilik bilan kurashishi Qodiriyning ilg‘or fikrlar egasi ekanini ko‘rsatadi.

“Mehrobdan chayon”da jamiyat tanqidi va uyg‘onish : “Mehrobdan chayon” romanida esa Qodiriy diniy soxta e’tiqodlar, jaholat, nohaqliklar va ayniqsa, ayollar hayotidagi zo‘ravonliklarni ochib beradi. Bu asarda u xalqni faqat tashqi dindorlik bilan emas, balki ichki ma’naviyat va ongli islohotlar orqali uyg‘otish kerakligini uqtiradi. Ziyo shaharning soxta ulamolari, qoloq urf-odatlar Qodiriy tomonidan keskin tanqid qilinadi.

Asarda berilgan tasvirlar orqali muallif jamiyatdagi azaliy muammolarni ochib berish bilan birga, ularni bartaraf etish uchun yo‘l-yo‘riq ham ko‘rsatadi. Bu yo‘l — ilm, ma’rifat, haqiqatni sevish va o‘zligini anglash yo‘lidir. Bu esa milliy uyg‘onishning mohiyatini tashkil etadi.

Qodiriy ijodida tarix va kelajak uyg‘unligi : Qodiriy faqat tarixni tasvirlab qolmaydi, balki tarixiy voqealar orqali o‘z zamonasi uchun muhim xulosalarni chiqaradi. U o‘z o‘quvchisiga: “o‘tmishni unutma, lekin unga berilib qolma, o‘rgan va undan saboq ol” degan g‘oyani singdiradi. Shu bois uning romanlari nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham egadir. Uning asarlarida xalqni o‘z qadriyatlari, tili, dini va tarixiga qaytarish, o‘zligini anglash orqali mustaqil va taraqqiy etgan jamiyat qurishga undov mavjud. Bu jihatlar Abdulla Qodiriy ijodini milliy uyg‘onish adabiyotining muhim namunasiga aylantirgan.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlari orqali xalqni ogohlikka, tafakkurga, zamon bilan hamqadam bo‘lishga undagan. U millatga ma’naviy uyg‘onish zarurligini chuqur his etgan va buni asarlari orqali ifoda qilgan. Ayniqsa, ilmga intilish, adolatli jamiyat qurish, inson huquqlariga hurmat kabi g‘oyalar uning ijodining asosini tashkil etadi. Uning asarlarida o‘z davriga xos ijtimoiy muammolar — mansabparastlik, nodonlik, ayollarning haq-huquqlari poymol qilinishi, soxta dindorlik, savodsizlik kabi illatlar tanqid ostiga olinadi. Bu orqali u adabiyotni faqat san’at emas, balki xalqni tarbiyalovchi, yo‘l ko‘rsatuvchi kuch sifatida ishlatadi.

Qodiriy — yangi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri. Qodiriy nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham yangilik olib kirgan ijodkordir. U roman janrini o‘zbek adabiyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etgan birinchi yozuvchilardan biri bo‘lib, voqeani batafsil tasvirlash, obrazlar ruhiy holatini ochib berish, voqelikni tarixiy asosda yoritish orqali adabiyotimizda yangi bosqich boshlab bergan.

“O‘tkan kunlar” romani orqali u realizm uslubini rivojlantirdi, xalq hayotini haqqoniy tasvirladi. Buning natijasida o‘zbek adabiyotida avval bo‘lmagan yangi qahramonlar, yangi muammolar va yangi uslublar paydo bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida milliy adabiy tafakkurning uyg‘onishiga xizmat qildi. Qodiriy obrazlarining tarbiyaviy kuchi : Qodiriy tomonidan yaratilgan obrazlar, xususan, Otabek, Kumush, Zaynab, Komilxo‘ja kabi personajlar nafaqat o‘z davrining ijtimoiy muhitini aks ettiradi, balki bugungi yosh avlod uchun ham ibrat manbaidir. Ayniqsa, Otabek obrazidagi qat’iyat, bilimga intilish, millat manfaatini himoya

qilish kabi fazilatlar milliy uyg‘onishning asosiy g‘oyalarini o‘zida mujassam etadi. Kumush obrazida esa Qodiriy o‘z zamonasining ilg‘or ayolini tasvirlaydi — u sevgi, sadoqat va o‘z huquqlari uchun kurashishga tayyor. Bu esa yozuvchining ayol mavqeini yuksaltirishga, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan ilg‘or qarashlarini aks ettiradi. Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga yangicha mazmun va shakl olib kirgan, xalqning milliy ongini uyg‘otishda beqiyos xizmat qilgan atoqli adibdir. Uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari nafaqat badiiy yuksaklikka ega asarlar, balki o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarini aks ettirgan, xalqni tafakkurga, o‘zligini anglashga undagan muhim adabiy hodisalardir. Qodiriy o‘z asarlarida xalqni faollikka, ilm-ma’rifatga, adolat va ozodlik uchun kurashga chorlagan. U tarixiy voqealar va obrazlar orqali o‘tmishni eslatgan holda, kelajakka umid bilan qarashga undagan. Ayniqsa, jamiyatdagi illatlarni ochib berib, ularni bartaraf etish yo‘lini ko‘rsatganligi bilan uning ijodi milliy uyg‘onish adabiyotining muhim qismiga aylangan. Bugungi kunda ham Qodiriy asarlari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning tarbiyaviy, ma’naviy va mafkuraviy ahamiyati yuqori bo‘lib, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriyning badiiy merosi o‘zbek adabiyotining faxri va milliy uyg‘onish tarixining muhim sahifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2020.
3. G‘aniyeva M. Abdulla Qodiriy ijodiy merosi. – Toshkent: O‘zR FA Til va adabiyot instituti, 2015.
4. Sirojiddinov S. Milliy uyg‘onish adabiyoti va Abdulla Qodiriy // O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Alimova D. va boshq. O‘zbekiston tarixi: XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy harakatlar. – Toshkent: Sharq, 2012.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Qahhorov Q. Adabiy tanqid va Qodiriy fenomeni // Adabiyotshunoslik risolalari. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Sobirov B. Milliy uyg‘onish g‘oyalarining shakllanishida jadid adabiyoti o‘rni // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: 2019.

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINING MAZMUNI

S.S.Ataxanov
Namangan davlat pedagogika instituuti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
B.A.Tillayev
Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar katta o‘qtuvchisi
E-mail: samandarataxanov151@gmail.com
Tel: +99895-571-41-06

Annotatsiya: Maqolada media va axborot savodxonligining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. U axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali, axborotdan samarali va axloqiy foydalanishga yordam beradi. Shuningdek, maqola media savodxonligining ta'lim tizimi va demokratik jarayonlardagi rolini, shuningdek, uning global axborot almashinuvidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Media atamasi, OAV (Ommaviy Axborot Vositalari), Mediya Savodxonlik, Axborot Savodxonligi, UNESCO Ta'kidi, Shvetsiya Tajribasi.

Аннотация: В статье анализируется роль и значение медийной и информационной грамотности в обществе. Она помогает развивать навыки выбора, оценки, переработки и передачи информации, что способствует эффективному и этичному использованию информации. Также в статье рассматривается роль медийной грамотности в системе образования и демократических процессах, а также её значение в глобальном информационном обмене.

Ключевые слова: Медиатермин, средства массовой информации (СМИ), медиаграмотность, информационная грамотность, фокус ЮНЕСКО, шведский опыт.

Annotation: The article analyzes the role and significance of media and information literacy in society. It helps to develop skills in selecting, evaluating, processing, and transmitting information, which contributes to the effective and ethical use of information. The article also highlights the role of media literacy in the education system and democratic processes, as well as its importance in global information exchange.

Keywords: Media Term, Mass Media (Mass Media), Media Literacy, Information Literacy, UNESCO Focus, Swedish Experience.

Kirish. «Media» atamasi (lotincha - medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalash, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Hozirgi zamon jamiyatining taraqqiyotiga mediolarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy mediolarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreatiklik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Shu bilan birga boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzdagi tavsiflar berilganini ko‘ramiz. «Media - ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funktsiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallari». Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi uzagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhitini sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi.

Kommunikatsiya kanali sifatida mediolar sirasiga mutaxassislar bosma nashrlar, elektron OAV, shu jumladan Internet, reklamaning tashqi vositalari va, hatto, pochta tarqatmasini, ya'ni, tovar yoki xizmatlar sotuvchisi va iste'molchi o‘rtasidagi hayotmamot zvenosi funktsiyasini bajaruvchi barcha omillarni kiritadi.[1]

Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Ushbu majmuani 1-jadvalda ko‘rish mumkin. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e'tirof etadi.

“Axborot Savodxonligining Bosqichlari”:

“Axborot ehtiyojlarini aniqlash va shakllantirish”,
“Axborotni izlash va unga egalik qilish”,
“Axborotni baholash”,
“Axborotni tizimlashtirish”,
“Axborotdan axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish”,
“Axborotni uzatish”,
“Axborotni qayta ishlash uchun AKT bilan ishlash ko‘nikmalaridan foydalanish”

Mediya savodxonlik – mass-medianing qabul qilinishi va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Mazkur majmua 2-jadval ko‘rinishida keltirilgan.

2-jadval

Demokratik jamiyatda mediyning roli va funksiyalarini tushunish
Media o‘z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni tushunish
Media kontentini uning funktsiyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash
Media vositasida o‘z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o‘zaro hamkorlik qilish
Foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni faollashtirish (shu jumladan, AKT bilan ishlash ko‘nikmalari)

Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko‘ra esa, media savodxonlik harakat bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat.[2]

Ommaviy axborot vositalarini iste’molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko‘nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o‘zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko‘nikmalarini o‘rganishning ushbu jarayoni “media ta’lim” deb ataladi.[3]

Media va axborot savodxonligi 2007 yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushunchadir. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi. 2016 yildan beri UNESCO har yili o‘tkaziladigan Media va axborot savodxonligi haftaligida yoshlarga bag‘ishlangan platformani, ya’ni Yoshlar kun tartibi forumini taqdim etib keladi. Forumni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirish dasturlari, tashabbus va tadbirlarida ishtirokini ta’minlash muhimligini ta’kidlash, media va axborot savodxonligi bo‘yicha bilim va resurslarni yaratish va tarqatishda yoshlarni jalb etishdan iborat.[4]

Shvetsiyada mediata'lim 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan.Mediata’limni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma’lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o’z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmьlar va teledasturlar haqida o’z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo’lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata’lim Shvetsiya milliy o’quv dasturiga rasman kiritilgan.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Я.Маматова,С.Сулайманова. ЎЗБЕКИСТОН МЕДИАТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ ЙЎЛИДА.– Т.: «Extremum-press», 2015. – 9 б.
2. Xolliyev Abdulhamid Urmanovich. MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY NAZARIY TAHLILI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337-b.294
3. Media va Axborot savodxonligi.//https://kompy.info/1-mavzu-media-va-axborot-savodxonligi-tushunchasi-reja-media-v.html [Murojaat qilingan sana: 30.03.2025]
4. Rushana Sultonova. Media va axborot savodxonligi: ushbu haftalik nima uchun kerak?. //https://qalampir.uz/uz/news/media-va-akhborot-savodkhonligi-ushbu-%D2%B3aftalik-nima-uchun-kerak-48756#:~:text=Media%20va%20axborot%20savodxonligi%20%E2%80%94%20bu,munosabat%2C%20malaka%20va%20amaliyotlar%20majmuidir. [Murojaat qilingan sana: 30.03.2025]
5. Mediasavodxonlik.//https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik [Murojaat qilingan sana: 30.03.2025]

MEDIA VA AXBOROTNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

B.A.Tillayev
Falsafiy va tarixiy fanlar katta o‘qtuvchisi
O.Y.Ibragimov
Namangan davlat pedagogika instituuti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Email:oibragimov386@gmail.com
Tel: 77 024 47 49

Annotatsiya: Maqolada media savodxonlik va axborot madaniyatining mohiyati, ularning jamiyatdagi o‘rni hamda xorijiy davlatlar tajribasi yoritiladi. Media savodxonlik insonlarga axborotni tanqidiy tahlil qilish va soxta manbalardan himoyalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Media savodxonlik, Axborot madaniyati, Xabarlarni tahlil qilish, Ommaviy axborot vositalari, XXI-asr axborot asri, Axborot texnologiyalari, Multimedya savodxonligi, Dezinformatsiyadan himoya, Axborot muhitida ongli bo‘lish.

Аннотация: В статье рассматривается сущность медиаграмотности и информационной культуры, их роль в обществе, опыт зарубежных стран. Медиаграмотность позволяет людям критически анализировать информацию и защищать себя от фейковых источников.

Ключевые слова: Медиаграмотность, Информационная культура, Анализ новостей, Средства массовой информации, Информационная эпоха XXI века, Информационные технологии, Мультимедийная грамотность, Защита от дезинформации, Осведомленность в информационной среде.

Abstract: The article discusses the essence of media literacy and information culture, their role in society, and the experience of foreign countries. Media literacy allows people to critically analyze information and protect themselves from fake sources.

Keywords: Media literacy, Information culture, News analysis, Mass media, 21st century information age, Information technologies, Multimedia literacy, Protection from disinformation, Awareness in the information environment.

Kirish. Media savodxonlik va axborot madaniyati insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto‘g‘ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo‘lgan odam osongina sezishi mumkin bo‘ladi. Media savodxonlik - insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto‘g‘ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo‘lgan odam osongina sezishi mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik-bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo‘llash qobiliyati.

XXI-asr axborot asri, deya e’tirof etildi. Bunga asosiy sabab ushbu asrga kelib, misli ko‘rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo‘ldi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam inqilob sodir bo‘ldi. 1986-yilda Internetning dunyoda barqaror o‘ringa ega bo‘lishi axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotida olamshumul voqeaga aylandi. Garchi amerikalik olim R.Xartli «axborot» tushunchasini texnik aloqa kanallari bo‘ylab tarqatiluvchi ma’lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun 1928-yilda birinchi marta ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa-da, bu atamaga jiddiy e’tibor 1948- yildangina qaratila boshlagan edi. XX-asrning 60-yillaridagi ko‘p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayni shu davrda axborotni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Kibernetikaning rivojlanishi va axborot nazariyasi fanining maydonga kelishi bu sohaning keng miqyosda taraqqiy etishiga olib keldi.[1]

«Axborot» tushunchasi uzoq tarixi va ko‘p qirrali ma’nosiga ega. Ijtimoiy hayotda axborot – insonlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma’lumotni anglatadi. «Axborot» tushunchasiga oid tahlillardan kelib chiqib, axborot jamiyat uchun faqat muloqot predmeti emas, balki insonlar orasida muloqotda axborot almashinuviga ta’sir ko‘rsatadigan omil, deya xulosa qilish mumkin. «Axborot almashinuvi» tushunchasi, uning «muloqot» va «kommunikatsiya» kabi kategoriyalar bilan aloqadorligining tahlilga ko‘ra axborot bu – xabar, ma’lumot. Ammo jamiyatda axborot almashinuvining butun mexanizmini ijtimoiy-falsafiy nuqtainazaridan tushunish uchun «axborot»ning bunday talqini yetarli emas. Shu bois, axborotning barcha umumiy xususiyatari, axborot almashinuvi jarayonining hodisa sifatidagi mohiyatini tadqiq etish maqsadida har qanday jarayon uchun tipik bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Axborotlashgan jamiyat to‘g‘risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta’kidlanib, bu ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikning bir bo‘lagi sifatida talqin qilinadi. Axborot almashinuvi va uning boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, axborot almashinuvda ishtirok etuvchi tizimlardan har birining tartibi o‘zgarishi o‘zaro aloqadorlik asosida, ya’ni ularning birgalikda tashkil etilishi bilan o‘ziga xos noyob jarayon sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zaro ta’sir jarayonida tizimlarning har biri boshqa tizimlarning ichki mutanosibligi va intensivligiga bevosita bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Natijada, bir axborot almashinuvi

o‘rniga materiya harakatlanishining (birinchi navbatda ijtimoiy) oliy shakllariga xos 4 ta fundamental komponent:

1) Axborot almashish.
2) Tashkil etish.
3) Aks ettirish.
4) O‘zaro ta’sir bilan ish tutishga to‘g‘ri keladi.

Axborot almashinuvi jarayonining xususiyatlari haqida belorusiyalik mutaxassislar: **G.Bulaskiy** va **Yu.Prilyuk**larning bu haqda bergan tasniflari o‘zining qamrovi va teranligi bilan alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Axborot almashinuvi qanchalik muhim va o‘zicha mustaqil hodisa bo‘lib tuyulmasin, bari bir u hamisha o‘zaro ta’sir ko‘rsatish mexanizmi bo‘lib qolaveradi. 33 Buni ijtimoiy o‘zaro ta’sirga nisbatan oladigan bo‘lsak, har qanday axborot almashinuvi kishilar, jamoalar yoki ijtimoiy guruhlarni ma’naviy va intellektual takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi, xolos.

2. Axborot almashinuvi mexanizmi amal qilishining eng muhim natijasi sifatida shuni keltirish mumkinki, muloqotda ishtirok etuvchilarning tuzilmaviy hamda kontent (mazmuniy) parametrlari bir-biriga mos ravishda o‘zgaradi, ular o‘zaro muvofiqlashib turadi.

3. Axborot almashinuvining regulyativ (tartibga solish) funksiyasi mavjudligini uning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Buning natijasida muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida ma’rifiy funksiya ishga tushsa, ong, bilim va dunyoqarashni maqsadga muvofiq tarzda shakllantirib borish jarayoni tartibga solinadi.

4. Axborot almashinuvining o‘zaro munosabatni dolzarblashtirish xususiyati ham mavjud. Ma’lumki, munosabat o‘zaro ta’sirning sharti, alomatidir. Muloqot vaqtida ishtirokchilar almashinayotgan axborot, ularning o‘ziga xos ifodalanishi oqibatida individlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida munosabatlar o‘zgarishi, ya’ni rivojlanishi yoki susayishi mumkin.

5. Axborot almashinuvida indikativlik xususiyati ham bor. Bu degani o‘zaro ta’sirning, hech bo‘lmaganda, bir komponenti haqida ma’lumotlarga ega bo‘linsa, boshqalari haqida ham ishonch bilan fikr yuritish, ularni qaerda va qanday qilib izlash kerakligini hisoblab chiqishga imkon beradi. Jumladan, ijtimoiy tashkillashtirish va boshqarishning har qanday hodisasining shakli qanchalik noodatiy bo‘lishiga qaramay, axborot almashinuvi haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi.[2]

Media ta'lim ommaviy axborot vositalarining zararli ta'siri va tendentsiyalaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo‘lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan. Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasiga alohida kurs sifatida kiritilgan.

Finlandiyada media va axborot savodxonligi yo‘nalishi 1970-yillardan boshlab maktab va universitetlar o‘quv dasturlariga kiritilgan. Mediata'lim komponenti maktab programmasiga birinchi bor kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona-tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan. 2021-yilda e'lon qilingan Mediasavodxonlik indeksiga ko‘ra, Finlandiya “yolg‘on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat”sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o‘rinni egallagan.

Shvetsiyada mediata'lim 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan.Mediata’limni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma’lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o’z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmьlar va teledasturlar haqida o’z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo’lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata’lim Shvetsiya milliy o’quv dasturiga rasman kiritilgan.[3]

Ingliz siyosatshunosi **R.Kibey** esa media savodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. **M.Guetterz** esa multimedia savodxonligi o‘z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.[4]

2015 yili har bir amerikalik internetda kuniga 8,4 soat o‘tirib, mediakontent bilan tanishgan bo‘lsa, filippinliklar bunga 10,6 soat, rossiyaliklar 4,6 soat, yurtimizda 1,6 soatni ajratishmoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda internet foydalanuvchilarining soni 2,6 milliardni tashkil etgan bo‘lsa,

O‘zbekistonda mazkur raqam 19 milliondan oshdi va shundan 7 million nafari mobil foydalanuvchilardir.[5]

Xulosa. Media savodxonlik - bu insonlarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va yolg‘on manbalarni ajratish, media mahsulotlarni yaratish va baholash imkonini beradigan muhim ko‘nikmadir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan jamiyatda axborot almashinuvi asosiy ijtimoiy jarayonga aylandi. Dunyoning ilg‘or davlatlarida media savodxonlik ta’lim tizimiga kiritilgan bo‘lib, bu yosh avlodni dezinformatsiyadan himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli har bir inson zamonaviy axborot muhitida ongli va tanqidiy fikrlovchi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O‘zbekiston, 2024. – 31 Bet.
2. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O‘zbekiston, 2024. – 32-33 Bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik. Murojaat etilgan sana: [27.05.2025].
4. Toshtemirov R.A., MEDIA MUHITIDA BOLA HUQUQLARI //ISSN 2181- 4147 VOLUME 1, ISSUE 34 DECEMBER 2023. – 2023. – T. 1. – №. 34. – C. 131.
5. https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/ Murojaat qilingan sana [27.05.2025].

OROL DENGIZINI TIKLASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR TAHLILI

I.T.Yo‘ldasheva
Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Tel: +998507010802

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning eng yangi tarixida Orol muammosiga qarshi ko‘rilgan choralar —tadbirlar ekologik tiklash, xalqaro hamkorlik, “Yashil makon” tashabbusi va Orolbo‘yi hududining rivojlantirilishiga oid siyosiy islohotlar tahlil qilinadi. Ushbu sa’y-harakatlar mintaqaning ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Orol muammosi, ekologik inqiroz, Orolbo‘yi, ekologik siyosat, “Yashil makon”, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish, suv resurslari, ijtimoiy islohotlar.

Kirish. Orol dengizi ekologik fojiasi – bu so‘nggi asrlarda inson faoliyati oqibatida yuzaga kelgan eng yirik ekologik inqirozlardan biridir. XX asrning o‘rtalaridan boshlab, O‘rta Osiyoda qishloq xo‘jaligini sun’iy ravishda rivojlantirish, xususan, paxtachilik tarmog‘ini kengaytirish maqsadida Amudaryo va Sirdaryo suvlari tartibsiz ravishda burib yuborilgan. Bu jarayon dengiz sathining jadal sur’atlarda kamayishiga, oxir-oqibatda esa Orolning katta qismi qurib qolishiga sabab bo‘ldi. Natijada, mintaqada nafaqat ekologik muvozanat buzildi, balki ijtimoiy-iqtisodiy va sog‘liqni saqlash tizimida ham keskin muammolar yuzaga keldi. Atmosferaga ko‘tarilayotgan tuz va chang zarrachalari atrofdagi hududlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, transchegaraviy ekologik muammo tusini oldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida Orolbo‘yi inqirozini yumshatish va ekologik holatni barqarorlashtirish yo‘lida kompleks choralar ko‘rishni boshladi. Jumladan, “Yashil makon” umumxalq harakati, BMT Bosh Assambleyasida Orolbo‘yini “ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi” sifatida e’tirof ettirish, Global ekologik jamg‘armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qator ekologik va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik borasidagi siyosiy irodasini namoyon etadi. Mazkur maqolada ushbu harakatlarning zamirida yotgan ilmiy, institutsional va amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi hamda ularning natijadorligi ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.[1]

Orolbo‘yi ekologik inqirozi O‘zbekiston Respublikasining eng dolzarb va murakkab ekologik muammolaridan biri bo‘lib, uning ildizlari XX asrning ikkinchi yarmida rejalashtirilgan irrigatsiya siyosatiga borib taqaladi. Suv resurslarining noto‘g‘ri boshqarilishi, xususan, Amudaryo va Sirdaryo suvlari oqimining paxtachilik va sug‘oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun yo‘naltirilishi natijasida Orol

dengizining tabiiy gidrologik muvozanati izdan chiqdi. Natijada, Orol sathi keskin qisqardi, biologik xilma-xillik yo‘qoldi, atmosfera ifloslandi, iqlim o‘zgardi va mintaqa aholisi sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘ildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Orolbo‘yi muammosiga tizimli yondashish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan bir qator institutsional va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasida Orolbo‘yi hududining “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” sifatida e’tirof etilishi ushbu hududdagi ekologik inqirozni global miqyosda hal etish zaruratini ta’kidlab berdi.[2]

Orolbo‘yi mintaqasida amalga oshirilgan ekologik loyihalarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Rekultivatsiya va yashil zonalarni yaratish – Orolning qurigan tubida cho‘l zonalari barpo etilib, millionlab saksoaul va boshqa sho‘rtobga chidamli daraxtlar ekilmoqda. Bu harakatlar chang ko‘chishini kamaytirish, tuproqni mustahkamlash va lokal iqlimni yumshatishga xizmat qilmoqda.

2. Infratuzilmaviy rivojlanish – Orolbo‘yi aholisi uchun ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanmoqda, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar tizimi zamonaviylashtirilmoqda. Jahon banki, UNDP, GEF kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish loyihalari amalga oshirilmoqda.

3. Ekologik ta’lim va ilmiy tadqiqotlar – Mintaqada ekologik ta’limni rivojlantirish va ekologik ongni shakllantirish bo‘yicha mahalliy va xalqaro ilmiy muassasalar ishtirokida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Orolbo‘yi hududida ekologik monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu yerda tuproq, suv va havo sifati doimiy ravishda nazorat qilinmoqda.[3]

4. Xalqaro hamkorlik – O‘zbekiston hukumati BMT, Yevropa Ittifoqi, OSCE kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik diplomatiyani kengaytirmoqda. Bu hamkorliklar doirasida Orolbo‘yi ekologik fojiasining global miqyosdagi oqibatlari bo‘yicha xalqaro konferensiyalar, forumlar tashkil etilib, mintaqaviy va xalqaro tajriba almashinuvi kuchaymoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixida Orol muammosiga nisbatan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar kompleks va ko‘p darajali yondashuvga asoslangan bo‘lib, ekologik tiklanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyasining uzviy tarkibiy qismi sifatida shakllangan.[4]

Xulosa. Orol dengizi fojiasi O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ekologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan katta tahdid bo‘lib qolmoqda. Biroq mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi bu global muammoni hal etishga yo‘naltirilgan konseptual va tizimli yondashuvni shakllantirdi. Ekologik innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik, Orolbo‘yini ijtimoiy-iqtisodiy tiklash va aholi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida muammo bosqichma-bosqich yumshamoqda.

Orolbo‘yi mintaqasining “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi” sifatida e’tirof etilishi, “Yashil makon” tashabbusi orqali keng ko‘lamli rekultivatsiya ishlarining amalga oshirilishi, infratuzilma va ekologik ta’limning rivojlanishi davlat siyosatining barqaror rivojlanishga asoslanganligini ko‘rsatadi.[5] Xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik O‘zbekistonning ekologik diplomatiyasini mustahkamlayotgan omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekistonning eng yangi tarixida Orol muammosiga qarshi kurash faqat ekologik muammoni hal qilish emas, balki mintaqaviy barqarorlik va global ekologik xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida muhim strategik yo‘nalishga aylangan. Kelgusida bu boradagi sa’y-harakatlarning izchil davom ettirilishi Orolbo‘yi va unga tutash hududlarning ekologik barqarorligini tiklashga xizmat qiladi

. Orol dengizi fojiasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo ekologik muammolari ichida eng og‘irlaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada Orol dengizining qurishiga olib kelgan omillar, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar tahlil qilinib, bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tiklash chora-tadbirlari o‘rganildi. Xususan, “Orolbo‘yi” hududida ekologik holatni yaxshilash, yashil qoplamalarni barpo etish, sho‘rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish, xalqaro loyihalarni jalb etish kabi strategik yo‘nalishlar muhim o‘rin egalladi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, BMT, GEF, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mintaqadagi ekologik barqarorlikni tiklashga xizmat qilmoqda. Xususan, Qozog‘iston tomonidan Sirdaryo quyi oqimida “Shimoliy Orol” loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilgani Orolning tiklanishi mumkinligini amalda ko‘rsatdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi” deb e’lon qilish tashabbusi kelajak uchun muhim strategik qadamlardan biri hisoblanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, Orol dengizini to‘liq tiklash murakkab va uzoq muddatli jarayon bo‘lib, barqaror natijalarga erishish uchun regional hamkorlik, ilmiy yondashuv va aholi ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda tizimli, uzviy va innovatsion yondashuvlar asosida olib boriladigan harakatlargina muammoning echimini ta’minlay oladi.

Orol dengizi qayta tiklanishi uchun barchamiz mas’ulmiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Yashil makon” umumxalq harakati to‘g‘risidagi Prezident qarori. — PQ-5187-son, 30.11.2021.
2. “O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosati to‘g‘risida”gi qonun. — Qonunchilik ma’lumotlari bazasi, Lex.uz.
3. Matyakubov B., Iskandarov M. Orolbo‘yi ekologik inqirozi va uning oqibatlari. — Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2020.
4. Ergashev D.X. Ekologik xavfsizlik: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan, 2018.
5. Rakhimov R. Orol dengizi fojiasi: tarixiy-iqtisodiy va ekologik tahlil. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ЛЕКСИКА И СПОСОБЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ КУЛЬТУРНО ФОНОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

М.Р.Собиржонова
Наманган Давлат педагогика институти 2 боскич магистрант
madinasobirjonova.22.99@gmail.com
+998941122209

Аннотация: В статье рассматриваются особенности функционирования национальной лексики и способы репрезентации культурно-фоновой информации в билингвистическом тексте. Анализируются семантические аспекты национальной лексики и её роль в создании межкультурного диалога. Приводятся примеры из произведений писателей-билингвов А. Алимжанова и С. Санбаева, демонстрирующие способы проявления национально-специфической информации в русском тексте.

Введение. Современные лингвистические исследования всё чаще обращаются к вопросам взаимодействия языка и культуры, в частности к роли фоновых знаний в понимании и интерпретации текста. Национальная лексика, отражающая уникальный культурный опыт народа, занимает особое место в билингвистических произведениях, где языковое взаимодействие двух культур требует особой точности и глубины в передаче значений. Особенно ярко данная проблема проявляется в русскоязычных текстах авторов, для которых русский язык не является родным, но служит средством художественного выражения. Исследование направлено на выявление форм и механизмов репрезентации культурно-фоновой информации в лексике билингвистического текста, в частности — на примере узбекской лексики в русскоязычной художественной прозе.

Национальная лексика и способы представления культурно-фоновой информации

Говоря о связи фоновых знаний и слова как номинативной единицы, мы учитываем, что слово как знаковая единица имеет план выражения, который выступает в форме лексемы, и план содержания (семема), который включает весь объем знаний о слове.

В соответствии с идеями компонентной теории значения в составе семемы выделяются образующие множество семантические доли, которые обеспечивают классификационное представление предмета и входят в состав понятийного значения слова. В языковом сознании фоновые знания закреплены с помощью различных единиц: слов, устойчивых сочетаний, прецедентных высказываний, которые вовлекаются в межкультурный диалог и регулируют меру его толерантности.

Значительна роль пословиц как единиц, наделенных национально-культурным компонентом семантики и участвующих в создании культурно-фонового потенциала художественного текста. Для разработки классификации национально специфических лексических единиц, передающих

фоновую информацию, которая отражает мировосприятие узбекского народа, необходимо уточнить понятие «национальная лексика». Термин «национальная лексика» по сути своей этнолингвистичен.

Это термин исследователя билингвизма, рассуждающего с позиции одного из двух (в нашем случае – русского) языков. Но в билингвистическом тексте может быть использована и лексика иноязычная, анализу которой посвящены многочисленные труды [А.А. Брагина, В.В. Виноградов, Л.П. Крысин, А.Е. Супрун, О.Б. Шахрай и др.].

Иноязычную лексику можно рассматривать в двух аспектах:

во-первых, в аспекте ее соотношения с системой русского языка;

во-вторых, в аспекте ее функционирования в билингвистическом тексте.

Следует отметить, что в системно-парадигматическом смысле вся нерусская лексика иноязычна. Иноязычная лексика в системе русского языка достаточно неоднородна по своему составу.

Особый аспект проблемы – функционирование национальной лексики в билингвистическом тексте. Критерием определения национального является наличие в тексте национальной лексики. В двуязычном тексте национальной считаем лексику языка, за которым стоит воплощенный в тексте культурный слой языка, являющегося для писателя первым родным. В нашем случае – это лексика узбекская. Иноязычной в билингвистическом тексте является лексика неисконная – ни для русского, ни для узбекского языков.

Национальные единицы занимают разное положение на векторе безэквивалентности. По отношению к обозначаемому национальную лексику можно определить 1) как лексику, связанную с обозначением национальных реалий и концептов, не имеющих аналогий в жизни другого (в нашем случае – русского) народа; 2) как лексику, обладающую национальным компонентом значения, который характеризует специфически национальный ракурс реалии, концепта. Первая группа может быть отнесена к собственно безэквивалентной; вторая – к относительно безэквивалентной лексике.

В нашем понимании, статус собственно узбекских единиц в билингвистическом тексте имеют – слова узбекского языка, не зафиксированные в толковых словарях русского языка, не освоенные русским языком. Несобственно национальная лексика представлена лексикой общевосточной, неоднородной по своему составу. Прежде всего это лексика тюркского происхождения [К.Р.Бабаев, Н.А. Баскаков, Ж.А.Жолдасов, И.Г.Добродомов, Л.А.Кубанова, Д.С.Сагдуллаев и др.]. Всю общетюркскую лексику синхронно можно разделить на два пласта: 1) общеупотребительные тюркизмы, имеющиеся во всех тюркских языках; 2) тюркизмы, укоренившиеся в том или ином тюркском языке (в нашем случае – узбекском). Учитывая теорию фоновых значений и национальной специфики семантики, можно представить формы проявления фоновой информации в лексике билингвистического текста. Если лексику текста спроецировать на особо значимые участки картины мира («Человек и его мир», «Природа»), можно с уверенностью сказать, что в речевой структуре русскоязычного билингвистического текста имеются единицы, передающие национально значимую фоновую информацию. Представленный ниже иллюстративный материал носит демонстрационный характер. Извлекается данный материал из произведений писателейбилингвов А. Алимжанова и С. Санбаева.

1. Фоновая информация проявляется на уровне лексемы-узбекизма. В референтивном пространстве русской культурной среды отсутствует референт, представленный в узбекской культурной среде. Соответственно – в лексической системе русского языка отсутствует слово, значение которого эквивалентно значению узбекского слова. В данной ситуации писатель использует безэквивалентные лингвоспецифические единицы, которые имеются в каждой из семантических сфер: Сын Есима султан Каипгали объявил себя спасителем и защитником всех тех, кто обижен Жангиром. Он обещал увести народ на восток, за Жаик, и там, на бескрайних просторах Сарыарки, с согласия ханов Младшего и Среднего жузов, создать новое ханство, где не будет преград для кочевий (А.Алимжанов). Слово жуз имеет следующее зафиксированное толковыми словарями узбекского языка значение: «названия трех родо-племенных объединений узбеков: старший, средний, младший». Данная лексическая единица является безэквивалентной, так как русская культура не знала аналогичной социальной структуры.

2. Фоновая информация проявляется на уровне семемы национального слова, освоенного русским языком. Так, лексическая единица джигит имеет следующее, зафиксированное толковыми словарями русского языка, значение: «искусный и отважный наездник (первоначально у кавказских горцев)». Однако в билингвистическом тексте реализуется другое значение данного слова, передающее специфическую фоновую информацию, характерную для узбекской культуры. Семема «молодой человек» актуализируется в следующем контексте: Джигиты встали перед старцем. Кто-то протянул Курмашу домбру, но тот не взял ее. Глухой топот копыт вывел всех из оцепенения. Люди увидели всадников, скачущих к аулу (А.Алимжанов). В других случаях реализуется отсутствующая в русском языке семема «воин, защитник»: Джигиты, высланные в разведку, внимательно следили за каждым шагом отряда и немедленно докладывали Абену обо всем замеченном (С.Санбаев).

3. Фоновая информация проявляется на уровне семного состава лексического значения слова-узбекизма, а именно – национально специфической доли значения. Лексеме тай–казан соответствует русский аналог казан – «большой котел для приготовления пищи». В семантике данного слова в узбекских и русских языках совпадает категориальная часть значения. Колоритообразующей является дифференциальная доля значения, а именно указание на предназначение посуды: «котел, в котором варят мясо целого жеребенка»: Аксакалы аула суетились, каждый старался показать свою щедрость – откуда-то тащили огромный тай-казан, уже дымилась кровь жеребца, прирезанного, чтобы угостить сарбазов (А.Алимжанов).

4. Фоновая информация основана на национальных пресуппозициях, оживающих в образной канве текста. При этом средством передачи картинной национально маркированной образности может выступать собственно русское слово. Так, А.Алимжанов и С.Санбаев активно употребляют слово степь, которое приобретает целый ряд семантических приращений, способствующих созданию национального по содержанию образа. Специфика проявляется прежде всего в выборе оснований для контактных метафор, находящихся в ближайшем контекстном окружении слова. Слово степь употребляется в составе высказываний, включающих узбекизмы: А два беркута, хозяева степей Жидели, проснувшись рано, не увидели аула, - опустевшие дома стояли, как мазары. И слышался лишь далекий, тревожный, многоголосый человеческий плач, переходивший в печальный гул, подобный песне каменного леса (А.Алимжанов). Беркуты олицетворяют хозяев степей, наблюдающих за жизнью людей аула. Параллель беркуты – хозяева, используемая в данном контексте, позволяет создать образ опустошения и вымирания: опустевший аул кажется могилой, местом захоронения – мазаром. Акустический образ человеческого плача усиливает впечатление мертвой степной пустоты. Культурно-фоновая информация, на основе которой возникает ассоциативный образ узбекской земли, наслаивается на слово степь. Тропы, входящие в контекстное окружение данного слова, охватывают участки семантических сфер «Человек и его мир», «Природа».

5. Фоновая информация стоит за многокомпонентными внутритекстовыми лексическими подсистемами [Н.А. Купина]. Сигналы фоновой информации – члены этих подсистем (ядерные и периферийные). Отдельные сигналы комбинируются в ряды разного объема и значимости – фоновые парадигмы. Средством внутрипарадигматической связи служит обычно языковой элемент, наиболее общий по значению или категориально-лексическая сема, общая для всех членов ряда. Средством межпарадигматической связи выступает языковой сигнал или сквозная фоновая парадигма. В билингвистическом тексте лексические подсистемы выполняют категориальную функцию. Они служат для создания межкультурного диалога в цепочке автор – читатель. Парадигмы такого типа (их анализ проведен в главе третьей) выступают как средства межкультурного толерантного контакта. Национально значимая культурно-фоновая информация не всегда закреплена за отдельными языковыми сигналами или их объединениями. Имплицитно представленная культурно-фоновая информация требует анализа глубинного смысла текста.

Заключение. Таким образом, национальная лексика в билингвистическом тексте выполняет важную функцию носителя культурной памяти, формируя образ мира, характерный для определённого этноса. Её использование способствует созданию межкультурного диалога, углубляя восприятие текста читателем и усиливая художественное воздействие. средствами представления культурно-фоновой информации. Анализ конкретных примеров из текстов А.

Алимжанова и С. Санбаева подтверждает, что национальная лексика, функционируя в русскоязычном тексте, не только сохраняет этнокультурную специфику, но и способствует межъязыковому и межкультурному взаимопониманию.

Литература

1. Новикова, Л.И. Педагогические идеи И.А. Ильина (опыт современного прочтения) / Л.И. Новикова // Педагогика. 2001. – № 10. – С. 62-68.

2. Нравственное и эстетическое воспитание: Внеклассная работа со старшеклассниками / под ред. Д.И. Водзинского. – Минск: Народная асвета, 1982. – 151 с.

3. Нунуев, С.-Х. Чеченцы / С.-Х. Нунуев. – М.: Голос-Пресс, 2008. – С. 28. 3.Ньюкомб, Н. Развитие личности ребёнка / Н. Ньюкомб. – 8-е изд. – СПб.: Питер, 2002. – 640 с.

4. Нюдюрмагомедов, А.Н. Единство учебной и внеучебной деятельности учащихся / А.Н. Нюдюрмагомедов. – Махачкала: Изд-во ДГПУ, 2007. – 75 с.

5. О Концепции долгосрочного социально-экономического развития Российской Федерации на период до 2020 года.: распоряжение Правительства РФ от 17.11.2008. №1662-р: [ред. от 28.09.2018] [Электронный ресурс] // СПС КонсультантПлюс. – М., 2019. – Загл. с экрана.

6. Олпорт, Г. Становление личности: избранные труды / Г. Олпорт; [пер. с англ. Л.В. Трубицыной, Д.А. Леонтьева]; под общ. ред. Д.А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2002. – 159 с.

7.Орлов, Ю.М. Восхождение к индивидуальности / Ю.М. Орлов. – М., 2001. – 287 с.

8.Орлова, Э.А. Культурная (социальная) антропология: учеб. пособие для вузов / Э.А. Орлова. – М.: Акад. Проект, 2004. – 480 с.

9. Орлова, Э.А. Современная городская культура и человек / Э.А. Орлова. – М.: Наука, 1987. – 191 с.

XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI

B.A.Tillayev
Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar katta o‘qtuvchisi
H.Abdurahimov
Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Email: muazzammansurova14@gmail.com, Tel: 95 772 10 81

Annotatsiya: Yoshlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi roli, globalizatsiya va axborot texnologiyalarining ta’siri yoritilgan. Shuningdek, mediasavodxonlikning rivojlanishi va axborot manipulyatsiyasining oldini olish zarurati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z: Ijtimoiy tarmoqlar, Ommaviy axborot vositalari (OAV), Axborot texnologiyalari, Globallashuv, Mediasavodxonlik, Axborot manipulyatsiyasi, Jamoatchilik fikri, Global kommunikatsiya

Аннотация: Рассматривается роль молодежи, средств массовой информации и социальных сетей в обществе, а также влияние глобализации и информационных технологий. В нем также обсуждается необходимость развития медиаграмотности и предотвращения манипулирования информацией.

Ключевые слова: Социальные сети, Средства массовой информации (СМИ), Информационные технологии, Глобализация, Медиаграмотность, Информационное манипулирование, Общественное мнение, Глобальная коммуникация

Abstract: The role of youth, the media and social networks in society, the impact of globalization and information technologies are highlighted. The development of media literacy and the need to prevent information manipulation are also discussed.

Keywords: Social networks, Mass media (mass media), Information technologies, Globalization, Media literacy, Information manipulation, Public opinion, Global communication

Kirish. Bugungi kunda yoshlar uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar muhim ijtimoiy maydon hisoblanadi. Ular yoshlarning muloqot qilish, do‘stlik o‘rnatish va o‘zini ifoda etish

imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va globallashuv jamiyatda chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, mediasavodxonlikning ahamiyatini oshirmoqda.

Yoshlar uchun mediadan foydalanish yaqqol ijtimoiy ma’noga egaligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o‘zidan olisda bo‘lgan yaqinlari bilan muloqotda bo‘lib turadi, yangi do‘stlar orttiradi. Ular internetda turli ijtimoiy rollarda o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo‘lib ketishi ham mumkin. Ammo interfaol muloqot orqali barcha ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘la olish mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari axborotni bir lahzada tarqatish kanali va jamoatchilik fikriga umuminsoniy miqyosda ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylandi. Yangi axborot texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi.

Global dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘z faoliyati monopolizatsiya, ommaviy axborot vositalarining birlashishi, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini birlashtirish (axborotni taqdim etish va tarqatish shakllari), fan va texnika yutuqlari va Internet texnologiyalarini joriy etish, va konvergentsiya.

The Times (ing. The Times; tarjimasi “Times”) - Buyuk Britaniyadagi kundalik gazeta, dunyodagi eng mashhur gazetalardan biri. U 1785 yildan beri chop etilgan. The Times hozirda Times Newspapers Limited tomonidan nashr etiladi va to‘liq News korporatsiyasiga tegishli. Ko‘pgina gazetalar o‘z nomlarini Amerikaning The New York 81 Times, Hindistonning The Times of India va Janubiy Koreyaning The Korea Times kabi The Times gazetasidan olgan.

Ijtimoiy-siyosiy ommaviy axborot vositalarida boshqaruv signallari, masalan, hodisa yoki jarayonning ijobiy bahosini o‘z ichiga olgan materiallarda yumshoq, yashirin ko‘rinishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari insonning, tashkilotning, butun mamlakatning harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga qodir. Masalan, har qanday davlatning milliy ommaviy axborot vositalari odatda o‘z davlatining tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini 20-21-asrlar bo‘yida milliy Amerika sifatli matbuotida yoritilishi monitoringi natijalari ushbu tezisning misoli bo‘lishi mumkin.

The Times va The Sunday Times 1999-yil mart oyidan beri Internetda mavjud bo‘lib, dastlab the-times.co.uk va sunday-times.co.uk veb-saytlarida joylashtirilgan. Nyu-York Tayms — 1851-yil 18-sentabrda Nyu-York shahrida nashr etilgan Amerika kundalik gazetasi. 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab gazeta o‘z mavzusini sezilarli darajada kengaytirdi va axborotini qayta tuzdi, muntazam yangiliklar, tahririyatlar va sport yangiliklarini to‘ldiruvchi turli mavzulardagi maxsus haftalik bo‘limlarni qo‘shdi. Keyinchalik u: “Yangiliklar”, “Sharhlar”, “Biznes”, “Sport”, “Fan”, “San’at”, “Uslub”, “Uy”, “Nyu-York yangiliklari” va boshqa bo‘limlarga bo‘lingan. Bundan tashqari, The New York Times, ayniqsa, birinchi sahifada rangli fotosuratlardan foydalangan oxirgi gazetalardan biri edi. The New York Times onlayn nashri 1996-yilda paydo bo‘lgan bo‘lib, yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi va eng yaxshi veb-sayt hisoblanadi.[1]

“Global” fransuzcha “global” degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog‘liq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so‘zi lotincha “globus” ya’ni “shar” so‘zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo‘llagan. Taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga ko‘ra, “globallashuv bir-biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butunjahon sotsial munosabatlarga intensifikatsiyalashuvidir”1 . Uning ta’kidlashicha, bu inten- sifikatsiyalashuv milliy davlatlar jahon tizimi, jahon kapitalistik tuzum iqtisodiyoti, umumjahon harbiy tartib va xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi bilan izohlanadi. U globallashuv jarayonining boshlanishini XVIII asr bilan belgilaydi.[2]

P.Ratlend globallashuv deganda kishilar va xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning umuminsoniy mohiyat kasb etishi deb tushunadi. Ushbu talqinga asoslanib, u globallashuvga informatsion texnologiyalar vositasida voqelik va masofalarning qisqarishi, transmilliy uyushmalar (korporatsiyalar) rolining oshishi, davlatlarning iqtisodiyotga aralashishining kamayib borishi, erkin savdo-sotiqning global hodisaga aylanishi, jahon valyutasining va uni almashtirish tartibining yuzaga kelishi, xizmat ko‘rsatish sektorining iqtisodiy hayotda real voqelikka aylanishi, liberal (neoliberal) demokratik qadriyatlarning jahonga yoyilishi, siyosiy institutlar- ning milliy manfaatlarga va globallashuvga xizmat qilishi odatiy holga aylanishi, ba’zi davlatlarning o‘z madaniy merosini global taraqqiyot modeli sifatida taqdim etishga intilishi, yevropalashish an’anasining keng davom etishi va bunda AQSH yetakchi rol o‘ynashi kabilar xos, deb hisoblaydi.[3] Uning fikricha, globallashuv XX asrga taalluqli hodisadir. R.Robertson globalizatsiya

deganda sotsial munosabatlarning lokal holatdan global holatga o‘tishi, “bir-birini to‘ldiruvchi, ba’zi holatlarda bir-biri bilan to‘qnashuvchi “gomogenezatsiya va geterogenizatsiya” jarayonlriani tushunadi.[4]

Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o‘tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o‘rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o‘quv yurtlarning o‘quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan[5]

1990-yillarada Rossiyada media ta'limni ilmiy tadqiq etishga urinishlar bo‘lib O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikov va boshqalarning tadqiqotlari bunga misol bo‘la oladi. 2002 yili pedagogika oliy ta'lim yurtlari uchun mediata'lim ixtisosligi bo‘yicha yo‘nalish ochildi. 2005-yili esa YUNESKO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kino ta'lim va media pedagogika sayti ishga tushirildi. OAV orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, OAV orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin.[6]

Xulosa. Yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari muhim ijtimoiy maydon bo‘lib, ular muloqot, do‘stlik va o‘zini sinab ko‘rish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, interfaol muloqot barcha ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantira olmaydi. OAV global miqyosda jamoatchilik fikrini shakllantirishda va davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynaydi. Globallashuv esa axborot texnologiyalari va OAV yordamida davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Shu bois mediasavodxonlik yoshlarni axborotni tahlil qilishga va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. KRo‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati:Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik.T.: O‘zbekiston, 2024. – 80 bet.
2. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati:Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik.T.: O‘zbekiston, 2024. – 80-81 betlar.
3. 2Ratlend P.Globalizatsiya i postkommunizm//Mirovaya ekonomika i mejdunarodnыe otnosheniya,2002№4-S.15-16
4. Robertson R.Globalization:Time-space and homogeneity-heterogeneity//Global Modernities.-London:Sage,1995. P40.
5. https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-media-savodxonlikni-oshirishning-pedagogik-asoslari.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Media savodxonlik.

PAXTA YETISHTIRISHNING EKOLOGIK MUHITGA TA’SIRI

R.F.Tayshayeva
Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.
M.Fozilova
Ijtimoiy fanlar fakulteti Gumnitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:+998940545081 tayshayevaruxshona@gmail.com

Annotatsiya: paxta yetishtirishning ekologik muhitga ta'siri juda keng ko‘lamli bo‘lib, u tabiiy resurslarga, tuproq va suv sifatiga, hamda biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Quyida asosiy jihatlari keltirilgan: Paxta suvni ko‘p talab qiladigan ekinlardan biridir. Uni yetishtirish uchun katta miqdorda sug‘orish kerak bo‘ladi. Masalan, Orol dengizi fojiasi asosiy sabablaridan biri — paxtachilik uchun Amudaryo va Sirdaryo suvlarining haddan tashqari ishlatilganidir.

Kalit so‘zlar: paxtachilik, ekologik muhit,suv tanqisligi,sug‘orish tizimi,Orol fojiasi,sho‘rlanish,kimyoviy ifloslanish.

Абстрактный: Воздействие хлопководства на окружающую среду имеет далеко идущие последствия: оно отрицательно сказывается на природных ресурсах, качестве почвы и воды, а также на биоразнообразии. Ниже приведены основные аспекты:Хлопок — одна из культур, требующих

большого количества воды. Для роста требуется обильное орошение. Например, одной из главных причин трагедии Аральского моря является чрезмерное использование вод Амударьи и Сырдарьи для выращивания хлопка.

Ключевые слова: Хлопководство, охрана окружающей среды, дефицит воды, ирригационная система, трагедия Аральского моря, засоление, химическое загрязнение.

Paxta – O‘zbekiston va ko‘plab boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti hisoblanadi. Biroq, uning keng ko‘lamda yetishtirilishi ekologik muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada paxta yetishtirishning suv resurslariga, tuproq sifati, havo ifloslanishi va biologik xilma-xillikka bo‘lgan salbiy va ijobiy ta’sirlari ko‘rib chiqiladi.. Suv resurslariga ta’siri: Paxta juda ko‘p suv talab qiladigan ekin hisoblanadi. Sug‘orishga asoslangan dehqonchilik usullari: Daryolarning suvi haddan tashqari sarflanishiga olib keladi (masalan, Amudaryo va Sirdaryo).Orol dengizi fojiasi – paxta sanoatining haddan tashqari rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik inqirozning yaqqol namunasi.Yer osti suvlarining sathi pasayadi, bu esa boshqa ekinlar va ichimlik suvi ta’minotiga ham ta’sir qiladi. Tuproq sifati va degradatsiyasi p1axta yetishtirishda ko‘p miqdorda kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlardan foydalaniladi, bu tuproq tarkibining yomonlashuviga olib keladi.Monokultura (faqat bir xil ekin ekish) natijasida tuproqdagi foydali mikroorganizmlar kamayadi.Sho‘rlanish va eroziya kabi muammolar yuzaga keladi, bu esa unumdorlikni pasaytiradi. Havo va atmosfera ifloslanishi paxta dalalarida ishlatiladigan texnikalardan chiqadigan chiqindilar havoni ifloslantiradi.Kimyoviy vositalar (pestitsidlar va defoliantlar) purkalganda, ularning zarralari havo orqali tarqaladi, inson salomatligiga va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Biologik xilma-xillikka ta’siri: Dala maydonlarining kengaytirilishi natijasida o‘rmonlar va tabiiy yashash joylari yo‘q qilinadi.Pestitsidlar nafaqat zararkunandalarni, balki foydali hasharotlar va qushlarni ham yo‘q qiladi.Ekotizim muvozanati buziladi.

Ijobiy jihatlari va barqarorlikka yo‘naltirilgan yondashuvlar.

Zamonaviy agrotexnologiyalar – tomchilatib sug‘orish, organik paxta yetishtirish – ekologik zararni kamaytirishga yordam beradi.Qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish va integratsiyalashgan zararkunandalarni boshqarish tizimlari muhim ahamiyatga ega.Paxtachilikda ekologik sertifikatlar (masalan, BCI – Better Cotton Initiative) orqali barqarorlikka erishish mumkin.Paxta yetishtirish O‘zbekiston uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lsa-da, ekologik muhitga salbiy ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Barqaror va ekologik toza usullarni qo‘llash orqali bu muammolarni kamaytirish, tabiiy resurslarni asrash va kelajak avlodlarga sog‘lom atrof-muhit qoldirish mumkin.Siz hozir kiygan futbolka, blazer yoki shimning ichki qismidagi kiyim yorlig‘iga qarang. Hech bo‘lmaganda paxtadan tikilgan narsangiz bor. Eng ko‘p ishlatiladigan tabiiy global miqyosda paxta ko‘pincha poliester kabi sintetik tolalarga yaxshi va afzal alternativ sifatida qabul qilinadi - bu tabiiydir. Darhaqiqat, paxta o‘ziga xos ekologik muammolar bilan birga keladi. muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP), paxta yetishtirish jahon ekin maydonlarining 2.5% ni egallaydi, lekin yiliga 2000008 tonna pestitsidlar va 16 million tonna o‘g‘itlar iste'mol qiladi, bu esa global foydalanishning 4% va XNUMX% ni tashkil qiladi.

To‘qimachilik ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan ko‘plab boshqa tolalarga nisbatan paxta suvni ko‘p talab qiladigan ekin ekanligi ham ma’lum. Masalan, polyester yoki neylon kabi sintetik tolalar o‘sishi uchun suv talab qilmaydi, lekin suv ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladi.

Kenevir yoki zig‘ir kabi tabiiy tolalar o‘ziga xos o‘sish sharoitlariga qarab, paxtaga qaraganda kamroq suv talab qilishi mumkin. Suv resurslari cheklangan yoki qishloq xo‘jaligi boshqa suvdan foydalanish bilan raqobatlashadigan hududlarda paxta yetishtirishning suv intensivligi ayniqsa muhimdir. G‘o‘za yetishtirish uchun aniq suv talabi iqlim, tuproq turi, sug‘orish usuli va yetishtiriladigan g‘o‘zaning o‘ziga xos navi kabi omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, WWF hisob-kitoblarga ko‘ra, bitta paxta futbolkasini ishlab chiqarish uchun taxminan 2,700 litr (713 gallon) suv kerak bo‘ladi. Bu ekvivalent odamni ikki yarim yil davomida ushlab turishi mumkin. Haddan tashqari suv iste'moli ekologik stressga sezilarli hissa qo‘shadi. Paxtaning suv resurslariga ta'sirining yorqin misoli: Orol dengizi - Qozog‘iston va O‘zbekiston

o‘rtasida joylashgan sho‘r suvli ko‘ldir. Bir paytlar dunyodagi to‘rtinchi yirik ko‘l bo‘lgan Orol dengizi 1960-yillarda Sovet Ittifoqi tashabbusi bilan boshlangan paxta sug‘orish loyihasi tufayli deyarli qurib qolgan. 2000-yillarga kelib u o‘z hajmining 90% ga yaqinini yo‘qotdi, bu esa ko‘plab ekologik va ijtimoiy muammolarga, jumladan, baliqchilikning yo‘qolishi, sho‘rlanishning ko‘payishi va ko‘l tubidagi chang bo‘ronlari tufayli mahalliy aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarga olib keldi. Orol dengizining yo‘q bo‘lib ketishi qishloq xo‘jaligining barqaror amaliyotlari ekologik halokatga olib kelishining eng dahshatli misollaridan biridir. Bu bizni paxta va intensiv qishloq xo‘jaligining boshqa shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan kengroq masalaga olib keladi. Cho‘llanish - turli omillar, jumladan, qurg‘oqchilik, o‘rmonlarning kesilishi va noto‘g‘ri qishloq xo‘jaligi tufayli unumdor yerlarning cho‘lga aylanishi jarayoni. Cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish muhimligini e’tirof etgan holda, har yili 17-iyun kuni „Butunjahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kuni‘‘ sifatida nishonlanadi. Ushbu kun cho‘llanish va qurg‘oqchilik mavjudligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish, cho‘llanishning oldini olish va qurg‘oqchilikdan tiklanish usullarini ta'kidlash, yer va suv resurslarini barqaror boshqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Biz bilamizki, sog‘lom yer hayotimiz uchun zarur bo‘lib, oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak va turmush tarzimizning 95 foizini ta’minlaydi. Shunga qaramay, biz barqaror amaliyotlar tufayli har yili 100 million gektar sog‘lom yerni yo‘qotamiz.

Moda sektoridagi barqarorlikni hal qilish mas'uliyatli to‘qimachilik ishlab chiqarishdan tashqari keng qamrovli strategiyani talab qiladi, ammo bu jumboqning katta qismidir. Suvdan foydalanishni qisqartirish va kimyoviy iste'molni kamaytirish kabi chora-tadbirlar cheklangan resurslarni saqlash, ekotizimlarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligining beqaror amaliyotlarining ijtimoiy oqibatlarini yumshatish uchun juda muhimdir.Paxta muhim ekin bo‘lib, ham iqtisodiy, ham ekologik ta'sirga ega. Uni yetishtirishda e’tibor qaratilishi muhim bo‘lgan bir nechta omillar mavjud. Bular quyidagilar: Tuproq sifati. Sifatli tuproq paxta o‘sishi uchun juda muhimdir.

Muntazam tuproq tahlili va organik moddalarni qo‘llash tuproq unumdorligini va tuzilishini yaxshilaydi. Dukkakli ekinlar bilan almashlab ekish tuproqni ozuqa moddalarga boyitadi. Suvdan samarali foydalanish muhimdir. Tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni tejash va paxta uchun kerakli miqdorda namlikni ta'minlashga yordam beradi. Tuproq namligini doimiy kuzatib borish ortiqcha sug‘orish va suv isrofgarchiligining oldini oladi. Zararkunanda va kasalliklarni nazorat qilish uchun integratsiyalangan zararkunanda boshqaruvi (IPM) strategiyasini qo‘llash tavsiya etiladi. Bu chidamli paxta navlaridan foydalanish, biologik nazorat qilish va pestitsidlarni o‘z vaqtida qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Muntazam dala kuzatuvi zararkunanda infestatsiyalarini erta aniqlashga yordam beradi.

Ozuqa moddalarini boshqarish. Paxta o‘simliklari turli o‘sish bosqichlarida maxsus ozuqalarga muhtoj bo‘ladi. O‘g‘itlarni to‘g‘ri va vaqtda qo‘llash o‘simlik o‘sishi va hosildorligini oshiradi. Azot, fosfor va kaliy bilan muvozanatli o‘g‘itlash muhimdir. Barqaror amaliyotlar. Barqaror dehqonchilik amaliyotlarini qabul qilish paxta ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga xissa qo‘shadi. Better Cotton Initiative (BCI) samarali suvdan foydalanish, pestitsidlarni kamaytirish va tuproq salomatligini yaxshilash orqali barqaror paxtachilikda barqaror amaliyotlarni targ‘ib qiladi. Hosilni yig‘ish texnikalari tolaning shikastlanishini minimallashtirishi zarur. Zamonaviy hosil yig‘ish uskunalaridan foydalanish va o‘z vaqtida hosilni yig‘ib olish paxta hosilining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Paxta yetishtirish va uni qayta ishlash jarayonlari ekologik muhitga bir qator salbiy ta'sirlar ko‘rsatadi.

Quyida bu ta’sirlar asosiy jihatlari bilan bayon etilgan: Suv resurslarining haddan tashqari ishlatilishi. Paxta juda ko‘p suv talab qiladi. Ayniqsa, qurg‘oqchil mintaqalarda (masalan, O‘zbekiston) paxta sug‘orilishi uchun ko‘p miqdorda daryo suvlaridan foydalaniladi. Bu esa, orol dengizi fojeasiga sabab bo‘ldi, daryolarning qurib qolishi va suv ekotizimining izdan chiqishiga olib keldi. Paxtachilikda keng miqyosda kimyoviy o‘g‘itlar va zaharli pestitsidlar qo‘llaniladi. Bu moddalar tuproqning tabiiy unumdorligini pasaytiradi, yerni ifloslantiradi, ichimlik suvlari va yerosti suvlari orqali odam va hayvonlar salomatligiga xavf tug‘diradi. Paxta yetishtirish natijasida monokultura (bir xil ekin) oqibatida tuproqdagi foydali elementlar yo‘qoladi, tuproq eroziyasi kuchayadi, sho‘rlanish va qurg‘oqchil zonalarning kengayishi yuz beradi. Paxta yig‘im-terimi va qayta ishlash (ayniqsa, ip gazlama ishlab chiqarish)

jarayonida, chang va kimyoviy moddalarning havoga chiqish,i Ishlab chiqarish chiqindilarining noto‘g‘ri utilizatsiyasi havo sifati yomonlashtiradi. Yirik paxta plantatsiyalari tabiiy yashash muhitlarini yo‘q qiladi, bu esa, hayvonot va o‘simlik dunyosining qisqarishiga, ekotizimning izdan chiqishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov, B.T. (2020). Qishloq xo‘jaligida ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. UNEP (United Nations Environment Programme). (2011). The Environmental Impact of Cotton Production. Retrieved from www.unep.org
3. FAO (Food and Agriculture Organization). (2021). Water use in cotton production and sustainable agriculture. Rome: FAO Publishing.
4. World Bank. (2019). Uzbekistan: Modernizing Cotton Production for Environmental Sustainability. Retrieved from www.worldbank.org
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi. (2023). Paxtachilik va ekologik xavfsizlik bo‘yicha hisobotlar. Toshkent: Rasmiy veb-sayt www.eco.gov.uz

O‘ZBEK ADABIYOTI TASAVVUFIDA OBRAZLAR TALQINI

M.M.Xursanova
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.Ikramova**
Email: marjona_0ll@icloud.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti tasavvufiy yo‘nalishida yaratilgan asarlardagi asosiy obrazlar – ishq, oshiq, ma’shuq, pir-murid, yo‘l, ruhiy poklanish kabi timsollar tahlil qilinadi. Tasavvufda obrazlar ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular orqali ilohiy haqiqatga intilish, nafsni yengish, ruhiy kamolotga erishish g‘oyalari ifodalanadi. Maqolada Navoiy, Bobur, Ahmad Yassaviy kabi mutasavvif ijodkorlarning asarlaridagi badiiy obrazlar orqali inson va Xudo o‘rtasidagi ichki aloqa yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, obraz, ishq, oshiq, ma’shuq, Navoiy, ramziy ma’no, ruhiy kamolot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются образы, характерные для суфийского направления в узбекской литературе: любовь, влюблённый, возлюбленный, наставник и ученик, путь, духовное очищение. Эти образы, как правило, имеют символическое значение и отражают стремление к истине, борьбу с эго и достижение духовного совершенства. Через произведения таких авторов, как Навои, Бабур и Ахмад Яссави, раскрывается внутренняя связь между человеком и Богом.

Ключевые слова: суфизм, образ, любовь, Навои, возлюбленный, путь, духовность, символ.

Annotation: This article analyzes the symbolic imagery typical of the Sufi tradition in Uzbek literature, such as love, the lover and the beloved, the spiritual guide and disciple, the path, and inner purification. In Sufism, these images convey the journey toward divine truth, overcoming the ego, and attaining spiritual perfection. Through the works of prominent mystical poets like Navoi, Babur, and Ahmad Yassawi, the deep connection between the human soul and God is explored.

Keywords: Sufism, imagery, love, Navoi, beloved, spiritual path, symbolism, mysticism.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tasavvuf muhim o‘rin egallagan yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, fors-tojik va turkiy til muhitida shakllangan bu adabiy-estetik oqim asrlar davomida ma’naviy-axloqiy yetuklik, ruhiy komillik, ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lidagi izlanishlarning badiiy ifodasiga aylangan. Tasavvuf adabiyotining asosiy maqsadi insonni nafsdan poklash, qalbini yoritish, uni ilohiy muhabbat sari yetaklashdan iborat bo‘lib, bu maqsad obrazlar vositasida badiiy ifoda topgan. Alisher Navoiy, Ahmad

Yassaviy, Bobur kabi mutasavvif shoirlar o‘z asarlarida obrazlarni ramziy mazmunda talqin etib, o‘quvchini tashqi shakldan ichki ma’no sari yetaklaydi. Bu obrazlar — oshiq, ma’shuq, pir, murid, yo‘l, ishq, sharob kabi timsollar — tasavvufiy dunyoqarashning muhim komponentlaridan biridir.

Tasavvuf – bu insonning ichki olamida Allohga yaqinlashish, ruhiy poklanish va ma’naviy komillikka intilish jarayonidir. Tasavvufiy tafakkur Sharq adabiyotida, ayniqsa o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Xususan, Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bobur kabi mutafakkir shoirlar o‘z asarlarida tasavvufiy g‘oyalarni chuqur ifoda etib, uni obrazlar orqali badiiylashtirishgan. Tasavvufiy adabiyotda obrazlar – oddiy tushunchalar emas, balki chuqur ramziy ma’noga ega timsollardir. “Oshiq”, “ma’shuq”, “yo‘l”, “pir”, “murid”, “sharob”, “rind” kabi tushunchalar orqali shoirlar ilohiy haqiqat, ruhiy yuksalish va nafsni yengish g‘oyalarini ifodalaydi. Ushbu maqolada tasavvuf adabiyotida eng ko‘p uchraydigan badiiy obrazlar va ularning mazmuni tahlil qilinadi, shuningdek, bu obrazlarning o‘zbek adabiy tafakkuridagi o‘rni yoritiladi.

“Yo‘l”, “sayr” va “safar” obrazlari. Tasavvufiy adabiyotda “yo‘l” obrazining o‘rni alohida. Bu yo‘l – oddiy geografik masofa emas, balki ma’naviy kamolot sari bo‘lgan ruhiy sayrdir. Har bir murid bu yo‘lga chiqqanida o‘z ichki olami bilan yuzma-yuz keladi, nafsini jilovlash, sabrli bo‘lish, doimiy zikr va ibodat orqali komillikka erishishga harakat qiladi. Alisher Navoiy “Lison ut-Tayr” asarida qushlarning podshoh Simurg‘ni izlab yo‘lga chiqishini tasvirlaydi. Bu “sayr” – aslida inson ruhining ilohiy haqiqat sari harakati, Allohni anglash yo‘lidagi izlanishidir. Har bir qush biror insoniy kamchilikni ifodalaydi va bu kamchiliklar yengilmasdan Simurg‘ (Alloh)ga yetib borishning imkoni yo‘qligini ifoda etadi. Shuningdek, “safar” obraziga ham chuqur ma’no yuklangan. U tashqi harakat emas, balki qalbning Alloh sari yurishi. Bu safarda inson har bir qadami bilan o‘zining ichki dunyosini yoritadi, shubha, qo‘rquv va g‘aflatdan xalos bo‘ladi. Bu ruhiy sayr jarayonida “pir” – ya’ni ustoz obrazining o‘rni beqiyos bo‘ladi.

“Pir” va “murid” obrazlari. Tasavvufda “pir” – bu haqiqat yo‘liga bosh olib kiruvchi, uni o‘z boshidan o‘tkazgan, ruhiy yuksalishning barcha bosqichlarini bilgan ustoz obrazidir. “Murid” esa – pirga ergashuvchi, unga itoat qiluvchi, sabr, tavba, fidoyilik bilan yo‘lga chiqqan shogirddir. Bu ikki obraz o‘rtasidagi aloqa tasavvufda ustoz-shogirdlik rishtasini emas, balki qalblar bog‘liqligini, ruhiy yo‘l-yo‘rig‘ni anglatadi. Ahmad Yassaviy o‘z “Hikmat”larida pirning o‘rni haqida ko‘p bora to‘xtaladi, muridning unga bo‘lgan sadoqati, itoati orqali ilohiy nurga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, pir faqat ilm o‘rgatuvchi emas, balki ma’naviy hayotda rahnamo bo‘lgan timsoldir. U muridni soxta e’tiqoddan, nafs domidan qutqaruvchi, uni o‘zining ichki dunyosiga nazar solishga undovchi obrazdir. Shu bois tasavvufiy she’riyatda pir obrazining har bir harakati – ishora, so‘z, sukunat – murid uchun muqaddas ahamiyat kasb etadi.

“Sharob” va “mastlik” obrazlari. Tasavvufda tez-tez uchraydigan obrazlardan yana biri bu – “sharob” obrazidir. Garchi u tashqi ko‘rinishda ichimlik bo‘lib tuyulsa-da, aslida bu obraz orqali shoirlar ilohiy ishq, ruhiy entikish, Ollohga oshuftalik holatini ifoda etadilar. “Mastlik” esa bu holatning eng yuqori darajasi bo‘lib, unda banda o‘z “men”idan kechadi, dunyoviy ong chegarasidan chiqadi, o‘zini faqat Allohga bag‘ishlaydi. Bu obrazlarni Navoiy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar o‘z asarlarida tez-tez qo‘llaganlar. Navoiy ayrim g‘azallarida “sharob”ni yor sochlaridan, nigohidan, ovozidan topadi. Bu – ilohiylikka intilish, jamolni anglash ramzidir. Tasavvufda inson mast holatda Haqni his etadi, biroq bu mastlik ichkilik bilan bog‘liq emas, balki qalbning tozaligidan tug‘ilgan ilohiy hisdir. Shunday qilib, bu obrazlar o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy go‘zallik uchun, balki ruhiy kamolotga yetaklovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Yor” timsoli – ilohiy jamol timsoli sifatida. Tasavvufiy adabiyotda “yor” obrazi o‘ta murakkab va chuqur ma’noli timsollardan biridir. Tashqi shaklda bu so‘z sevgilini, ya’ni insonlar orasidagi sevgan kishini bildiradi. Biroq tasavvufda “yor” – bu ilohiy Zotning ramzi, ya’ni Allohning o‘zidir. Shoir uchun yor faqat sevgili emas, balki mavjudotning mohiyati, haqiqat manbai, ruhiy oshuftalik sababidir. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar asarlarida “yor” timsoli ilohiy jamol – Allohning go‘zalligi, qudrati va mukammalligining ramzi sifatida tasvirlanadi. Shoir bu yor bilan visolga erishishni – Ollohga yaqinlashishni, undan hijronni esa – Allohdan uzoqlashuv, qalbdagi g‘am, tashvish va bo‘shliq deb talqin qiladi. Masalan, Navoiy shunday deydi:

Yor ko‘rgali jahon aro ko‘p boshli men, ko‘ngul, Har kecha jonon debon, jonimdan o‘tdi yuz jonim. Bu misralarda yor – Olloh sifatida qabul qilinib, u bilan bir lahzalik visol uchun shoir o‘z jonini fido qilishga tayyor ekanini bildiradi. Tasavvufda “yor” faqatgina maqsad emas, balki yo‘lning o‘zi hamdir. U orqali shoir harakat qiladi, sabr qiladi, hijronga bardosh beradi, chunki ushbu ruhiy sayr oxirida visol – ya’ni Haq bilan birlashish imkoniyati mavjud. Yor – bu nur, u qalbni yoritadi, insonni g‘aflat zulmatidan chiqaradi. Shuningdek, “yor”ning ko‘rki, nigohi, so‘zi – bularning barchasi Haqning sifati sifatida talqin qilinadi. Yorning jilvasi – bu Allohning qudrati; sochi – dunyoning sirli go‘zalligi; nigohi – qalblarni uyg‘otuvchi haqiqat nuri. Bu obrazlar orqali shoirlar o‘quvchini chin ma’naviy yuksalish sari undaydi.

Tasavvufiy adabiyot – bu nafaqat badiiy go‘zallik, balki chuqur ma’naviylikni targ‘ib qiluvchi ruhiy maktabdir. Undagi obrazlar — “oshiq”, “ma’shuq”, “pir”, “murid”, “yor”, “yo‘l”, “sharob”, “mastlik” kabi timsollar — oddiy badiiy vositalar emas, balki yuksak falsafiy va axloqiy tushunchalarning ramziy ifodasidir. Ushbu obrazlar orqali shoirlar insonning ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lida qanday ruhiy bosqichlardan o‘tishi, qanday iztirob va zavqlarga duch kelishini chuqur va ta’sirchan tarzda ifoda etganlar. O‘zbek adabiyoti namoyandalari — Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bobur, Mashrab kabi mutasavvif shoirlar obrazlar orqali tasavvufni nafaqat diniy-falsafiy yo‘nalishda, balki badiiy-estetik shaklda ham yuksak darajada ifoda etganlar. Bu obrazlar o‘quvchini o‘z qalbini tozalash, nafsni yengish, sabr, muhabbat va Haqni anglash sari undaydi.

Zamonaviy adabiyotda ham bu obrazlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular yangi shakllarda, lekin o‘sha ramziy ma’nolarni saqlagan holda yashab kelmoqda. Demak, tasavvufiy obrazlar o‘zbek adabiy tafakkurining doimiy qadriyati bo‘lib, inson ma’naviy olamini boyitishda bugun ham xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (G‘azallar devoni). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.
3. G‘ulomov A. Tasavvuf va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Qayumov A. Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
5. Salimov S. Tasavvuf – haqiqat iztirobi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
6. Turaeva D. Tasavvufiy obrazlar poetikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
7. Tohirov A. O‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy motivlar. – Buxoro: BDU, 2020.
8. Yusuf Hamadoniy. Maktubat. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.
9. Abdulhakim Nasafi. Zubdat ul-haqoyiq. – Toshkent: Fan, 2004.
10. Zunnuniy H. Tasavvuf – qalb ilmi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHKIL TOPISHING TARIXIY AHAMIYATI

Z.N.Tojimirzayeva
Namangan davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
E-mail: xojaxonovnusratillo@gmail.com
Tel: (93) 266 11 14

Annnotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni, 1991-yil 31-avgustdagi tarixiy qaror va uning ahamiyati yoritiladi. Mustaqil davlat sifatida shakllanish bosqichlari hamda xalq irodasining bu yo‘ldagi roli haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: 1991-yil 31-avgust, Oliy Kengash qarori, Mustaqil O‘zbekiston, Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Qonun, Yangi tarixiy bosqich, Siyosiy huquqiy asoslar, O‘zbekiston Respublikasi, Istiqlol, Mustaqillik e’lon qilinishi, Tarixiy qaror, Erkin va mustaqil davlat, Mustaqillik bayrami.

XX asrning 90-yillari boshidagi O‘zbekiston uchun “Kommunistik partiyadan halos bo‘lish", degan so‘z milliy mustaqillikka erishishning asosiy sharti bo‘lib qolgan edi. Mamlakatda ijtimoiy – siyosiy

jonlanish partiya va xalq deputatlari syezdlariga saylangan respublika vakillarining ham faolligini oshirdi, ular o‘z respublikalarining manfatlarini qat’iyat bilan himoya qildilar Bu jihatdan SSSR xalq deputatlarining VI syezdi (1990 – yil dekabr) harakterlidir. I. A. Karimov syezdda maxsus ko‘rib chiqish uchun hokimiyatni, xuquq – tartibotni mustahkamlashni taklif qildi. [1, – B. 674]

Shuning uchun ham 1991 - yilning 14 -sentyabrida O‘zbekiston kompartiyasining XXIII syezdi chaqirilib, unda Respublika partiya tashkilotini tugatish masalasi hal etildi. Lekin bu jarayonlar ham silliq kechgani yo‘q. Bu paytda hali ko‘plab rahbarlar, partiya a'zolarining aksariyat qismida eski jamiyatning kuchli ta'siri sezilib turmoqda edi. Ular milliy mustaqillik g‘oyasini anglashga yetilmagan, yangi demokratik jamiyat qurishni esa o‘z tasavvurlarida ―kapitalizmga - eng yomon tuzumga qaytish, deb tushunar va talqin etar edilar. O‘zbekiston hali ittifoq tarkibida bo‘la turib, boshqa Respublikalar rahbarlari o‘z mamlakatlarini konfederativ ittifoqqa kirishiga ko‘z tutib turgan bir paytda Birinchi Prezident I.A.Karimov 1991 yil 31 avgustda Oliy kengash sessiyasi minbaridan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. Shu kuni Oliy kengash "O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi bayonoti"ni e'lon qildi.

O‘zbekistonda milliy mustaqillik uchun harakat bir tomondan kommunistik totalitar tuzum asoratlaridan halos bo‘lish, poklanish jarayonlari bilan uyg‘un ravishda kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jahondagi ilg‘or mamlakatlar tajribasi asosidagi mahalliy xalq mentalitetidan kelib chiqib jamiyatni demokratlashtirish bilan hamohang bordi. Milliy mustaqillik arafasidayoq ko‘ppartiyaviylik tizimini joriy etish, davlat va hukumatdan ayrim jamoat birlashmalari tuzulmalarini erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga intilish Respublika rahbariyatining XX asrning 90-yillari boshidagi strategik siyosiy islohotlarining bosh maqsadlaridan biri edi. [2.]

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq prezident I.A.Karimov quyidagi maqsadni ilgari surdi: “Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etish - bosh vazifadir... Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak» Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati qurish stregiyasiyani shakllanishida Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual tamoyil muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tamoyilning asosiy mazmun-mohiyati, yo‘nalishlari, umuminsoniy va milliy jihatlari uning ma'ruzalari va asarlarida mujassamlashdi.

Agarki, yaqin tariximizga o‘tgan asrning 90 – yillariga nazar soladigan bo‘lsak, Islom Karimovnig o‘sha og‘ir yillarda keskin muammolar girdobida turib, O‘zbekistonning kelajagini aniq tasavvur qilgan holda ilgari surgan g‘oya va dasturlari uning vatanimizning Vatanimizning yorug‘ istiqboliga qanday buyuk ishonch bilan qaraganligi yaqqol dalolat beradi. [3, – B. 11]

1990- yil 18- iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Deklaratsiyasi matni sessiyada qizg‘in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasida xalqimizning xohish-irodasiga to‘la mos keladigan oliy maqsad 12 moddadan iborat bo‘lib, ularda quyidagicha muhim tartib-qoidalar belgilab qo‘yildi: „O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi:

— o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an’analari;

— har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsad haqi;

— har bir kishining farovon hayot kechirishini ta’minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;

— O‘zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda;

— xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qiladi“.

O‘zbekiston SSR ning davlat mustaqilligi O‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir . O‘zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib o‘zgartirilishi mumkin emas. Mustaqillik Deklaratsiyasi SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O‘zbekiston hududida kuchga ega bo‘ladi. O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi. O‘zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat qiladi va hokazo. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi

mamlakatimizning tom ma’nodagi haqiqiy mustaqillikka erishish yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shundan e’tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi. O‘zbekistonning mustaqillik sari intilayotgani uning yangi Ittifoq shartnomasini ishlab chiqish jarayoniga respublika manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, qat’iylik bilan yondashayotganida yaqqol namoyon bo‘ldi. [3, – B. 6]

Mustaqillik deklaratsiyasining 1-moddasida «O‘zbekiston SSR ning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir», – deb, yozib qo‘yilgan. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. Bunga misol tariqasida 1991-yil 22-iyulida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo‘ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O‘zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o‘tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi. O‘sha vaqtda Markaz rahbarlari Respublikalar Ittifoqini qanchalik saqlab qolishga urinmasinlar, buning iloji yo‘q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo‘lmas, o‘z navbatida ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka bo‘lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Biroq Markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o‘tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g‘ayri konstitutsion yo‘llar bilan davlat to‘ntarishi o‘tkazish bilan bo‘lsa-da, oldingi buyruqbozlik tizimini mustahkamlashga harakat qildilar. Buning aksi sifatida O‘zbekiston hukumati o‘zbek xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda o‘ziningfaol siyosatini davom ettirardi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi arafasida hukm surgan chuqur inqiroz holati, o‘sha davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayoti istiqlolning dastlabki oylari tarixini o‘rganishda ham O‘zbekistonning yangi tarixini yaratishda 1989 – 1991 yillar davomida respublikada kechgan tarixiy jarayonlarining bevosita guvohi bo‘lgan, ularning markazida turgan inson O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. [4, – B. 348]

1990 – yil 23 – martda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumida respublika siyosiy tizimi to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi. Unda O‘zbekistonda hokimiyatning Prezidentlik boshqaruvi shakliga o‘tish respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta’kidlandi. [5, – B. 495]

O‘zbekistonda prezidentlik instituti 1990-yil 24-martda ta’sis etilgan. Bu institutning joriy etilishi mamlakatda demokratiya jarayonlarini rivojlantirish, siyosiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan. Prezident lavozimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida belgilangan bo‘lib, Prezident davlat boshlig‘i sifatida davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlaydi.

Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1990-yil 24 martda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylangan. 1991-yil 29-dekabrda esa umumxalq saylovida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti sifatida saylandi. Karimov 25 yil davomida mustaqil O‘zbekistonni boshqarib, davlat mustaqilligini saqlash va mustahkamlashni o‘zining eng oliy ustuvor vazifasi qilib oldi.

Prezidentlik institutining joriy etilishi O‘zbekistonning suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘lib, yangi davlat boshqaruvi tizimining asosiy poydevorini yaratdi. Bu institut orqali Prezident keng vakolatlarga ega bo‘lib, islohotlarni amalga oshirish va davlat barqarorligini ta’minlashda markaziy rol o‘ynadi.[6.]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi xalqimiz uchun tarixiy burilish bo‘ldi. Bu voqea milliy tiklanish, erkin taraqqiyot va davlat suverenitetining mustahkamlanishiga yo‘l ochdi. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini tanladi, milliy qadriyatlar tiklandi, xalqaro maydonda o‘z o‘rnini egalladi. Shu bois, mustaqillik nafaqat siyosiy, balki ma’naviy va ijtimoiy hayotda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М. Камолов С. Ражапова Р ва бошқалар. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. - Тошкент: "Шарқ", 2000. 688 б.

2. https://staff.tiiame.uz/storage/users/414/presentations/vJSVqwN1Q3ORewYgbfAaKxzi7mLm6v9vMX6ESBjJ.pdf
3. Каримов Ислом. Ўзбекистон Мустақилликка Эришиш Остонасида - Тошкент: «Ўзбекистон» , 2011. 300 b.
4. Xoliqova. R.E . O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2020. 528 b.
5. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Sharq», 2013. 674 b.
6. https://president.uz/oz/lists/view/33?utm_source=perplexity

QAYTA QURISH YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY - SIYOSIY VAZIYAT

R.M.Abdug`aniyeva
Namangan davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
E-mail: ruhshonaabduganiyeva591@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1980-yillarning ikkinchi yarmida Sovet Ittifoqida boshlangan qayta qurish siyosatining O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri tahlil qilinadi. Qayta qurish davrida respublikada yuzaga kelgan siyosiy faollik, ommaviy noroziliklar va ijtimoiy muammolarning oshkora muhokama qilinishi kabi jarayonlarga e’tibor qaratiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние политики перестройки, начатой в Советском Союзе во второй половине 1980-х годов, на общественно-политическую жизнь Республики Узбекистан. Основное внимание уделяется таким процессам, как политическая активность в республике в период перестройки, публичные протесты и публичное обсуждение социальных проблем.

Annotation: This article analyzes the impact of Reconstruction policies started in the Soviet Union in the second half of the 1980s on socio-political life in the Republic of Uzbekistan. During the Reconstruction period, the focus will be on processes such as political activism, mass protests and the public discussion of social problems that have arisen in the Republic.

Kalit so‘zlar: Qayta qurish, O‘zbekiston , Ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Perestroyka, Sovet Ittifoqi, Demokratiyalashuv, Matbuot erkinligi, Norozilik harakatlari, Partiya siyosati, Ommaviy axborot vositalari**.**

Ключевые слова: Перестройка , Узбекистан, социально-политическая ситуация, перестройка, Советский Союз, демократизация, свобода прессы, протестные движения, партийная политика, СМИ

Keywords: Reconstruction, Uzbekistan, socio-political situation, Perestroika, Soviet Union, democratization, Press Freedom, protest movements, party politics, media

50–80-yillar O`zbekiston tarixidagi murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan, O`zbekiston xalqining fidokorona, bunyodkorlik tufayli respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi. Ikkinchim tomondan, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotda muammoalar, noxush holatlar to‘planib borib, pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi. Respublikaning iqtisodiy rivojlanish yo‘lida to‘xtab qolishlar ro‘y bermasada, olg‘a tomon siljish sur’atlari tobora sekinlashib, pasayib bordi.

1965-yilgi islohotda sanoat, qurilish va qishloq xo‘jalik korxonalarini xo‘jalik hisobiga o‘tkazish, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishni ko‘zda tutgan tadbirlar mo‘ljallandi. Korxonalar uchun yuqoridan rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar qisqardi, korxonalar faoliyatiga baho berishda ishlab chiqilgan yalpi mahsulot emas, realizatsiya qilingan mahsulot asosiy ko‘rsatkich deb belgilandi. Biroq siyosiy vaziyat o‘zgarmadi, u iqtisodiy islohotga zid bolib qolaverdi.

Markaziy siyosiy hokimiyatning iqtisodiyotni nazorat qilishi, buyruqbozlik yanada kuchaydi, rejadagi tadbirlarga tez-tez tuzatishlar kiritila boshladi, korxonalar huquqlari cheklana bordi. Iqtisodiy metodlar yana ma’muriyatchilik bilan almashtirildi. Islohot boshqaruvning o‘rta qismiga, korxonalargagina daxldor bo‘lib, u boshqaruvning yuqori eshelonlarini o‘zgartira olmadi. Qarorlar qog‘ozda qolib ketdi. Ularni amalga oshirishni ta’minlovchi jiddiy o‘zgarishlar bo‘lmadi, rahbariyatda siyosiy iroda yetishmadi.

Islohotlar 60-yillarning ikkinchi yarmida biroz samara bergan bo‘lsada, biroq umuman ko‘zlangan natijani bermadi. 60-yillarning iqtisodiy islohoti jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga, ishlab chiqarish munosabatlarining tub mohiyatiga daxl qilmadi. Shu sababli muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik tizimi yaratgan to‘g‘anoqli mexanizm keyingi yillarda ham ijtimoiy- iqtisodiy hayotda progressiv qayta o‘zgarishlarni, 1979-yilgi iqtisodiyotni isloh qilish yo‘lidagi urinishlarni barbod qildi. 70–80-yillarda bo‘lib o‘tgan KPSSning barcha syezdlarida rivojlanishning intensiv shakliga o‘tish zarurligi qayta-qayta ta’kidlangan edi [1.]

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985 –1986 yillar) asosan ma’muriy-tashkiliy tadbirlarning an’anaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo‘yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uniig asnosida inson omilini faollashtirishdan iborat bo‘ldi. [2, – B. 334]

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Biroq bunday jarayonning rivoji ijtimoiy munosa batlarni takomillashtirishni talab qildi. Shuning uchun 1986-yilda quyta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berildi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyrughozha va hym kratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi. Natijada jamiyat ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy, madaniy hayotida ma'lum o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. 1986-yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987 – yil yanvaridan ishlab chiqarish sur'atları keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tariqa mag‘lubiyat bilan yakun topdi. [3, – B. 488]

Ikkinchi bosqich (1987–1989 yillar): Kompleks islohotlar va demokratlashtirishdir. Bu bosqichda qayta qurish siyosati jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni maqsad qilib qo‘ydi. 1987-yil yanvar va 1988-yil iyun plenumlarida bu vazifalar yanada konkretlashtirildi va asosiy maqsad sovet jamiyatini to‘liq demokratlashtirishdan iborat ekanligi ta’kidlandi. Islohotlar doirasida oshkoralik siyosati kuchaytirildi, fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmga yo‘l ochildi. Shuningdek, iqtisodiy sohada bozor mexanizmlarini joriy etish, davlat korxonalarini mustaqil faoliyat yuritishga o‘tkazish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich (1989–1991 yillar): Siyosiy inqiroz va SSSRning parchalanishidir. Bu bosqichda qayta qurish siyosati o‘zining eng chuqur inqiroziga yuz tutdi. Ittifoq respublikalarida milliy ongning kuchayishi, suverenitetga intilish va mustaqillik harakatlari avj oldi. SSSR Markaziy hukumati bu harakatlarni jilovlashga urindi, ammo bu harakatlar ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikka uchradi.1989-yildan boshlab, Sovet Ittifoqining turli hududlarida milliy nizolar, iqtisodiy tanglik va siyosiy beqarorlik kuchaydi. Bu holatlar 1991-yilda SSSRning rasman parchalanishi va mustaqil davlatlarning tashkil topishiga olib keldi. [4.]

«Qayta qurish» yillarida o‘zbek ziyolilarining sayharakatlari bilan milliy-madaniy merosni tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarni himoya qilish va saqlash, O‘zbekistondan olib chiqib ketilgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni qaytarish muhim masalalardan biriga aylandi. Shu ma'noda, 80-yillarning ikkinchi yarmidan O‘zbekistonda «Meros» dasturi amalga oshirila boshladi. Bu harakat respublika bo‘ylab keng yoyildi. Jumladan, O‘zbekiston tarix va madaniyat yodgorlikla rini saqlash Toshkent viloyati kengashi huzurida tuzilgan yangi tashkilot «Bobur jamiyati», 1989-yilda birinchi jamoat ekspedisiyasi sifatida tashkil etilgan «Bobur yo‘li» ilmiy-ma'rifiy uyushmasi, ayni shu paytlarda Fargonada faoliyat ko‘rsatgan «Farg‘ona madaniyatini tiklash». Toshkent shahridagi 254-o‘rta maktabda vujudga kelgan «Madaniy merosga ixlos» markazlari xalqimizda, ayniqsa yoshlarda milliy g‘urur, faxr-iftixor, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim ro‘l o‘ynadi. «Qayta qurish yillarida bunday markaz, tashkilot va uyushmalar O‘zbekistonning barcha hududlarida tashkil etilgan edi. [5, – B. 651]

Qayta qurish yillarining yakuniy bosqichida siyosiy partiyalar va tashkilotlarning ko‘payishi, jamoatchilikning siyosiy faolligining oshishi, norasmiy matbuot organlarining paydo bo‘lishi kuzatildi. Bu omillar esa mustaqillik uchun zamin yaratdi. Ayni vaqtda SSSR markaziy hokimiyatining zaiflashuvi, iqtisodiy tanazzul, markaziy aralashuvlarjamiyatda yangi siyosiy muhitni shakllantirdi. [6, – B. 197] O‘zbekistondagi siyosiy tizim, o‘z navbatida, markazdan mustahkam nazorat qilinib, partiya apparatining kuchli ta'siri saqlanib qolgan. Lekin "Glasnost" siyosati davomida matbuot va ommaviy axborot vositalari o‘zgara boshladi. Jurnalistlar va siyosatshunoslar o‘z fikrlarini erkinroq ifoda etishga harakat qilishdi, lekin bunday ochiqlik hali ham ko‘plab cheklovlarga duch keldi. Shu paytda,

O‘zbekistonning siyosiy doirasida yangi fikrlar va harakatlar, xususan, milliy uyg‘onishning boshlanishi sezildi. O‘zbekistonda milliy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalari keng tarqala boshladi. Buning birinchi alomatlari 1989-yilda tashkil topgan "Erk" (Erkinlik) va "Birlik" kabi milliy harakatlarda namoyon bo‘ldi. Bu harakatlar xalq orasida mustaqillik, o‘zlikni tiklash va milliy madaniyatni himoya qilish kabi g‘oyalarni ilgari surdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki qayta qurish davrida O‘zbekistonda jamiyatda katta o‘zgarishlar boshlandi. Odamlar ilgari ochiq aytilmagan muammolar haqida gapira boshlashdi. Milliy til, madaniyat va tarixga qiziqish kuchaydi. Aholi orasida siyosiy faollik oshdi, mustaqillik haqida fikrlar paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va turmush darajasining pasayishi odamlarni norozi qila boshladi. Odamlar markaziy hokimiyatdan ko‘ra o‘z respublikasining mustaqil bo‘lishini ko‘proq istay boshlashdi. Qayta qurish davri O‘zbekistonda milliy uyg‘onish va siyosiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu yillar mustaqillikka olib borgan muhim tarixiy bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/qayta-qurish-siyosatining-mohiyati-qayta-qurish-sharoitidagi-islohotlar-milliy-ongning-yuksalishi-ppt
2. Xoliqova. R.E . O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2020. 528 b.
3. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Sharq», 2013. 674 b.
4. Жўраев М. Камолов С. Ражапова Р ва бошқалар. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. - Тошкент: "Шарқ", 2000. 688 б.
5. https://arxiv.uz/uz/documents/darsliklar/tarix/qayta-qurish-siyosati-va-uning-inqirozi-farg-ona-fojialari-10-sinf?utm_source=chatgpt.com
6. Bobomurod Tillayev. Isroiljonova Dilshodaxon Adxam Qizi. “Qayta Qurish” yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ustozlar Uchun Pedagoglar.Org. 70-son 1 –To‘plam Aprel 2025.

BO‘LAJAK O‘QITUVChILARDA PROGNOSTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISh ZARURIYATI

T.K.Seytmuratova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif pedagogik prognostikaning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni hamda prognostik kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatini ochib bergan.

Kalit so‘zlar: prognoz, prognostika, pedagogik prognostika, pedagogik prognozlash, kompetentlik, prognostik kompetentlik.

XXI asr pedagogi bu o‘qitish va tarbiyalashning an’anaviy pedagogik madaniyatini egallashdan tashqari prognostik kompetentlikka ega pedagog-tadqiqotchi bo‘lishi lozim. Bugungi kunda pedagogning prognostik tafakkuri va madaniyatni rivojlantirishga muhim masala sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. I.P.Podlasiy[1]ning fikricha, pedagogning asosiy funktsiyalari sirasiga maqsad qo‘yish, tashhislash, prognozlash, loyihalash, rejalashtirish, axborot berish, tashkil etish, nazorat qilish, korrektsiyalash, tahlil etish kabilarni kiritish mumkin.

Prognoz – yunoncha so‘z bo‘lib, kutilayotgan voqea yoki xodisalarning qanday kechishi, rivojlanishi va oqibatlarini mavjud dalillar, ma’lumotlarga asoslanib, oldindan aytib berish ma’nosini anglatadi.

B.S.Gershunskiy[2]ning fikricha, pedagogik prognostika – bu pedagogika o‘rganadi-gan ob’ektlarni prognozlashning tamoyillari, qonuniyatlari va metodlariga muvofiq ko‘rib chiqadigan fanning bir sohasidir.

Pedagogik prognozlash – bu ilmiy faoliyat bo‘lib, u pedagogik faoliyatning subyektlari va obyektlarining kelajakdagi o‘zgarishlari, rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollarini aniqlashga, tarbiyaviy-rivojlantiruvchi faoliyatning mazmunini, metod va vositalarini, tashkiliy shakllarini optimallashtirish maqsadida ishonchli va kelajakka oid ma’lumotlarini olishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan tadqiqotlar majmuidan iboart.

Pedagogik prognozlashning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘quv-tarbiya ishlarining maqsadi; ta’lim mazmuni; o‘quv-tarbiya faoliyatining metod va vositalari; o‘qitish va tarbiyalashni tashkil etish shakllari; kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash muammolari.

B.Gershunskiy o‘z asarlarida pedagogik prognozlashning quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tadi:

- iqtisod, sotsiologiya, demografiya, ekologiya va boshqa sohalardagi prognostik tadqiqotlar bilan bog‘liq bo‘lgan fanlararo prognostik tadqiqotlar o‘tkazish;
- ta’lim sohasidagi prognozlarning maqsad yo‘nalishini belgilash, oldindan taxmin qilinadigan predmetlar uchun umumiy va batafsilroq prognozlarni ishlab chiqish uchun talab qilinadigan va talab etiladigan obyektlarni tanlash;
- ta’limning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini yaxlit tizim sifatida oldindan tahlil qilish;
- uzluksiz ta’limning yaxlit tizimdagi turli darajalarida muammolari va qarama-qarshiliklarini aniqlash;
- ta’lim va madaniyatning o‘zaro bog‘lanishiga to‘sqinlik qiluvchi obyektiv va sub’yektiv omillarni tadqiq qilish;
- ta’lim tizimini yaxlit holatda va uning alohida qismlarini jamiyatning ijtimoiy-madaniy sohasiga “joylashtirish” mexanizmlarini o‘rganish;
- ta’limning maqsad va mazmunini prognostik tahlil qilish, ta’lim tizimlarini insonparvarlashtirish va gumanitarizatsiyalash, ta’lim sohasidagi integratsion jarayonlarni bir vaqtda o‘rganish bilan ularni demokratlashtirish, differentsiyalash va o‘zgartish yo‘llarini o‘rganish;
- ta’limning qadriyat ekanligini davlat, jamoat va shaxsiy tushunishda uyg‘unligini ta’minlash;
- ta’limning obro‘sini oshirish yo‘llari, usullari va vositalarini qidirish;
- ilm o‘rganishning tashqi va ichki rag‘batlantirish hamda motivatsiya imkoniyatlarini o‘rganish, ilmning obro‘sini, insonning professional kompetentligi va madaniyatining obro‘sini oshirish;
- turli hil kvalifikatsiyadagi va profillardagi mutaxassilar va ishchilarni tayyorlashni prognoz qilish;

shaxsiy ta’lim manfaatlari va ehtiyojlarining o‘zgarishi, ta’lim xizmatlarining ko‘lamini kengaytirish;

- didaktik tizimlarning mazmunli-protsessual komponentlarini prognostik asoslash;
- ta’limning maqsad va mazmunini prognozlashtirish, uning uzluksizligini ta’minlash;
- pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganish;
- pedagogik boshqaruvning istiqbolli muammolarini o‘rganish va boshqalar [2].

“Pedagogik prognostika o‘qituvchi uchun zarurmi?” degan savolga V.I.Andreev [3] javob topishga intilib, quyidagi shartlarni keltirib o‘tadi:

- pedagogika faning ekstensiv (son jihatdan) asosda rivojlanishi;
- pedagogik nazariyalar bilan pedagogik amaliyotning o‘rtasida o‘zilish borligi. Eng yaxshi mahsuldor pedagogik nazariyalar ham amaliyotga kech etib keladi;
- ishlab chiqilgan nazariyalarning ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini rivojlantirishga qaratish ustuvorligi tushunchasi mavjud emasligi;
- aksariyat pedagogik tadqiqotlarning metodologik madaniyati past darajadaligi.
- pedagogik tadqiqotlar mavzularining tez-tez o‘zgarishi;
- ilmiy-tadqiqot mavzularining bir-biri bilan uzviylik aloqasining yo‘qligi;
- ilmiy maktablar o‘rtasida mahsuldor ilmiy bahs-munozaralar bo‘lmasligi.
- chet eldagi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning natijalarini foydalanishning sustligi;
- aksariyat pedagogik eksperimentlarning fragmentli ko‘rinishi va asossiz joriy etilmasligi;
- ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini oshiradigan fundamental pedagogik tadqiqotlarning kamligi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda prognostik kompetentlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

A.V.Gluzman[4]ning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga doir o‘quv-tarbiya jarayonida kompetent yondashuvning asosiy tamoyillari mutaxassislarning yuqori darajada raqobatbardoshligini ta’minlash omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarni natijador kasbiy faoliyatga yuqori darajada tayyorgarligi doirasida kompetent yondashuvni dolzarblashtirish fundamental asosda prognostik kompetentlikni shakllantirish dasturlarini ishlab chiqish zarurligini tushunish imkonini beradi. Ko‘plab pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida “kompetentlik” fenomenini prognostik oqibat va

natijalar bilan bog‘liqlikda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida individ tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati va tayyorligi sifatida olg‘a surish mumkin.

Kompetentlik fenomenining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda, bo‘lajak o‘qituvchining prognostik kompetentligining ta’rifini shakllantirish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchining prognostik kompetentligi – bu kasbiy bilimlar, qadriyatli ustanovkalar, shaxsiy sifatlar va pedagogik prognozlash sohasida amaliy ko‘nikmalarni egallash, shuningdek, prognostik faoliyatga motivatsion-qadriyatli munosabat, kasbiy o‘sish hamda ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish jarayonlarini rejalashtirish bo‘yicha integrallashgan shaxsiy sifatlar majmui.

Mazkur ta’rifga asoslangan holda, prognostik kompetentlikning tuzilishi va tarkibiy asoslarini tahlil qilish mumkin. Boshqacha aytganda, prognostik kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilarni prognostik faoliyatga tayyorlash natijasi sifatida ma’lum bir kompetensiyalar tizimiga asoslanishni taqozo etadi. Prognostik kompetentlik komponentlarini aniqlashtirishga doir tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tayanch: axborot-prognostik, operatsion-prognostik, baholovchi-prognostik;
- asosiy: maqsadli, rejali-prognostik, dasturiy-prognostik, loyihaviy-prognostik, tashkiliy-prognostik;
- bilim, faoliyatga doir va shaxsiy jihatlarni o‘zida ifoda etuvchi maxsus hamda qisman kasbiy kompetensiyalar.

Bundan esa, “prognostik kompetensiya” va “prognostik kompetentlik” tushunchalarini farqlash mumkin. A.F.Prisyajnaya[5]ning fikricha, prognostik kompetensiya ta’lim natijasi sifatida prognostik faoliyatning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

- ijtimoiy, hayotiy va kasbiy nuqtai nazardan o‘z o‘rnini belgilab olish uchun zarur hisoblangan maqsad qo‘yish, rejalashtirish, dasturlash, loyihalashga doir ko‘nikmalarni namoyish etish;
- prognozlashga doir bilimlar, axborotlarni tanlash, o‘zgarishlar tendensiyasini aniqlash orqali mantiqan ularga ishlov berish, tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini egallash;
- sotsium, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni aniqlab beruvchi o‘zining layoqati, imkoniyatlari hamda ularni takomillashtirish yo‘llari haqida maqbul tasavvurlarga ega bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish.

A.F.Prisyajnaya[5] prognostik kompetentlik tuzilmasiga xos quyidagi komponentlarni taklif etadi:

- affektiv: aniq maqsad sari intilish, fikrlashning moslashuvchanligi, irodaviylik, tolerantlik, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z faoliyatini loyihalash, izlanishli-ijodiy faoliyatni yetarlicha egallaganlik, faoliyat natijalarini baholay olish qobiliyati, maqbul tarzda o‘z-o‘zini baholash;
- bilishga doir: prognostik atamalarni bilish, ma’lum bir darajada ta’lim traektoriyasi va zaruriyatdan kelib chiqib shaxsiy qobiliyatlar darajasini bashoratlash ko‘nikma va malakalari;
- faoliyatga doir: o‘zining ta’limiy, kasbiy traektoriyasi hamda shaxs va sotsium ehtiyojlarini ta’minlaydigan faoliyat natijalarini ilmiy tarzda ko‘ra olish va maqbul baholashga imkon beradigan o‘quv, kognitiv va kasbiy faoliyat.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning prognostik kompetentligi tuzilmasi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shaxs rivojini prognozlash: shaxsiy sifatlari, qadriyatli yo‘nalishlari, emotsional-irodaviy xususiyatlari, rivojlanishdan ortda qolish sabablari, axloqi, tengdoshlar va kattalar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishishdagi qiyinchiliklar;
- o‘quvchilar jamoasi, o‘zaro munosabatlar tizimining rivojlanishini prognozlash;
- pedagogik jarayonning borishini prognozlash: o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilar duch keladigan qiyinchiliklar, ta’lim-tarbiyaning u yoki bu metod, usul va vositalaridan foydalanish natijalari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Подласый И.П. Педагогика. Учебник. – М.: Высшее образование. 2007. – 540 с.
2. Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика: теория, методология, практика. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 768 с.
3. Андреев В.И. Концептуальная педагогическая прогностика/ Монография. – Казань: Центр инновационных технологий, 2010. – 220 с.

4. Глузман Н.А. Моделі навчання в системі вищої освіти як педагогічна проблема / Неля Анатоліївна Глузман // Вісник Чернігівського держ. пед. ун-ту ім. Т.Г.Шевченка : зб. ст. – Сер.: Пед. науки – Вип. 56. – №56 – Чернігів: ЧДПУ, 2008.– С. 175–179.
5. Присяжная А.Ф. Педагогическое прогнозирование в системе непрерывного педагогического образования (методология, теория и практика): дис. д-ра пед. наук: 13.00.08 / Алла Федоровна Присяжная. – Челябинск, 2006. – 380 с.

“YASHIL TEXNOLOGIYALAR” ASOSIDA ISHLOVCHI MASHINALAR

Y.O.Jo‘raxanov
Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil texnologiyalar asosida ishlovchi mashinalarning ishlab chiqarishdagi roli, ekologik xavfsizlikka qo‘shgan hissasi, energiya tejamkorligi va texnologik transformatsiyadagi ahamiyati yoritilgan. Muallif zamonaviy texnologiyalar yordamida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘llarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi resurslar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, texnologik taraqqiyot

Global ekologik inqiroz, atmosfera ifloslanishi, issiqxona gazlari chiqindilarining ortib borishi, energiya resurslarining cheklanganligi bugungi kunda insoniyatni tabiat bilan uyg‘un yashashga, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yechimlarni izlashga undamoqda. Aynan shu kontekstdan kelib chiqib, sanoat va texnologiyalar rivojlanishida "yashil texnologiyalar" tushunchasi markaziy o‘rin egallay boshladi. Yashil texnologiyalar nafaqat atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, balki energetik samaradorlikni oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu esseda aynan ushbu konsepsiya asosida ishlovchi mashinalar, ularning mohiyati, ishlab chiqarishdagi roli, texnik-iqtisodiy samaradorligi va strategik ahamiyati chuqur ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

"Yashil texnologiyalar" asosida ishlovchi mashinalar deganda, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, energiya manbalarini tejaydigan, chiqindi hosil bo‘lishini kamaytiradigan va qayta tiklanuvchi resurslar asosida faoliyat yurituvchi texnik vositalar tushuniladi. Bunday mashinalar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ekologik xavfsizlik tamoyillariga amal qilgan holda yaratiladi: material tanlashdan boshlab, ekspluatatsiya, xizmat ko‘rsatish va utilizatsiyagacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Ular nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki energiya sarfini kamaytirib, uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan ham foydali bo‘ladi.

Zamonaviy sanoatda yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mashinalarning jadal joriy etilishi kuzatilmoqda. Bunday texnologiyalar, avvalo, energiya manbai sifatida quyosh, shamol, biogaz, gidroenergiyadan foydalanadigan qurilmalarda o‘z aksini topmoqda. Quyosh panellari bilan jihozlangan tozalash mashinalari, shamol generatori yordamida ishlovchi qishloq xo‘jaligi texnikalari, biogazga asoslangan isitish tizimlari — bularning barchasi ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yashil texnologiyalar shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash asosida ishlovchi mexanizmlarda, masalan, plastik butilkalardan yo‘l qoplamasi yasovchi qurilmalarda ham o‘z ifodasini topmoqda.

"Yashil mashinalar"ning ishlab chiqarishdagi roli faqatgina ekologik jihatdan emas, balki ishlab chiqarish jarayonining o‘zini modernizatsiya qilish orqali yangi bosqichga olib chiqishda ham namoyon bo‘lmoqda. Ular odatdagi mashinalarga nisbatan energiya sarfini 30-50% gacha kamaytiradi. Bu esa sanoat korxonalari uchun bevosita iqtisodiy foyda manbai bo‘lishi bilan birga, energiya inqirozining oldini olishda ham muhim vosita hisoblanadi. Yashil mashinalar shuningdek, ishlab chiqarish paytida chiqindilarning minimallashtirilishi, ekologik xavfsiz materiallardan foydalanilishi, chiqindilarni ajratib olish tizimlarining mavjudligi, avtomatlashtirilgan monitoring vositalari bilan ham ajralib turadi.

Bu kabi mashinalarning rivojlanishida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar katta rol o‘ynamoqda. Sensor tizimlari, aqlli boshqaruv algoritmlari, ma’lumotlarni real vaqtda tahlil qiluvchi

dasturlar yordamida bu mashinalar o‘z faoliyatini atrof-muhit sharoitiga moslashtira oladi. Masalan, irrigatsiya mashinalari tuproq namligini aniqlab, faqat kerakli miqdorda suv sarflaydi. Bu esa nafaqat suv resurslarini tejaydi, balki hosildorlikni oshiradi. Yoki ishlab chiqarishdagi filtrlash tizimlari havo yoki suvdagi ifloslik darajasiga qarab avtomatik ravishda filtrni almashtiradi yoki retsirkulyatsiya jarayonini faollashtiradi.

Yashil texnologiyalarga asoslangan mashinalarning afzalliklari shubhasizdir. Ularda yoqilg‘i sarfi sezilarli darajada kamayadi, kamroq issiqxona gazlari ajraladi, shovqin darajasi past bo‘ladi, texnik xizmat ko‘rsatish muddati uzoqroq, resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori. Shu bilan birga, bunday mashinalarning ishlab chiqarish va ekspluatatsiya xarajatlari dastlabki bosqichda biroz yuqori bo‘lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli foyda va ekologik barqarorlik bu xarajatlarni to‘liq oqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida yashil texnologiyalar asosida mashinalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha imkoniyatlar yetarli. Quyosh energiyasi boyligi, shamol resurslarining mavjudligi, qishloq xo‘jaligida organik chiqindilar ko‘pligi – bularning barchasi yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi. Biroq, bu borada texnologik bilim, texnik infratuzilma, investorlar va innovatsion fikrlovchi kadrlar yetishmovchiligi seziladi. Shu sababli, davlat siyosati darajasida yashil texnologiyalarni ilgari surish, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yechimlar ishlab chiqish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va xorijiy texnologiyalarni lokalizatsiya qilish zarur.

Yashil texnologiyalar asosida ishlovchi mashinalar nafaqat sanoat ishlab chiqarishini ekologik xavfsiz holatga keltirish, balki resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va texnologik taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqishning muhim vositasidir. Ular bugungi va ertangi avlod uchun sog‘lom atrof-muhitni ta’minlash, ekologik inqirozni oldini olish, iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida zamonaviy texnologik echim hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu texnologiyalar asosida mashinalar yaratish yo‘lidagi sa’y-harakatlar tizimli yondashuv, ilmiy salohiyat, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar r**o‘**yxati

1. Karimov Z.I., Rustamova D.K. *Ekologik xavfsiz texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 204 b.
2. Tursunov A.M. *Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot asoslari*. – Samarqand: Innovatsiya nashriyoti, 2021. – 180 b.
3. Muxitdinov I.M. *Texnologik tizimlarda energiya tejamkorlik va ekologik samaradorlik*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023. – 218 b.
4. UNEP (United Nations Environment Programme). *Green Technology Choices: The Environmental and Resource Implications of Low-Carbon Technologies*. – 2022. [Elektron manba] https://www.unep.org
5. OECD. *Green Growth and Industrial Transition*. – Paris: OECD Publishing, 2021. [Elektron manba] https://www.oecd.org
6. ScienceDirect. *Advances in green machinery and sustainable manufacturing systems*. – 2023. [Elektron manba] https://www.sciencedirect.com
7. SpringerLink. *Eco-friendly machines and renewable energy technologies in industry*. – 2023. [Elektron manba] https://link.springer.com
8. IEA (International Energy Agency). *Clean Energy Innovation*. – 2023. [Elektron manba] https://www.iea.org

JADID MAKTABLARIDA TEATR PEDAGOGIKASI ASOSIDA TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISHI

Sh.O.Maxkamova
Namangan davlat pedagogika instituti
1 -bosqich tayanch doktoranti

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan tub ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar asosida jadidchilik harakati o’ziga xos o‘rin tutadi. Mustamlakachilik siyosati

natijasida joylardagii ijtimoiy-ma'rifiy hayotda yuzaga kelgan tanglik, ilm-fanning rivojlanishidan ortda qolishi, xalqning savodsizlik va jaholat botqog‘iga botgani jadid ziyolilarini chuqur tashvishga soldi. Ular xalqni uyg‘otish, bilim va ma'rifatga yetaklash, yangi zamon talablari asosida zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishni o‘z oldilariga asosiy vazifa qilib qo‘ydilar. Jadid maktablari aynan shu zaruriyat va tarixiy sharoitning mahsuli bo‘lib, eski maktab-madrasalar tizimidan farqli ravishda, dunyoviy bilimlarni, yangi pedagogik uslublarni va zamonaviy fan yutuqlarini ta'lim jarayoniga olib kirdi. Ana shu islohotlar doirasida teatr san’ati ham ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida kiritildi. Jadid ziyolilari teatrni bolalarning tafakkurini kengaytirish, axloqiy tarbiya berish, vatanparvarlik ruhini singdirish hamda jamiyatdagi muammolarni badiiy ifoda orqali yoritish vositasi deb bilganlar.Teatr san'ati orqali ma'naviy-ma'rifiy g‘oyalarni xalq ongiga singdirish, yosh avlodni o‘z davrining ilg‘or bilimlari va qadriyatlari bilan qurollantirish mumkinligi jadidlarning amaliy faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlandi. Xususan, maktab o‘quvchilari uchun sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash, axloqiy saboqlar berish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash ishlari amalga oshirildi.Teatr vositasida ta'lim va tarbiyaning rivojlanishi nafaqat bolalarning o‘zlashtirish darajasiga, balki jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirishga, ma'rifatparvarlik ruhining mustahkamlanishiga ham xizmat qildi. Jadidlar yaratgan teatr asarlari — milliy uyg‘onish va madaniy o‘zgarishlar tarixining bebaho namunasi sifatida, zamonaviy ta'lim metodologiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi ta'lim- tarbiya tizimida interfaol, sahnaviy metodlar qo‘llanilayotgani o‘z ildizini aynan jadid maktablarining tajribasidan olgani e’tiborga molikdir. Shu bois, "Jadid maktablarida teatr vositasida ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi" mavzusini o‘rganish, nafaqat tarixiy tajriba sifatida, balki zamonaviy ta’lim jarayonlari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada mazkur jarayonlarning asosiy xususiyatlari, teatrning ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni va uning natijalari tahlil etiladi.

Jadidchilik harakati va unda teatr vositasida ta’lim-tarbiya masalalarining o‘rganilishi masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Bu yo‘nalishdagi adabiyotlar tahlili jadid maktablarining maqsadi, teatr san’atining ahamiyati va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi roli kabi jihatlarni anglash imkonini beradi.

M.Ahmedovning "O‘zbek jadidchiligi tarixi" (Toshkent, 2000) asarida jadid maktablarining paydo bo‘lishi, ularda yangi ta’lim metodlari va yangi fanlar joriy etilishi batafsil tahlil qilingan. Muallifning ta’kidlashicha, jadid maktablarida faqat nazariy bilim emas, balki hayotga mos tajribaviy ko‘nikmalar ham shakllantirilgan va bu jarayonda teatr san’ati muhim o‘rin tutgan.

I.Karimovning "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch" (Toshkent, 2008) asarida esa umumiy ma’naviy-axloqiy rivojlanishda madaniyat va san’at, jumladan, teatrning o‘rni alohida ta’kidlangan. Unda ta’lim-tarbiyada zamonaviy fikrlash va interfaol metodlar, jumladan, sahnalashtirishning ahamiyati qayd etilgan.

B.Mirvaliyevning "O‘zbek dramaturgiyasi va jadidlar" (Toshkent, 2014) asari jadidlar tomonidan yaratilgan teatr asarlari tahliliga bag‘ishlangan. Muallif teatr vositasida jamiyatdagi kamchiliklar fosh qilingani, xalqni uyg‘otish va ilmiy fikrga chorlashdek vazifalar bajarilganini ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yaxshi oila, yomon oila" asari orqali yoshlarga oilaviy qadriyatlar va jamiyatdagi mas’uliyatli faollik ruhida tarbiya berish maqsad qilingan.

Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" asari ham jadidchilik ruhini aks ettiradi. Unda ta’lim, ma’rifat va jamiyat islohotlarining ahamiyati badiiy tasvirlangan bo‘lib, jadid maktablarining ruhiy asoslarini anglashda muhim manba hisoblanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati jadid maktablarida teatr vositasida ta’lim va tarbiyani shakllantirishning yorqin namunasi sifatida o‘rganiladi. Uning "Padarkush" dramasi oilaviy munosabatlar, jaholat va maorifsizlikning yomon oqibatlari haqida bolalar va kattalar uchun faxriy dars vazifasini bajargan. Bu pyesa maktablarda sahnalashtirilib, ta’limning ta’sirchanligini oshirgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, F.Abdurahmonovning ta’limda interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha ishlarida, sahnalashtirish metodi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish vositasi sifatida tavsiya etiladi. Bu qarash jadid maktablarining tajribasi bilan mutanosibdir.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki:

1.Jadidlar teatr vositasini faqat badiiy zavq uyg‘otish uchun emas, balki ta’lim va tarbiyada maqsadli foydalanish uchun joriy qilganlar.

2.Teatr orqali zamonaviy bilimlar, axloq normalari va milliy g‘oyalar yosh avlod ongiga samarali singdirilgan.

3.Bugungi kunda ham jadid maktablari tajribasi interfaol ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Jadid maktablarida teatr san’atining ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi nafaqat pedagogik innovatsiya sifatida, balki milliy uyg‘onish va ma’naviy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar teatr vositasida o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy ongini shakllantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Ular bolalarning qalbi va tafakkuriga ta’sir etishning eng ta’sirchan vositasi sifatida teatrni samarali qo‘llay oldilar.

Teatr orqali o‘quvchilar: mustaqil fikrlash, faol fuqarolik o’rnini shakllsntirish, g’oyaviy barqarorlik va millliy g’urur hislarini tarbiyalashga imkon yaratadi.

Jadidlar yaratgan sahna asarlari ham o‘z mazmuni, ham o‘z shakli-shamoyli jihatidan ta’limning interfaol va interaktiv usuli bo‘lib xizmat qildi. Teatr vositalari o‘quv jarayoniga faol kiritilishi natijasida an’anaviy dars shakli yangilandi, o‘quvchilar o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Jadid maktablarining bu tajribasi zamonaviy ta’limdagi quyidagi muhim prinsiplarning ilk ifodasi sifatida qaralishi mumkin:

Interfaollik : Bilim berish jarayonida o‘quvchining faol ishtiroki;

Bevosita tajriba orqali o‘rganish: Rolli o‘yinlar va sahna ko‘rinishlari orqali bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani ta’lim bilan uyg‘unlashtirish: Ta’lim mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar teatr vositasida faqatgina yangi bilim berish bilan cheklanib qolmadilar, balki yangi shaxs — savodli, ongli, vatanparvar va faol jamiyat a’zosini tarbiyalashga harakat qildilar. Bugungi kunda ham ta’limda teatr pedagogikasini qo‘llash, talabalarning ijodiy faolligini oshirish va ma’naviy kamolotini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jadid maktablari tajribasini o‘rganish va uni zamonaviy pedagogik usullar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish mumkin. Hozirgi kunda ham ta’lim jarayonida interaktiv teatr elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish va milliy ongini mustahkamlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov M. O‘zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 240 b.
2. Mirvaliyev B. O‘zbek dramaturgiyasi va jadidlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. – 216 b.
3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2010. – 368 b.
4. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1991. – 64 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
6. Abdurahmonov F. Interaktiv ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 212 b.
7. Niyoziy H.H. Yaxshi oila, yomon oila (pyesa). – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. – 54 b.
8. Qosimov B. Jadidlar adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2009. – 200 b.
9. A’zamov M. Teatr san’ati va ta’lim. – Toshkent: San’at, 2012. – 150 b.
10. Matkarimov Sh. Jadid maktablarida ta’lim usullari. – Toshkent: Ma’rifat, 2015. – 175 b.

VINTLI MEXANIZMLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Y.O.Jo‘raxanov
Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada vintli mexanizmlarning sanoatdagi o‘rni, ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va zamonaviy yechimlar tahlil qilinadi. Ishqalanish, material tanlovi, termik ta’sir, yig‘ish aniqligi va raqamli monitoring texnologiyalari asosida samaradorlikni oshirish yo‘llari ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitidagi mavjud tizimlar va ularni modernizatsiya qilish zarurati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *vintli mexanizmlar, samaradorlik, ishqalanish, material tanlovi, termik barqarorlik, diagnostika, raqamli monitoring, ishlab chiqarish aniqligi, sanoat texnologiyasi*

Sanoat mashinasozligi, qurilish, transport, aerokosmik va tibbiyot sohalarida vintli mexanizmlar harakatni uzatish, kuchni o‘zgartirish va aniq joylashishni ta’minlashda muhim texnik element hisoblanadi. Vintli uzatmalar oddiy konstruksiya, kompaktlik va yuqori aniqlik kabi afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramay, ular har doim ham maksimal samaradorlik bilan ishlamaydi. Ishqalanish, energiya yo‘qotilishi, eskirish, mustahkamlikning pasayishi, yog‘lashdagi muammolar va termal kengayishlar bu tizimlarning uzoq muddatli va samarali ishlashiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun vintli mexanizmlarning ishlash samaradorligini oshirish dolzarb muammo bo‘lib, bu yo‘nalishda texnologik, materialshunoslik, konstruktiv va boshqaruv sohalarida keng qamrovli yondashuvlar talab qilinadi. Ushbu esseda vintli mexanizmlarning zamonaviy ishlash sharoitlari, samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillar, muammolar va ularga nisbatan samarali yechimlar tahlil qilinadi.

Vintli mexanizmlar liniyaviy harakatni aylanish harakati bilan bog‘lovchi tizimlar bo‘lib, ular harakatni juda aniq tarzda uzatish imkonini beradi. Ular asosan metall detallar – vint, gayka, vintli juftliklar, podshipniklar va qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlovchi elementlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ularning asosiy ustunligi – yuqori aniqlik, ishonchlilik va ixchamlikdir. Biroq, bu tizimlarning samaradorligi doimiy ishqalanish, mikrosurilish, materialning charchashi va noto‘g‘ri sozlangan konstruksiyalar sababli pasayadi.

Samaradorlikka birinchi navbatda ta’sir qiluvchi omil bu – ishqalanish. Vintli mexanizmlarda asosan sirpanish ishqalanishi sodir bo‘ladi, bu esa moment yo‘qotishiga va energiyaning issiqlik ko‘rinishida isrof bo‘lishiga olib keladi. Bu holatni kamaytirish uchun zamonaviy sirpanishga qarshi qoplamalar, yuqori sifatli yog‘lovchi moddalardan foydalanish va aniq ishlov berish texnologiyalarini joriy etish zarur. Ayniqsa, yuqori yuklama va harakat chastotasi ostida ishlaydigan mexanizmlarda yog‘lovchi qatlamning mustahkamligi va barqarorligi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi muhim jihat – material tanlovi. Vintli juftliklar uchun foydalaniladigan materiallar o‘zaro mos bo‘lishi, termal kengayish koeffitsientlari yaqin bo‘lishi va ularning strukturasi charchoqqa chidamli bo‘lishi lozim. Ko‘pincha turli xil metallarning juftligi (masalan, bronza – po‘lat, zanglamas po‘lat – qotishma po‘lat) ishlatiladi. Bu konstruktiv yechimlar mexanizmlarda abraziv eskirishni kamaytirish, sirpanishni yengillashtirish va harakatda aniqlikni oshirish imkonini beradi.

Vintli mexanizmlarning samaradorligiga termik ta’sir ham katta rol o‘ynaydi. Yuqori haroratda ishlaydigan tizimlarda metallar kengayadi, bu esa oraliq bo‘shliqlarning yo‘qolishiga, siqilish kuchlarining ortishiga va natijada ishqalanish kuchining kuchayishiga olib keladi. Ushbu muammoni bartaraf qilish uchun vintli mexanizmlar issiqlikni tarqatuvchi konstruktiv shakllar, maxsus sovituvchi tizimlar yoki qoplamalar yordamida himoyalanishi lozim.

Bundan tashqari, vintli mexanizmlarning konstruktiv yechimlarini mukammallashtirish orqali ham samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, oldindan bosimli vintli juftliklar (prednagruzka) qo‘llash orqali oraliq bo‘shliqlarni bartaraf etish va harakatdagi aniqlikni oshirish mumkin. Shuningdek, vintli mexanizmlarda avtomatlashtirilgan sozlash mexanizmlari, kontakt zonalarini silliqlashtirish, robotlashtirilgan yig‘ish texnologiyalari orqali harakatda paydo bo‘ladigan noaniqliklarni bartaraf qilish mumkin.

Raqamli texnologiyalar va nazorat tizimlarini joriy qilish ham vintli mexanizmlarning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sensorlar yordamida yuklamani real vaqt rejimida

monitoring qilish, tebranish darajasini baholash va qoplama holatini tahlil qilish mumkin. Bu esa texnik xizmat ko‘rsatishni aniq rejalashtirish va nosozlikni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv texnik ishonchlilikni oshirib, favqulodda to‘xtashlar sonini kamaytiradi.

Shuningdek, samaradorlikni oshirishda ishlab chiqarish va yig‘ish jarayonlarining aniqligi ham muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish bosqichida aniqlikni ta’minlash uchun CNC stanoklardan, lazerli o‘lchov tizimlaridan, optik markalash va nazorat vositalaridan keng foydalaniladi. Bunday texnologiyalar vintli mexanizmlarning geometriyasini ideal holatda tayyorlash, montajdagi noaniqliklarni kamaytirish va funksional barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida ko‘plab texnologik mashinalarda vintli mexanizmlar ishlatilmoqda. Jumladan, to‘qimachilik uskunalari, metallga ishlov beruvchi stanoklar, oziq-ovqat sanoatidagi presslash va aralashtirish uskunalari, neft-gaz sektoridagi ko‘tarish va fiksatsiya tizimlari, issiqxona texnikalarida ko‘plab vintli uzatmalar mavjud. Ushbu mexanizmlarning texnik xizmatga muhtojligi, ehtiyot qismlar tanqisligi, ish samaradorligining pastligi — ular bo‘yicha tizimli yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy sharoitda ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda diagnostika va nazorat tizimlarini ishlab chiqish kerak. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganib, sanoat korxonalariga moslashtirilgan avtomatlashtirilgan yig‘ish liniyalari, yuqori sifatli komponentlar va o‘zimizda ishlab chiqariladigan ehtiyot qismlar asosida mexanizmlarni modernizatsiya qilish lozim.

Vintli mexanizmlar zamonaviy texnik tizimlarning ajralmas qismi bo‘lib, ularning samaradorligi butun tizimning funksional barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Ishqalanishni kamaytirish, material va qoplamani optimallashtirish, harorat ta’sirini boshqarish, raqamli nazoratni joriy qilish va yuqori aniqlikdagi yig‘ish texnologiyalarini qo‘llash orqali ularning ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa texnik ishonchlilik, iqtisodiy tejamkorlik va ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Shu bois, vintli mexanizmlarning samaradorligini oshirish sanoat strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar r**o‘**yxati

1. Tursunov B.A., Salimov D.S. *Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 256 b.
2. Xolmatov D.S. *Vintli mexanizmlarda energiya samaradorligini oshirish asoslari*. – Samarqand: Innovatsiya, 2022. – 212 b.
3. Karimov U.R. *Mexanik uzatmalar konstruksiyasi va ekspluatatsiyasi*. – Toshkent: Ilm ziyo, 2023. – 198 b.
4. ISO 3408-1:2006. *Ball screws – Part 1: Nominal diameters and leads – Metric series*. – Geneva: ISO. [Elektron manba] https://www.iso.org
5. Rao J., Smith K. *Precision Mechanical Drives and Ball Screw Efficiency*. – Springer, 2020. – 284 p.
6. ScienceDirect. *Recent developments in self-lubricating coatings for screw mechanisms*. – 2023. [Elektron manba] https://www.sciencedirect.com
7. World Bank Report. *Smart Manufacturing Technologies in Mechanical Engineering*. – World Bank Publications, 2022. [Elektron manba] https://www.worldbank.org
8. IoT Analytics. *Sensor Integration for Real-Time Monitoring of Screw Drives*. – 2023. [Elektron manba] https://www.iot-analytics.com

ЎЗБЕКИСТОН ВА ЖАНУБИЙ КОРЕЯ ҲАМКОРЛИГИ: ОЛИЙ ТАЬЛИМ МУАССАСАЛАРИ МИСОЛИДА

Д.М.Бойдадаев
Наманган давлат педагогика институти

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон ва Жанубий Корея ҳамкорлигида Олий Таьлим муносабатларига эьтибор ва бу иттифоқнинг мамлакатимиз иқтисодий ривожланишида аҳамияти тасниф этилган. Бундан ташқари, Олий Таьлим муассасалари ушбу икки давлат мисолида қиёсий

ўрганилиб таҳлил этилган ва иқтисодий ўсишга таьсир этувчи омил сифатида қўшма ҳамкорликдаги Олий даргохлар ташкил этилишининг самараси борасида айрим қиёсий мулохазалар билдирилган.

Калит сўзлар: Олий Таьлим Муассасалари, иқтисодий ўсиш, қўшма ҳамкорлик, Ялпи Ички Маҳсулот, филиал, Меморандум

Аннотация. Эта статья посвящена отношениям между высшим образованием в Узбекистане и Южной Корее и подчеркивает важность этого союза в экономическом развитии нашей страны. Кроме того, высшие учебные заведения были сравнительно изучены в этих двух странах, и были сделаны некоторые сравнительные замечания по поводу эффективности совместного высшего образования как фактора, способствующего экономическому росту.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, экономический рост, сотрудничество, валовой внутренний продукт, отрасль, меморандум,

Abstract. This article focuses on the relationship between Higher Education in Uzbekistan and South Korea and highlights the importance of this union in the economic development of our country. In addition, the institutions of higher education have been comparatively studied in these two countries, and some comparative comments have been made on the effectiveness of joint higher education as a contributing factor to economic growth.

Keywords: Higher Education Institutions, Economic Growth, Collaboration, Gross Domestic Product, Branch, Memorandum,

Сўнгги йилларда юртимизда рўй бераётган ижтимоий ва иқтисодий ўзгаришлар, аниқроғи ривожланишлар Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг бевосита амалга ошираётган саьй-ҳаракатлари натижаси экани барчага маьлум. Жумладан таьлим тизимидаги бир қатор ислоҳотлар, хусусан Олий Таьлим тизимида рўй бераётган кескин бурилишлар кўпчилик фуқароларнинг, айниқса ёшларнинг узоқ йиллик орзуларини рўёбга чиқишига сабаб бўлмоқда. Президентимизнинг бир қатор хорижий олий таьлим муассасалари билан мустаҳкам ҳамкорликни йўлга қўяётгани ҳамда юртимизда уларнинг филиаллари очилишига имконият яратилаётгани бунга яққол мисол бўла олади.Маьлумки, бундан 10-15 йиллар аввал чет элга бориб бакалавр ёки магистратура босқичида таьлим олиш ёки хорижий Олий Таьлим муассасаси филиалида таьлим олиш унчалик ҳам осон эмас эди. Бугунги кунга келиб бундай имконият мавжуд эканлиги Ўзбекистон республикаси фуқароларининг янда сифатли таьлим олиши ва ўз навбатида янада малакали мутахассисларнинг кўпайишига сабаб бўлмоқда.

Бунинг учун дунёнинг бир қатор ривожланган давлатлари билан ҳамкорликнинг кундан кунга мустаҳкамланиб бориши барчани бирдек қувонтиради, албатта. Айнан шундай ҳамкор давлатлардан бири Жанубий Корея бўлиб, давлатларимиз ўртасидаги бу борадаги дастлабки муҳим муносабатлар Президентимизнинг 2017-йил 22-24-ноябр кунлари ушбу давлатга ташрифлари пайтида амалга оширилди. Икки давлат ўртасида бизнес форум борасида уюштирилган ушбу ташриф пайтида Тошкент шахрида Ёжу Техника Университети филиали очилиши борасида Меморандум имзоланди. Имзоланган Меморандумга, асосан, 2018 йил 24 июлда Тошкент шаҳридаги Ёжу техника институти Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таьлим сифатини назорат қилиш давлат инспексияси томонидан тақдим этилган давлат литсензиясига кўра, Ўзбекистон Республикасидаги олий таьлим хизматларини кўрсатувчи муассаса мақомига эга бўлди.

Пойтахтимиздаги Ёжу техника институти Ўзбекистондаги биринчи хусусий ОТМ сифатида 2018-2019 о‘қув йили ўз фаолиятини бошлади. Таьлим муассасасида талабаларга архитектура ва шаҳарсозлик, қурилиш, муқобил энергия, бизнесни бошқариш, туризм каби йўналишларда таьлим берилади. Тошкент шаҳридаги Ёжу техника институти умумий ўрта таьлим муассасаси, касб-ҳунар коллеж, академик литсей ўқувчиларини таьлим муассасасига кириш учун тайёрлов курсларини ташкил этган. Тайёрлов курсида абитуриентлар инглиз тили, математика, физика каби қатор фанлар бўйича ўқитилади.(1)


2019-2020 ўқув йилидан эса яна икки нафар Корея Университетлари Тошкент шахрида (Аджу ва Пучон Университетлари), Ангренда Кукмин Университети, Фаргонада Корея Халқаро Университети (КИУФ) ўз фаолиятини бошлаши, дастлабки мавжуд бўлган Ин Ҳа Университети филиали билан биргаликда жами филиаллар сонини 6тага етказди. Бундан кўриниб турибдики,

талабалар жахон стандардларига мос кадрлар бўлиб етишишлари учун тулиқ имконият юртимизда мавжуд. Ўз навбатида таъкидлаш жоизки, ана шундай етук мутахассисларга эга бўлган юртда фақат олдинга силжишга ишониш мумкин.

Ҳамкорликнинг кейинг босқичлари 2019-йил 18-апрелда Корея президенти Мун Жае-Иннинг Ўзбекистонга ташрифи доирасида имзоланган Меморандум билан давом эттирилди. Ўзбекистон Республикаси Инноватсион ривожланиш вазирлиги ва Корея Республикасининг Кичик ва ўрта бизнес ва стартаплар вазирлиги ўртасида англашув меморандуми имзоланди. Ушбу учрашув Ўзбекистон Республикаси Инноватсион ривожланиш вазирлигида ташкилланган бўлиб, Жанубий Кореянинг кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш вазирлиги делегатсияси иштирокида бўлиб ўтди.

Учрашувда икки томонлама ҳамкорликни ўрнатиш ва чуқурлаштиришнинг қатор истиқболли ёъналишлари муҳокама қилинди. Хусусан, томонлар Ўзбекистоннинг 2030 йилга қадар глобал инноватсион индекс рейтингига биноан илғор Корея тажрибасига асосланган стартап экотизимини ишлаб чиқиш орқали дунёнинг 50 та етакчи давлатига қўшилиш режасини муҳокама қилдилар. Ўз ўрнида таъкидлаш жоизки, Корея Республикаси глобал инноватсион индекс рейтингида Япония, Италия ва Финляндия каби давлатлардан сўнг, 12-ўринда туради. Шуни таъкидлаш керакки, Блоомберг Инноватион Индех номли Халқаро рўйхатда Корея Республикаси илмий-тадқиқот ишлари, олий маълумот ва патент фаолияти даражаси бўйича етакчи ҳисобланади.Бу эса ушбу давлатнинг мамлакатимизга келгуси 10йиллик йўл харитасини тузишда йўлчи юлдуз бўла олишини тўлақонли кафолатлайди.

Ўзаро англашув меморандумига кўра бир қатор бошқа соҳалар билан биргаликда фан ва таьлимни ривожлантириш борасида ҳамкорликни йўлга қўйиш баробарида бандлар имзоланди. Қўшимча қилиш мумкинки, Кореянинг 20дан ортиқ Олийгоҳларининг дунёнинг энг яхши 1000та Олий Таьлим Муассасалари рўйхатидан ўрин олганлиги бу каби Меморандумлар Олий таьлимни самарали ривожлантиришга ишончли далил ҳисобланади. Ўз навбатида, икки давлатда мавжуд бўлган ОТМлар сони ажабланарли даражада фарқли экани номутаносубликни келтириб чиқарсада, ҳар иккала мамлакатда ҳам бу сон йилда йилга ўсиб бораётгани умумийликни намоён этади.



Корея Республикаси Олий Таьлим Муассасалари миқдори (stat.com)

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, сўнгги 10йил кесимида Кореядаги Университетлар сони 199тадан 203тага етган бўлса, Институтлар миқдори 146тадан 127тага камайган. Умумий кўрсаткич бугунги кунда жами 330та Олий таьлим муассасасалари фаолият юритаётганини исботлайди. Бу кўрсаткич эса Ўзбекистонда бугунги кунда жами 145тага етган бўлиб, ҳануз бизда Олийгоҳлар миқдори камлигини кўрсатмоқда. Ота-оналарнинг фарзандларининг яхшироқ ўқишларига интилиши туфайли Кореянинг таълим сектори жуда кенгайди. Миқдорнинг

кенгайиши мамлакатда саводсизлик даражасини пасайтирди ва таълим ютуқларининг умумий даражасини оширди. Шундай қилиб, таълим миллатни демократлаштиришга, шунингдек, ишчи кучининг сифатини оширишга бевосита ёрдам берди. Бунинг муҳим жихати шундаки, қайси мамлакатда юқори маьлумотли фуқаролар миқдори кўп бўлар экан, оша ерда ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий ўсиш кузатилади. Чунки давлат ривожланиши учун биргина ҳукумат аьзолари эмас балки хусусий секторнинг ҳаракати муҳимроқ эканини бугунги кун иқтисодиётининг мутлақ талабидир. Зеро, ривожланган давлатлар иқтисодиётига, аниқроғи Ялпи Ички Маҳсулот (ЯИМ) га назар соладиган бўлсак, ушбу мамлакатларда иқтисодиётнинг ривожида хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши саноат ёки қишлоқ хўжалиги соҳасидан устун туриши бу давлатларда қўл меҳнатидан кўра, ақлий меҳнат нақадар самарали натижа бераётганига яна бир бор амин бўлиш мумкин. Жумладан, Кореяда ҳам айнан хизмат кўрсатиш соҳасидан келадиган даромад мамлакат ЯИМнинг 55,6% ини ташкил этиши Олий маьлумотли инсонларнинг жамиятга ва иқтисодиётга келтираётган фойдасининг яққол исботидир.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, бугунги кунда амалга оширилаётган барча жабҳалардаги ҳамкорликлар Республикамизни нафақат дунёга танитиш, балки юртимизда ҳар томонлама о’сиш, халқ учун керакли шароитни яратиш ва сифатли ҳаёт кечиришни таьминлашдан иборатдир. Дунёнинг 10дан ортиқ давлатлари билан ҳамкорликда ташкил этилган 25 нафар нуфузли Олийгохларнинг филиалларининг (уз.wикипедиа.орг) юртимиздаги фаолияти яқин йилларда ўз мевасини беради. Бу миқдорнинг йилдан йилга ошиб бориши эса кишини қувонтиради. Зеро,Ўзбекистон фуқароларининг жахон стандардларига мос сифатли таьлим олиши, юртимизда нафақат иқтисодий ривожланиш орқали тўкин ҳаёт ташкил этиш, балки шу мамлакат одамларининг маьнавий ва ижтимоий жихатдан ривожланишига ҳам катта ҳисса қўшиши шубхасиз. Бу борада фақатгина Жанубий Корея билан эмас, бошқа давлатлар билан ҳам (Россия, Ҳиндистон, Италия, АҚШ. Туркия, Белоруссия ва ҳоказо) мунтазам ҳамкорликнинг олиб борилаётгани, юртимизда Олий маьлумотлилар сафини кенгайтиришга нақадар юқори аҳамият берилаётгани ва бу орқали иқтисодиёт ривожи учун қанчалик муҳим қадамлар ташланаётганини ҳис этиш мумкин

Фойдаланилган адабиётлар

1. http://uza.uz/uz/society/o-zbekiston-koreya-ta-lim-sohasidagi-hamkorlik-toshkentdagi--28-01-2019

2.https://www.google.com/search?q=higher+educational+institutions+in+south+korea&oq=higher+educational+institutions+in+south+korea&aqs=chrome..69i57j69i60.16024j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8

3. http://www.uzdaily.uz/en/post/49265

4.https://www.statista.com/statistics/648374/south-korea-higher-educational-institutions-number/

AN’ANAVIY BO‘LMAGAN DARSLAR ORQALI TALABALARNING KOGNITIV TASHABBUSLARINI RIVOJLANTIRISH

I.J.Toshmanov

Shahrisabz davlar pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ma`lumki, an'anaviy bo‘lmagan darslar talabalarning kognitiv motiflari, tashabbuslari va manfaatlarini rivojlantiradi. O‘rganish qobiliyatini shakllantiradi. Noan'anaviy darslarga tayyorgarlik darajasi kam baholanmaydi. Noan'anaviy bo‘lmagan darsda ana`naviy darsga qaraganda puxta tayyorgarlik ko‘rish kerak. Noan'anaviy darslar shakllarini tanlashda o‘qituvchi o‘zining fe'l-atvor va temperamentining xususiyatlarini, umuman va umuman individual talabalar sifatida, tayyorgarlik va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Maqolada ham nostandart dars metodlari tadqiqotning birlamchi vazifasi sifatida tadqiq qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Nostandart dars, metod, talaba, shakl, an`anaviy dars, pedagogic faoliyat.

Kirish.

An`anaviy bo‘lmagan dars - noan'anaviy (noma’lum) tuzilishga ega bo‘lgan improvizatsiya qilingan o‘quv mashg‘ulotlaridir. Pedagogik adabiyotlarning tahlili bir necha o‘nlab turdagi nostandart darslarni ajratish imkonini berdi, ammo ular bitta maqsadga birlashtirilgan - asosiy qonunning bajarilishiga olib keladigan yangi usullar, shakllar, texnikalar va o‘qitish vositalarini ishlab chiqishdan iborat bo`ldi. Pedagogika - o‘quv faoliyati to‘g‘risidagi qonun. Ularning ismlari konsultatsiya darsi yoki o‘quv mashg‘ulotlari kabi tadbirlarni o‘tkazish maqsadlari, vazifalari, maqsadlari, bunday faoliyatlarni o‘tkazish g‘oyalarini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, o‘qituvchilarning noan'anaviy bo‘lmagan darslardan foydalanish haqida “ba'zi darslar o‘qituvchining chekinishi bilan o‘qituvchining iste'foga chiqishi va darsda ishlashni istamagan talabalarning ta'siri ostida bo‘lgan pedagogik tamoyillarning buzilishi bilan bog‘liq” deb hisoblashadi, boshqalari esa pedagogik fikrlashning rivojlanishini, maktabni demokratlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha to‘g‘ri qadam sifatida nostandart darsni ko‘rishadi. Ko‘pincha talabalar ijobiy nuqtai nazardan noan'anaviy darslarni idrok etishmoqda, aksariyat qiziqish o‘quv jarayoniga kiritilgan va darslarda faol ish olib boradi. An'anaviy bo‘lmagan darsning asosiy vazifalari umumiy madaniy rivojlanish shaxsiy rivojlanishiga ega bo`lishdan iborat. Talabalarning kognitiv motiflari, tashabbuslari va manfaatlarini rivojlantirish lozim. O‘rganish qobiliyatini shakllantirish, kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdan iborat. Nostandart darslarning ijodiy qidiruv printsiplari qo`yidagilardan iborat: - o‘quv sinfining maksimal ishtiroki ta`minlanadi; - o‘yin-kulgi emas, balki hayajonli va ishtiyoq, hissiy ohang darsining asosi sifatida - ko‘plab fikrlarning muqobilligini qo‘llab-quvvatlanadi. Muvaffaqiyatsiz darsni tayyorlayotganda, nostandart darslar talabalarning bilim, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini umumlashtirish va mustahkamlashda ishlatilishi kerakligini yodda tutish kerak. O‘quv jarayonini tashkil etishning bunday shakllariga juda tez-tez murojaat qilinavermaydi. Chunki bu o‘quv mavzusi va jismoniy mashqlar jarayoniga barqaror qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi. Noan'anaviy darslarga tayyorgarlik darajasini kam baholashning hojati yo‘q, qoida tariqasida noan'anaviy bo‘lmagan darsdan puxta tayyorgarlik ko‘rish kerak. Noan'anaviy darslar shakllarini tanlashda o‘qituvchi o‘zining fe'l-atvor va temperamentining xususiyatlarini, umuman, individual talabalar sifatida, tayyorgarlik va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Nostandart darslarni amalga oshirishda uch vaqt ajratilmoqda: tayyorgarlik, asl saboq va uni tahlil qilishdir.

Tayyorgarlik. Ushbu davrda o‘qituvchi va talabalar faol ishtirok etadi. An'anaviy darsni tayyorlashda faqat o‘qituvchi faol pozitsiyani egallaydi, chunki u reja tuzadi - xulosa, vizual imtiyozlar, tarqatma materiallar ishlab chiqaradi. Noan`anaviy darsni tayyorlayotganda, talabalar guruhlarga bo‘linadilar, ilg‘or vazifalarni olishadi: aloqani tayyorlash, muammolarni tuzish, o‘zaro bog‘liqlik, krossvordlar, viktorinalar tuzish, didaktik ishlab chiqarishdir.

Jonli dars. Darsning o‘zi uch bosqichga bo‘linadi. Birinchi qadam. Bu talabalarning motivatsiyaviy doirasini shakllantirish va rivojlantirish uchun zaruriy shartdir, ularda darsning maqsadlariga erishish yo‘llarini topish, ularni hal qilishga tayyorlik darajasi ta'kidlanadi. Ma'lumotlar mavjud, unda kognitiv, rivojlanayotgan va o‘quv topshiriqlarini hal qiladi. Ishlab chiqaruvchi davrga nisbatan samaraliroq sohani rivojlantirish quyidagilar amalga oshirildi: dastlabki topshiriqlarning bajarilishi ularning bo‘lajak ishlarga bo‘lgan qiziqishga ta'sir qiladi. Darsni o‘tkazishda o‘qituvchi talabalarning saboqning asl shakliga bo‘lgan munosabatini inobatga oladi; Tayyorlik darajasi; Yoshi va psixologik xususiyatlar. Ikkinchi bosqich. Yangi materialning xabari, talabalarning turli "noyob bo‘lmagan" ularning aqliy faoliyatini tashkil etishning turli shakllari bo‘yicha bilimlarini shakllantirishdir. Uchinchi bosqich. Bu ko‘nikma va ko‘nikmalarni

shakllantirishga bag‘ishlangan. Talabalarning ishi yangi muammolarni hal qilish ilgari o‘rganilgan bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish uchun ijodiy qidiruv tizimlari orqali amalga oshiriladi. Talabalarni bir-biri bilan, shuningdek individual ishlaydigan guruhlar bilan aloqa qilishdir.

Mulohaza va takliflar. Dars mashg‘ulotning moslashuvchan shakli u turli xil tarkibni o‘z ichiga oladi, bunda zaruriy usullar va o‘qitish usullari qo‘llaniladi.
An'anaviy darslar: yangi materiallarni o‘rganish, bilim, ko‘nikmalar va ko‘nikmalarni birlashtirish, olingan bilimlar, ko‘nikmalar va bilimlarni birlashtirish, o‘rganishni, mavzuni yoki bo‘limni takrorlashdan iborat. An'anaviy bo‘lmagan dars - "noan'anaviy tuzilishga ega bo‘lgan tajribali ta'lim kasbidir". An'anaviy bo‘lmagan o‘quv shakllari quyidagilarni taklif qiladi:

• Kollektiv ish shakllaridan foydalanish;
• mavzuga qiziqishni boshlash;
• Mustaqil mehnat ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini ishlab chiqish;
• talabalarning faoliyatini faollashtirish;
• Darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda, talabalar qiziqarli materiallarni qidiradi;
O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi yangi aloqalarni shakllantirish. Nostandart darslarning eng keng tarqalgan turlari qo`yidagicha:

- Darslar - Ishbilarmon o‘yinlar
- Darslar - matbuot anjumani
- Darslar – raqobat
- KVN darslari
- Teatr darslari
- Kompyuter darslari
- Ishning guruh shakllari bilan darslar
- O‘zaro o‘rganishni o‘rganing
- Ijodona darslar
- Foydali kim oshdi savdolari
- Talabalarni olib boradigan darslar
- Darslar sinovi
- Qarorlar – Shubha
- Darslar - ijodiy hisoblar
- Ishchi formulalar
- Darslar – tanlovlar
- Ikkilik darslar
- Foydali darslar
- Dars
- Dars o‘yinlari

- Darslar - "Sudlar"
- Haqiqatni qidirish darslari
- Leggings "Paradokslar"
- Darslar kontsertlari
- Darslar – dialoglar
- Hukumatlararo darslar
- Darslar - "Mo‘jizalar"
- Noan'anaviy darslarning tasnifi
- Darslar va shakllar turlari Birlashtirilgan darslar: Liksiyalar, darslar ekspeditsiyasi, sayohat darslari, darslar, o‘qitish, konferentsiyalar, integratsiyalashgan seminarlar, dialganlar, gializatsiya, o‘yinlar, o‘yinlar: kVn, "Nima ? Qayerda? Qachon? "Mo‘jizalar maydoni", "Baxtli hodisa", teatr, tanlov darslari, darsliklar, ijodiy darslar, ijodiy ijodiy ma'ruzalar, loyihalar, ijodiy hisobotlar va hakozo. An'anaviy shaklda dars tayyorlash uchun tavsiyalar:
- Tayyorgarlik bosqichida va dars davomida iloji boricha ko‘proq motivatsion omillardan foydalash. •

Hech qanday ortiqcha narsalarga yo‘l qo‘yilmaydi.

- Dars qat'iy bo‘lishi kerak.
- Talabalarni darsga qo‘shgan hissasi bo‘yicha rag‘batlantirish.
- Dars davomida sinf bilan o‘zaro tushunishni saqlashga harakat qilish lozim.

Xulosa. Noan`anaviy dars turlari dars samaradorligini oshiradi va akademik ishlarga barqaror qiziqish uyg‘otish va dasturiy ta'minot materiallarining eng yaxshi yutug‘ini saqlashga yordam beradi. Zamonaviy darsning eng muhim xususiyatlari: - do‘stona atmosfera yaratiladi; - yuqori darajadagi motivatsiya shakllantiriladi; - akademik ish usullari uchun katta ahamiyatga ega; - talabalarning mustaqil kognitiv faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy bo‘lmagan darslar eng yaxshi yakunlanadi. Darsning muvaffaqiyatli mashg‘ulotlari uchun o‘qituvchi ishning mavzusida va metodologiyasini bilishi va ishiga yaqinlashishi kerak. Ishga qiziqish darsning g‘ayrioddiy shakli olib tashlanadi, deb o‘yladi deb o‘ylagan. Darsning noan'anaviy shakllari ularning ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, bilimlarning rolini baholash va ularning amaliyotda qo‘llash, turli xil fanlar munosabatlarini his qilish uchun imkoniyatdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Xo‘jaev N., Xoshimova M., Hakimova M. va boshqalar. Pedagogika. (darslik) – T.: TDIU, 2007.
2. Nishonaliev U. Tursunov I. «Pedagogika kursi» darslik. T. «O‘qituvchi» 2003. – 231 b.
3. Pedagogika. V. A. Slastenin, I. F. Isaev, A. I. Miщenko, E.N.SHiyanov. Moskva. «SHkolьnaya pressa». 2004.
4. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. T.: ―Moliya‖, 2008.
5. Miloradova N.G. Psixologiya i pedagogika: Uchebnik. – M.: Gardariki, 2006. – 335 s.
6. Ismailova. K. Z, Musayev R. S ―Pedagogika.Psixologiya‖fanidan metodik ko‘rsatma
7. A. A. Abduqodirov «Pedagogika» va «Psixologiya» fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti

8. Pedagogika. V. A. Slastenin, I. F. Isaev, A.I.Miщenko, E.N.SHiyanov. Moskva. «SHkolnaya pressa». 2004.

9. Kozireva, O. A. Pedagogik faoliyatga kirish: pedagog koziklari talabalari uchun qo‘llanma / O. O. Kozireva. - 2-chi. Qo‘shimcha. va qayta terib yuborilgan. - Novokuznetsk: Kuzgpa: Mou DPO IPK, 2011 yil 211 p. Sudeva, N. N. An'anaviy bo‘lmagan pedagogik texnologiyalar. O‘qituvchilar / N. Sratev - M.- Omsk, 1974. - 415 s.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Ш.Ғуломов
исследователь Наманганского государственного университета

Абстракт. В эпоху цифровых технологий интеграция технологий в различные аспекты жизни стала неизбежной, существенно влияя на духовно-нравственное развитие молодежи. В данной статье исследуется роль цифровых технологий в формировании позитивного духовно-нравственного мировоззрения среди молодежи. В нем рассматривается, как различные цифровые платформы, образовательные инструменты и социальные сети способствуют нравственному воспитанию и духовному росту молодых людей. Кроме того, в нем обсуждаются потенциальные проблемы и решения для эффективного использования цифровых технологий для повышения морального и духовного благополучия молодого поколения.

Ключевые слова: Цифровые технологии, Духовное мировоззрение, Доступность, Виртуальная реальность, Социальные сети, Цифровой дискурс.

Abstract. In the digital age, the integration of technology into various aspects of life has become inevitable, significantly influencing the spiritual and moral development of young people. This article examines the role of digital technologies in the formation of a positive spiritual and moral worldview among young people. It examines how various digital platforms, educational tools and social media support the moral education and spiritual growth of young people. It also discusses potential challenges and solutions for the effective use of digital technologies to enhance the moral and spiritual well-being of the younger generation.

Key words: Digital technologies, Spiritual worldview, Accessibility, Virtual reality, Social networks, Digital discourse.

Annotatsiya. Raqamli asrda texnologiyaning hayotning turli jabhalariga integratsiyalashuvi muqarrar bo‘lib, yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning yoshlarda ijobiy ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Unda turli raqamli platformalar, ta’lim vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning axloqiy tarbiyasi va ma’naviy yuksalishiga qanday yordam berishini o‘rganadi. Shuningdek, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy farovonligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va yechimlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, Ma'naviy dunyoqarash, Foydalanish imkoniyati, Virtual haqiqat, Ijtimoiy tarmoqlar, Raqamli nutq.

Введение. XXI век стал свидетелем беспрецедентного прогресса в области цифровых технологий, меняющих все аспекты человеческой жизни, включая общение, образование и личностное развитие. Для молодых людей, которые находятся в авангарде цифровой революции, эти технологии стали неотъемлемой частью их повседневной жизни и формирования идентичности. Несмотря на бесчисленное влияние цифровых медиа, их роль в формировании духовного и нравственного мировоззрения молодежи глубока и многогранна.

Цифровые технологии открывают огромные возможности для нравственного воспитания и духовного роста благодаря доступной информации, интерактивному обучению и глобальным связям. Онлайн-платформы предоставляют ресурсы для этического образования, а социальные сети позволяют создавать сообщества, способствующие духовным дискуссиям и моральной поддержке.

Эти технологии могут помочь устранить пробелы в традиционных системах образования, предлагая разнообразные точки зрения и ресурсы, которые в противном случае могли бы быть недоступны.

Однако цифровой ландшафт не лишен проблем. Распространение дезинформации, воздействие негативного контента и риск цифровой зависимости создают серьезные угрозы моральному и духовному благополучию молодежи. Поэтому крайне важно понимать, как цифровые технологии можно эффективно использовать для содействия позитивному духовному и нравственному развитию, одновременно снижая потенциальные риски.

В данной статье исследуется двойственная роль цифровых технологий в формировании духовно-нравственного мировоззрения молодежи. В нем рассматривается, как образовательные платформы, геймификация и социальные сети могут быть использованы для улучшения нравственного воспитания и духовного роста. Кроме того, в нем рассматриваются проблемы, связанные с цифровыми технологиями, и предлагаются стратегии создания сбалансированной и конструктивной цифровой среды для молодых людей. Целью данной статьи является всесторонний анализ, позволяющий дать представление о потенциале цифровых технологий положительно влиять на моральное и духовное развитие молодого поколения.

Цифровые технологии и нравственное воспитание

Образовательные платформы

Цифровые образовательные платформы произвели революцию в способах доступа молодых людей к знаниям и моральному воспитанию. Онлайн-курсы, образовательные приложения и виртуальные классы предоставляют интерактивный и увлекательный контент, который может привить моральные ценности и этические принципы. Например, такие платформы, как Академия Хана, Coursera и edX, предлагают курсы по этике, философии и религиоведению, позволяя молодым людям исследовать и развивать свой моральный компас.

Геймификация уроков морали

Геймификация в образовании использует мотивационные аспекты игр для преподавания уроков морали. Развивающие игры, призванные обучать этике и принятию моральных решений, могут существенно повлиять на духовно-нравственное мировоззрение молодежи. Игры, включающие ролевые сценарии, в которых игроки должны принимать этические решения, могут дать практический опыт моральных рассуждений и сочувствия.

Социальные сети и духовный рост

Интернет-сообщества и форумы

Платформы социальных сетей и онлайн-форумы могут служить пространством для духовного и нравственного роста. Сообщества на таких платформах, как Facebook, Reddit и Instagram, предлагают поддержку и рекомендации молодым людям, исследующим свою духовность и моральные ценности. Эти сообщества могут обеспечить чувство принадлежности и платформу для обмена опытом, вопросами и идеями, связанными с духовным и нравственным развитием.

Влиятельные люди и образцы для подражания

Влиятельные лица и лидеры мнений в социальных сетях могут сыграть решающую роль в формировании духовного и морального мировоззрения молодых людей. Позитивные образцы для подражания, которые способствуют этичному поведению, состраданию и духовному росту, могут вдохновить молодых последователей принять аналогичные ценности. Тем не менее, важно различать подлинных и позитивных влиятельных лиц и следить за ними, чтобы избежать риска воздействия негативного или поверхностного контента.

Проблемы и решения

Дезинформация и негативный контент

Одной из серьезных проблем в цифровой сфере является распространенность дезинформации и негативного контента, которые могут ввести молодых людей в заблуждение. Чтобы смягчить это явление, крайне важно продвигать цифровую грамотность, поощряя молодых людей критически оценивать информацию, с которой они сталкиваются в Интернете. Образовательные учреждения и родители должны научить молодых людей определять достоверные источники и различать позитивный и негативный контент.

Цифровая зависимость и баланс

Чрезмерное использование цифровых технологий может привести к цифровой зависимости, влияющей на общее благополучие молодых людей. Крайне важно продвигать сбалансированный подход к использованию технологий, поощряя деятельность, способствующую личному взаимодействию, физическому здоровью и духовным практикам в автономном режиме. Программы осознанности и цифровой детоксикации могут помочь молодым людям найти здоровый баланс между онлайн- и офлайн-жизнью.

Заключение

Цифровые технологии обладают значительным потенциалом в повышении духовно-нравственного мировоззрения молодежи. Используя образовательные платформы, геймификацию, онлайн-сообщества и позитивных влиятельных лиц, мы можем воспитать поколение морально устоявшихся и духовно сознательных людей. Однако крайне важно решать проблемы, связанные с дезинформацией и цифровой зависимостью, посредством образования и сбалансированного использования технологий. При внимательном руководстве и ответственном использовании цифровые технологии могут стать мощным инструментом повышения духовного и нравственного развития молодежи.

Литературы

1. Anderson, M., & Jiang, J. (2018). Teens, Social Media & Technology 2018. Pew Research Center. Retrieved from https://www.pewresearch.org/internet/2018/05/31/teens-social-media-technology-2018/
2. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.
3. Livingstone, S., & Sefton-Green, J. (2016). The Class: Living and Learning in the Digital Age. NYU Press.
4. Prensky, M. (2001). Digital Game-Based Learning. McGraw-Hill.

PEDAGOGIKA JARAYONLARDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING EKSPERIMENTAL ASOSLARI

Mutalov Saidakbar Xamidullo o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Oliy ta’lim sharoitida talabaning liderlik qobiliyatini rivojlantirish, psixologik-pedagogik va ijtimoiy rakursdan o‘ziga xosliklarini o‘rganish, bu hodisani talabaning xatti-harakatida namoyon bo‘lishi va mustahkamlanishini diagnostik tahlillarsiz, mavzu doirasidagi tadqiqotda ko‘zlangan maqsadga erishish mushkul. Talabaning layoqat darajasi, uning shaxsi va xatti-harakatidagi rivojlanishga bo‘lgan moyillik istiqbolli lider tayyorlashning muhim omili sanaladi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, metodik chora-tadbirlarni takomillashtirishga zamin yaratadi. Ayniqsa, bu boradagi tadqiqotlarga oid eksperiment va uning samaradorlik darajasini tahlil qilish orqali yangi metodik ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ahamiyatli. Chunki, eksperiment tadqiqotning eng murakkab turi, ko‘p vaqt talab qiladigan, lekin ayni paytda kognitiv nuqtai nazardan eng aniq va foydalisidir. Psixolog-pedagog olimlar P.Fress va J.Piajelarning ta’rifiga ko‘ra, eksperimental usul o‘ziga xos mantiq va texnik talablarga ega bo‘lgan aqliy yondashuv shaklidir[0; 260-b].

Talabalarda liderlik qobiliyatini aniqlashga oid eksperimental ishlarni tashkil etish va aniqlash jarayoni quyidagi 4 yo‘nalishdagi vazifalarning ijrosiga tayanildi:

1. Oliy o‘quv yurtidagi talabalari va rahbariyat, professor-o‘qituvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasi va ijtimoiy faollik muhitini aniqlash;
2. Talabalarning liderlik, faollik va tashabbuskorlik darajasini aniqlash;
3. Talaba shaxsining liderlik kategoriyalari, qobiliyatlarning shakllanish jarayoni va oliy ta’lim muassasasi muhitida rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash;
4. Talabalarning yoshlar tashkiloti va shu yo‘nalishdagi ijtimoiy tuzilmalar faoliyatiga daxldorlik darajasini aniqlashdan iborat.

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik eksperiment doirasida B.Bassning ko‘p faktorli so‘rovnomasiga tayangan holda shaxsdagi liderlik darajasini aniqlash va baholash bo‘yicha so‘rovnoma ishlab chiqildi (1-ilova). Soha tadqiqotchilari V.Spivakning “Lider metodikasi” testi ham so‘rovnomada o‘z aksini topgan. Mazkur olimlarning metodik ishlanmalarini bugungi oliy ta’lim sharoiti va talabalarning hududiy xususiyatidan kelib chiqib modifikatsiya qilindi. Bu bosqichida talabaning umumiy liderlik qiyofasini aniqlashning birlamchi harakati ko‘zga tashlanadi. Farqli jihati, respondentning umumiy psixologik portretigagina emas, balki uning layoqat darajasi, kognitiv imkoniyati, refleksiv bilimi, xulq-atvori, liderlik qobiliyati uchun zarur bo‘lgan samarali ta’lim-tarbiya sharoiti, ijodiy, ijtimoiy-madaniy muhit, shaxslararo munosabatlar holati, mavjud motivlarining shaxsiy rivojlanish tendensiyalariga mosligi, undagi milliy va lokal xususiyatlar e’tiborga olinadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 4 blokli so‘rovnoma talabalarning liderlik qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirishga ko‘mak beradi.

Izlanishlar doirasida eksperiment dasturi tuziladi, uning ijtimoiy-pedagogik bazasi o‘rganiladi, tajriba-sinov o‘tkazish mazmuni, texnologiyasi va metodologiyasi aniqlanadi va samaradorligi kuzatiladi. Eksperimental ishlar o‘z oldiga talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish, mazkur yo‘nalishdagi muhim jihatlar, kamchiliklar va ularning sabablarini o‘rganish, shu asosda zarur ilmiy-uslubiy tavsiyalar va istiqbolli takliflarni ishlab chiqish maqsadini qo‘yadi [0; 2-b].

Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan tashkil etilgan eksperimental faoliyatni quyidagi tamoyillarning ustuvorligida amalga oshirishga e’tibor qaratish muhim :

talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik zarurat ekaniligi;

tajriba-sinov ishlarining aniq maqsadga yo‘naltirilganligi va bosqichlararo zarur vazifalarni to‘g‘ri belgilanganligi;

talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga oid pedagogik faoliyat va tajriba-sinov ishining izchil, uzviy, tizimli va maqsadga monand tashkil etilganligi.

muammoning nazariy asoslari bilan amaliy ishlanmalar orasida o‘zaro aloqadorlikning mavjudligi;

oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor masalalari va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi.

respondentlar o‘zlarining potensial imkoniyatlarini erkin yuzaga chiqara olishga erishilganligi;

tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadga erishish uchun qulay pedagogik vaziyatning vujudga keltirilganligi kabilardan iborat.

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish o‘ziga xos pedagogik sa’y-harakat va sabr-toqat talab etadi. Har bir talabada liderlikni rivojlantirishning ushbu qobiliyatga taalluqli bo‘lgan zaruriy sifatlar mavjud va ular quyidagi mezonlar asosida aniqlashtirilishi mumkin.

Pedagogik eksperiment oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy-psixologik jarayonlarni ijobiy baholash va ongli munosabatda bo‘lish, talabalarda bilimdonlik, faollik, kommunikativlik, o‘ziga ishonch, mustaqillik, notiqlik, hissiy barqarorlik, dominantlik, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, tashabbuskorlik, jamoatchilik, jamoaviy ishlash, natijadorlik kabi kompetensiyalari oshganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash tuzilmalari, xususan, yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti faoliyatini takomillashtirish, ular bilan pedagogik hamkorlikni mustahkamlash va pedagogik shart-sharoitlarini to‘g‘ri shakllantirish liderlarning safini kengayishi va ilg‘or kadrlar zaxirasi yaralishiga xizmat qilishi tasdig‘ini topadi.

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda pedagogik uslublarni to‘g‘ri tanlay bilish, maqsadli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘llash samaradorligi yuqori bo‘lgan metodlardan ayrimlarining amaliy ahamiyati to‘g‘risi mulohazalarni keltiramiz:

1. Pedagogik kuzatuv metodi – talabalarda liderlik qobiliyati, uning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlarning shakllanish va rivojlanish darajasini kuzatish, talabalarning O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va shu yo‘nalishdagi ijtimoiy tuzilmalardagi faoliyatining samaradorligini tahlil qilish, jarayonga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash maqsadida foydalanildi. Mazkur metod asosida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar ko‘zdan kechirildi va takomillashtirishga oid chora-tadbirlari belgilandi.

2. So‘rovnoma o‘tkazish – muayyan o‘lchov vositasi sifatida tavsiflanadi, uning yordamida talabalarning hodisalar va mavjud pedagogik jarayonlar haqidagi individual fikrlari o‘rganiladi. Eksperimental ishlarda ochiq so‘rovnomalar asosida jalb etilgan talabalar va tyutorlardan masalaning yechimi uchun imkon qadar batafsilroq ma’lumotlarni olishga harakat qilindi.

3. Suhbat metodi – tadqiqot uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan metod sifatida, olib borilgan izlanishlarda talabalarning mustaqil, erkin fikri va o‘zaro muloqot asosida ma’lumotlarni jamlashga yordam beradi. Suhbatning muhim jihati shundaki, so‘rovnomaning to‘ldiruvchisi sifatida uning kamchiliklari va o‘z ifodasini topmagan savollarga javob bo‘la oladi. Chunki, so‘rovnomadagi savollarga respondentlar tomonidan berilgan biryoqlama, noxolis va sun’iy javoblar ishonchlilik darajasi past bo‘lishi va o‘z navbatida pedagogik asosini topmasligi sabab tadqiqot natijalarida aniqlik yo‘qolishi kuzatiladi.

4. Sotsiologik so‘rov o‘tkazish – respondentlar bilan anonim so‘rovlar o‘tkazish asosida ularning lider va liderlikka bo‘lgan motivlarini aniqlash, mavjud holat yuzasidan yakunda ularni xabardor qilish.

5. Interfaol metodlar – talabalarning potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, team-building (jamoa shakllantirish), team-work (jamoaviy ishlash), aqliy hujum, enerjayzer, dilemma, debat, quiz, rolli o‘yinlarga asoslangan trening mashg‘ulotlari va amaliy dublyorlik orqali talabalarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishildi. Interaktiv metodlar asosida tyutorlar va yoshlar tuzilmalari vakillarining talabalar bilan o‘zaro ijtimoiy-pedagogik hamkorligi yanada mustahkamlandi.

6. Hamkorlikdagi tahlil metodi – talabalarning O‘zbekiston yoshlar ittifoqining maqsadli tadbirlari, amaliy mashg‘ulot va trening dasturlaridagi ishtiroki, faol yoki nofaolligini monitoring qilish, lider talabaning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini tahlil qilish, jamoaviy ishlash asosida individual xatti-harakatlarni birgalikda rivojlantirish, yoshlar tashkilotlari bilan pedagogik hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratildi.

7. Film muhokamasi (movie club) – mavzuga oid filmlarni namoyish qilish orqali hayotiy vaziyatlarni faol muhokama qilish va motivatsion munosabat asosida liderlik imkoniyatlarini kengaytirishga diskussion sharoit yaratildi.

8. Matematik-statistik metodlar – tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov va uning samaradorligini aniqlash, pedagogik xulosalarni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot doirasidagi muammoni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va pedagogik tahlil qilish oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning liderlik qobiliyatining muhim komponentlarini ifoda etib, talabalarning bilimdonlik, ilg‘orlik, yetakchilik, faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, intizom, mustaqillik, qat’iyatlilik, o‘zini tuta bilish, ishontirish qobiliyati, notiqlik, emotsional jozibadorlik, tezkorlik, xarizma, o‘ziga ishonch, jamoaviy ishlash, kreativ va strategik fikrlash, maqsadni qo‘ya olish, dominantlik, uzoqni ko‘ra bilish (foresight), yumshoq mahoratlar (soft skills), ijtimoiy faollik, shaxslararo munosabatlarda natijadorlik va kommunikativ samaradorlikka erishish imkoniyatiga egaligini tasdiqladi.

Lider talaba-yoshlarni tarbiyalashdan asosiy maqsad, jamiyat, davlat va xalq manfaati uchun fidoyilik bilan xizmat qiluvchi kadrlar korpusi uchun zamin tayyorlash, jamiyat ravnaqiga xizmat qilishga qodir kadrlar siyosatini barqarorlashtirishdan iborat. Bu o‘z navbatida, talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha avvalo pedagogik shart-sharoitni modernizatsiya qilishni taqozo qiladi.

Shunday ekan, oliy o‘quv yurtlarida talabalarda liderga xos kompetensiyalarni muttasil ravishda rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-tarbiyaviy dasturlar va texnologiyalarni transformatsiya qilish, shuningdek ushbu yo‘nalishdagi zamonaviy axborot-metodik ta’minotni yaratish, pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlaydi.

ILOVALAR

OTMdagi talabalar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul tuzilmalar xodimlari va talabalar uchun majmuaviy so‘rovnoma

1-jadval

I BLOK	
Oliy ta’lim muassasasining rahbariyati, professor-o‘qituvchilarining talabalar bilan o‘zaro munosabatlar darajasi va ijtimoiy faollik muhitini aniqlash	
1	*Oliy ta’lim muassasasidagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifasi nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?*

	□talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish	□ oliy ta’lim muassasasi rahbariyatining yoshlarga oid topshiriqlarini ijro etish	□ talabalarning faolligini kuchaytirish, tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish
2	*Oliy ta’lim muassasasi tyutorlarining ta’lim-tarbiyadagi vazifasi nimalardan iborat deb hisoblaysiz?*		
	□ o‘ziga biriktirilgan akademik guruhlarga rahbarlik qilish, rektorat topshiriqlarini ijrosini ta’minlash	□ talabalarning shaxsiy rivojlanishi va lider sifatida namoyon bo‘lishiga sharoit yaratish	□ talabalarning davomati, dars mashg‘ulotlarida ishtiroki va tarbiyaviy jihatlarini nazorat qilish

3	*Siz yetakchi yoki tyutorsiz, agar talabalar sizning topshiriqlaringizni bajarmasa, qat’iy choralar ko‘rishga kirishasizmi yoki ular bilan til topishish (murosa)ni ma’qul ko‘rasizmi, xatti-harakatining sababini aniqlaysizmi?*			
	□ularni boshqara oladigan talaba orqali munosabatga kirishaman	□ jazolayman	□ ular bilan murosa qilishni ma’qul ko‘raman, vaziyat sababini aniqlayman	□ vaziyatga sovuqqonlik bilan munosabat bildiraman
4	*Talabalarni umummajburiy bo‘lmagan tadbirlarga ularning xohish istagisiz jalb qilasizmi?*			
	□ha	□ ha, chunki topshiriqni bajarish kerak	□ yo‘q, talabalarning bo‘sh vaqtini mustaqil boshqarishiga imkon beraman	□ yo‘q
5	*Talabalar bilan o‘zaro munosabatda hamkorlik tamoyillariga asoslanasizmi? Qiziqarli loyihalar, tadbirlarni tashkil etishda ularning xohish istaklari, g‘oyalari bilan hisoblashasizmi?*			
	□ha, albatta	□ ba’zan	□ yo‘q bu ularni izdan chiqaradi	□ yo‘q, aslo
6	*Talabalar bilan o‘zaro munosabatda qaysi pozitsiyada bo‘lish samarali natijani ta’minlaydi? Siz asosan qaysi pozitsiyani ma’qul ko‘rasiz?*			
	□avtoritar	□ demokratik	□ ayyorona	□ pozitsiyalar kombinatsiyasi
7	*Talabalarni boshqarishda ular bilan o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lish jamoa rahbarining boshqaruvdagi obro‘siga salbiy ta’sir etishi mumkinmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ yo‘q, aksincha jamoada do‘stlik muhiti shakllanadi	□ ha, o‘zaro hurmat yo‘qoladi
8	*Siz o‘zingizni talabaning do‘sti deya bilasizmi? O‘zaro samarali munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilasizmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ yo‘q, rahbar va xodim munosabatida bo‘laman	□ ha, vaziyatga qarab
9	*Talabalar shaxsiy muammolarining yechimi bo‘yicha yoki hayotiy maslahatlar olish uchun tez-tez murojaat qilib turishadimi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ ha, ba’zan o‘zim so‘raganimda	□ yo‘q, men bunga yo‘l qo‘ymayman

10 *Siz talabalar bilan ishlash va ularning faolligini oshirish borasida muassasaning qaysi tuzilmasi yoki xodimlari bilan qay darajada o‘zaro hamkorlik qilasiz?*
(iltimos, har bir javob shkalasidagi bitta darajani tanlang)

tuzilma nomi	tez-tez	ba’zan	umuman	javob berishim qiyin
yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan	□	□	□	□
tyutorlar bilan	□	□	□	□
xotin-qizlar qo‘mitasi bilan	□	□	□	□
yoshlar bilan ishlash bo‘limi bilan	□	□	□	□
OTM psixologi bilan	□	□	□	□
...	□	□	□	□

11	*Sizningcha, OTMda talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-ma’naviy muhit qay darajada va rahbariyatning talabalarni qo‘llab-quvvatlashini qanday baholaysiz?*

	□yaxshi, hammasi mas’ullar va talabalarning o‘ziga bog‘liq	□ a’lo darajada, rahbariyat doim qo‘llab-quvvatlaydi	□ qoniqarli, faqat reja asosidagina yoshlar bilan ishlab boriladi	□ yomon ahvolda, mas’ullar va talabalarning faoliyati e’tiborsiz
12	*OTMda talabalar bilan ishlash, ularning faolligini oshirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga mas’ul tuzilma yoki xodimlarning samarali faoliyat olib borishi yo‘lida to‘siqlar va muammolar mavjudmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ bilmayman	□ aytganim bilan o‘zgarish bo‘lmaydi
13	*Sizningcha lider kim? Qanday talabani lider hisoblaysiz? (iltimos, javobingizni yozma tarzda bering)*			
14	*Sizga vakolat berilsa talabalarni liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun OTMda qanday ishlarni amalga oshirgan bo‘lardingiz? (iltimos, javobingizni yozma tarzda bering)*			
15	*Oliy ta’lim muassasasida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish kerakmi? Shunday bo‘lsa bu vazifa kimga yuklatilishi lozim deb hisoblaysiz?*			
	□tyutorlarga	□ yoshlar yetakchilariga	□ yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari	□ ta’lim jarayoniga jalb etilgan barcha xodimlar

2-jadval

II BLOK				
Talabalarning faollik va tashabbuskorlik darajasini aniqlash				
1	*Siz o‘zingizni boshqalardan ko‘ra qobiliyatliroq deb hisoblaysizmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ har doim ham emas	□ javob berishga qiynalaman
2	*Bolaligingizda o‘z tengdoshlaringiz orasida peshqadam bo‘lishga intilganmisiz?*			
	□ha	□ yo‘q	□ ba’zan	□ eslay olmayman
3	*Qat’iyatlimisiz? O‘zingizga bo‘lgan ishonchni qay darajada baholaysiz?*			
	□ha, yuqori	□ ha, o‘rtacha	□ yo‘q, past	□ javob berishga qiynalaman
4	*Siz atrofdagilarning fikrini o‘zgartira olasizmi, ularni o‘z qarashlaringizga ishontira olasizmi?*			
	□ha, har doim	□ yo‘q, aslo	□ ba’zan	□ juda kam hollarda
5	*Odamlar bilan ishlash sizga yoqadimi, o‘zaro munosabatlardan zavqlana olasizmi?*			
	□ha, albatta	□ yo‘q, yolg‘iz ishlash yoqadi		□ javob berishga qiynalaman
6	*O‘z atrofingizdagilarda iliq taassurot qoldirishga harakat qilasizmi?*			
	□ha, doimo	□ ba’zan		□ yo‘q
7	*Mustaqil ravishda o‘zingiz uchun jamoa shakllantirib, ularni o‘z maqsadlaringiz tomon yetaklay olasizmi?*			
	□ha, albatta	□ yo‘q,	□ bilmayman	Harakat qilsam uddalayman
8	*Doimo atrofdagilarning e’tibor markazida bo‘lish sizga yoqadimi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ ba’zan	
9	*Maqsadga, muvaffaqiyatlarga erishishda yon atrofdagilarning ko‘magiga ehtiyoj sezasizmi?*			
	□ha, har doim	□ yo‘q, o‘zim uddalashga harakat qilaman	□ ba’zan	□ juda kam hollarda
10	*Yon-atrofingizdagilarning maqsad-muddaolari bilan qiziqasizmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ ba’zan	□ ha, faqat o‘z maqsadlarimga erishganimdan so‘ng
11	*Jamoangizdagilarga muvaffaqiyat haqidagi tasavvurlarini qanday shakllantirasiz? Sizga ma’qul javoblarni raqamlar asosida belgilang!*			
	1. Erishishimiz zarur bo‘lgan natijaning jozibadorligini ta’riflayman. 2. Erishilgan natija sabab muammolari bartaraf etilishini tushuntiraman. 3. Natijadorligiga qarab moddiy rag‘batlantirib borishni va’da qilaman. 4. Jamoaning natijasini ularning mehnati bilan bog‘layman. 5. Birgalikda muvaffaqiyatga erishish uchun har tomonlama motivatsiya beraman. 6. Muvaffaqiyatga ishontirishda boshqa jamoa a’zolari ko‘magidan foydalanaman.			

12	*Sizga noma’lum soha (vaziyat)da vazifalar yuklatilsa ijro etishda tashabbusni o‘z zimmangizga ola olasizmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ o‘ylab ko‘raman	□ menga bog‘liq bo‘lmagan ishlarga aralashmayman
13	*Sizning tashabbusingiz aynan kimdir tomonidan uning o‘z g‘oyalari asosida amalga oshirilganida ularga nisbatan qanday manosabatda bo‘lasiz?*			
	□qaytib bu tashabbusni amalga oshirmayman	□ o‘z tashabbusimni takomillashtiraman	□ birgalikda ishlash taklifini bildiraman	□ keskin tanqid qilaman
14	*Xato qilish siz uchun ...?*			
	□mag‘lubiyat	□ tajriba oshirish uchun imkoniyat	□ muammolarning boshlanishi	□ qo‘rquv
15	*Kutilmagan mag‘lubiyat yoki to‘siqlar, sizni qayta muvaffaqiyatga erisha olmasligingizga (ishonchsizlikka) olib kelishi mumkinmi?*			
	□ha	□ yo‘q	□ javob berishga qiynalaman	
16	*Sizni yoki amalga oshirgan ishlaringizni tanqid qilishsa sizga yoqadimi?*			
	□ha, to‘g‘ri qabul qilaman	□ yo‘q, jahlim chiqadi	□ e’tibor qilmayman	□ tanqid qilishlariga yo‘l qo‘ymayman
17	*Sizningcha lider kim? Iltimos o‘z fikrlaringizni yozing!*			

18 *Sizningcha quyidagilarning qaysi birlari lider uchun muhim va qay darajada? (iltimos, har bir javob shkalasidagi bitta darajani tanlang)*

qobiliyatlar	juda muhim	muhim	unchalik muhim emas	qobiliyatlar	juda muhim	muhim	unchalik muhim emas
adolat	□	□	□	qattiqqo‘llik	□	□	□
shaxsiy javobgarlik	□	□	□	kreativ fikrlash	□	□	□
notiqlik	□	□	□	xarizma	□	□	□
aql-zakovat	□	□	□	mas’uliyatlilik	□	□	□
faollik	□	□	□	tartib-intizom	□	□	□
ishontirish qobiliyati	□	□	□	vaqtni boshqarish (taym menejment)	□	□	□
optimizm	□	□	□	tashabbuskorlik	□	□	□
halollik	□	□	□	kechirimlilik	□	□	□
tashkilotchilik	□	□	□	uddaburonlik	□	□	□

19	*Sizningcha liderda yana qanday qobiliyat va fazilatlar bo‘lishi lozim? Iltimos fikrlaringizni yozing!*			
20	*Siz havas qilgan lider(shaxs)lar nomlarini keltiring.*			

3-jadval

III BLOK				
Talaba shaxsining liderlik kategoriyalari, qobiliyatlarning shakllanish jarayoni va oliy ta’lim muassasasi muhitida rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash				
1	*Sizningcha liderlik qobiliyati tug‘ma bo‘ladimi yoki ta’lim-tarbiya jarayonlarida shakllanib boradimi?*			
	□tug‘ma bo‘ladi	□ ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi	□ ikkalasi ham	□ javob berishga qiynalaman
2	*Sizningcha talabalarning liderlik qobiliyatini qaysi kursdan boshlab rivojlantirib borish lozim deb hisoblaysiz?*			

	□1 kursdan	□ 2 kursdan	□ 3 kursdan	□ 4 kursdan	□ farqi yo‘q, talabaning faollik darajasiga qarab istalgan vaqtda
3	*Siz uchun quyidagi fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri?*				
	□talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish va bu boradagi sa’y-harakat birinchi navbatda OTM mas’ullariga bog‘liq	□ talabalar liderlik qobiliyatini rivojlantirishga avvalo shaxsan o‘zi mas’ul, barchasi o‘z xohish-irodasiga bog‘liq	□ OTM mas’ullari va ota-onalarining hamkorligida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish mumkin	□ asosan yoshlar tashkilotlari faoliyati asosida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish mumkin	
4	*Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun auditoriya darslari samaralimi yoki auditoriyadan tashqari mashg‘ulot (tadbir, loyiha va h.k.)lar?*				
	□auditoriya darslari	□auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar (tadbir, loyiha va h.k.)	dars jarayonlari va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar birgalikda		
5	*OTMda bo‘ladigan ijtimoiy-ma’naviy, madaniy-ko‘ngilochar bayram tadbirlarda qatnashishni yoqtirasizmi?*				
	□ha	□ yo‘q	□ ha, ba’zan		
6	*Talabalar bilan ishlashda qattiqqo‘llik muhimmi yoki do‘stona hamkorlik muhiti samaralimi?*				
	□qattiqqo‘llik muhim, tartib-intizom bo‘ladi	□ do‘stona hamkorlik ijobiy samara beradi	□ vaziyatga qarab do‘stona munosabat va qattiqqo‘llik	□ javob berishga qiynalaman	
7	*Sizning g‘oyangiz yoki tashabbusingiz OTM mas’ullari va tegishli tuzilmalari tomonidan qanday qabul qilinadi?*				
	□ijobiy, qo‘llab-quvvatlanadi	□ ko‘pincha e’tiborga olinmaydi	□ salbiy, tinglashadi lekin amalga oshmaydi	□ ba’zi hollardagina qo‘llab-quvvatlashadi	
8	*Sizga qaysi liderlik kategoriyalari ma’qul?*				
	□demokratik	□ liberal	□ avtoritar	□ vaziyatga qarab barchasi	
9	*Ko‘pincha jamoada norasmiy liderlarning ta’siri rasmiy liderlarnikidan kuchliroq bo‘ladi. Ushbu fikr qanchalik to‘g‘ri?*				
	□to‘g‘ri, norasmiy lider jamoa bilan ijtimoiy munosabatlarga ko‘proq kirishadi	□ noto‘g‘ri, rasmiy lider har doim jamoani o‘z ta’sirida tutib turadi	□ to‘g‘ri, agar rasmiy lider o‘z pozitsiyasida ish olib bormasa, kompetentligi past bo‘lsa	□ noto‘g‘ri, rasmiy lider norasmiy lider ta’siridan foydalanib faoliyat olib boradi	
10	*Sizga buyruq berib, ustingizdan qat’iy nazorat qilib boshqarishlari yoqadimi?*				
	□ha, nazorat bo‘lmasa natija bo‘lmaydi	□ yo‘q, erkin muhitda ishlash yoqadi	□ yo‘q, o‘zaro hamkorlik va do‘stona munosabat asosida ishlashni ma’qul ko‘raman	□ vaziyatga qarab	
11	*Lider bo‘lish uchun tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishning o‘zi yetarli. Ushbu fikrga munosabatingiz.*				
	□to‘g‘ri	□ noto‘g‘ri			
12	*Biror masala yuzasidan sizning asosli fikringiz (murojaatingiz)ga mas’ullarning rad javobi berilsa qanday munosabatda bo‘lasiz?*				
	□o‘z pozitsiyamda qat’iy turib fikrimni singdiraman	□ sukut saqlab, qaytib gapirmayman	□ o‘zaro bahsga kirishaman	□ kelishaman, fikrimni boshqa usulda yetkazaman	
13	*Siz o‘z tashabbusingiz bilan talabalarning faolligini oshirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga oid biror loyihani amalga oshirganmisiz?*				
	□ha	□ yo‘q	□ o‘ylab ko‘rmadim hali	□ natija bermasligidan qo‘rqaman	

14	*Sizningcha biror masalaning yechimi uchun liderning qarori qanday bo‘lishi kerak?*			
	□avtoritar	□ kengash asosida	□ liberal	□ vaziyatga ko‘ra turli pozitsiyada
15	*Talaba o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lsa bo‘ldi, liderlik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart emas. Mazkur fikrga munosabatingiz?*			
	□to‘g‘ri, soha bo‘yicha bilimli bo‘lishi yetarli	noto‘g‘ri, har qanday zamonaviy mutaxassis lider bo‘lishi shart	□ javob berishga qiynalaman	

4-jadval

IV BLOK			
Talabalarning yoshlar tashkiloti va shu yo‘nalishdagi ijtimoiy tuzilmalar faoliyatiga daxldorlik darajasini aniqlash			
1	*Yoshlar tashkilotlari orqali o‘zingizning iqtidor, iste’dod va qobiliyatlaringizni rivojlantirish mumkinligiga ishonasizmi?*		
	□ha	□ yo‘q	□ bilmayman
2	*OTMda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotiga a’zo bo‘lganmisiz?*		
	□ha	□ yo‘q	
3	*Talabalarning tashabbusi bilan auditoriyadan tashqari ijtimoiy faollikni oshirish qaratilgan loyihalar tashkil etiladimi?*		
	□ha	□ ba’zan	□ yo‘q
4	*OTMda talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi yo‘lga qo‘yilganmi?*		
	□ha	□ yo‘q	□ bilmayman
5	*Volontyorlik faoliyatida ishtirok etganmisiz?*		
	□ha	□ yo‘q	
6	*Sizning fikringizcha, OTMda talabalarning faolligini oshirish uchun yana qaysi yoshlarga oid tashkilot, idora yoki tuzilmaning faoliyatini tashkil etish foydali? (iltimos, javobingizni yozma tarzda bering)*		
7	*Talabalarning tashabbusi bilan auditoriyadan tashqari ijtimoiy faollikni oshirish qaratilgan loyihalar tashkil etiladimi?*		
	□ ha	□ ba’zan	□ yo‘q
8	*OTMda talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi yo‘lga qo‘yilganmi?*		
	□ ha	□ yo‘q	□ bilmayman
9	*Volontyorlik faoliyatida ishtirok etganmisiz?*		
	□ ha	□ yo‘q	
10	*Sizga vakolat berilsa talabalarni liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun OTMda qanday ishlarni amalga oshirgan bo‘lardingiz? (iltimos, javobingizni yozma tarzda bering)*		

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S.R.Komives. The handbook for student leadership development. Jossey-Bass. 2nd ed. 2011. – 448 p.
2. Лутошкин А.Н. Как вести за собой. – М.: Просвещение, 1986. – С. 121.
3. Немов Р.С. Психодиагностика. Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. – 640 с.
4. Mutalov S.X. Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ayrim metodologik masalalari // Urganch davlat universiteti “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnali – Urganch, 2021. – №6(168). – B. 88-92.
5. Mutalov S.X. Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omillar // Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – № 10. – B. 614-619.
6. Mutalov S.Kh. The system of competences on the development of students’ leadership skills. Scientific-theoretical journal of International education research 2 (1), 79-82.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Odashaliyeva Fotima Odiljon qizi
Andijon viloyati Baliqchi tumani
19-son Bolalar musiqa va san'at maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishning pedagogik, psixologik va didaktik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqiy faoliyatning innovatsion shakllari, kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar, shuningdek, musiqiy-estetik ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi o‘rganilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va madaniyat sohasiga oid hujjatlari, “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” hamda milliy musiqa merosini yosh avlod ongiga singdirish masalalari asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, musiqiy tafakkur, estetik tarbiya, pedagogik innovatsiyalar, multimodal ta’lim, kreativ kompetensiyalar, raqamli texnologiyalar, musiqiy madaniyat.

Annotation: This scientific article examines the pedagogical, psychological, and didactic foundations for developing students’ creative thinking skills in music culture lessons. The study explores innovative forms of musical activity, creativity-enhancing teaching methods, and the effectiveness of digital technologies in musical and aesthetic education. The research is based on the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan regarding education and culture, the "New Uzbekistan Development Strategy," and the integration of national musical heritage into the consciousness of the younger generation.

Keywords: creative thinking, musical cognition, aesthetic education, pedagogical innovations, multimodal learning, creative competencies, digital technologies, musical culture.

Аннотация: В данной научной статье исследуются педагогические, психологические и дидактические основы формирования творческого мышления учащихся на уроках музыкальной культуры. Анализируются инновационные формы музыкальной деятельности, методы развития креативного мышления и эффективность использования цифровых технологий в музыкально-эстетическом образовании. Исследование основано на указах Президента Республики Узбекистан в сфере образования и культуры, «Стратегии развития Нового Узбекистана» и вопросах внедрения национального музыкального наследия в сознание молодёжи.

Ключевые слова: творческое мышление, музыкальное восприятие, эстетическое воспитание, педагогические инновации, мультимодальное обучение, креативные компетенции, цифровые технологии, музыкальная культура.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Ayniqsa, musiqa madaniyati fanida bu jarayon nafaqat musiqiy bilim va malakalarni egallashni, balki o‘quvchining estetik didi, emotsional tafakkuri va kreativ salohiyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonida [1] yoshlarni mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalash zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, PQ–4884-sonli “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi qarorda [2] ta’lim jarayoniga kreativ va innovatsion metodlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Musiqa madaniyati darslari ana shu maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy platformadir.

Chunki musiqa — bu inson tafakkurining emotsional va intellektual qirralarini uyg‘unlashtiruvchi estetik vosita bo‘lib, u orqali o‘quvchilarda tahliliy, tasavvuriy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Prezidentning 2019-yil 1-avgustdagi qarori bilan bolalar musiqa va san’at maktablarining faoliyatini takomillashtirish hamda san’at sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi [3]. Bu esa musiqa ta’limida kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun huquqiy hamda metodik asos yaratdi.

O‘zbekiston va xorijiy musiqa pedagogikasida ijodiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab yo‘nalishlarda olib borilgan. Jalilov A.A. o‘zining “Musiqiy tafakkur va ijodiy faoliyatning metodik asoslari” nomli asarida [4] musiqiy idrok jarayonini estetik tafakkur bilan integratsiyalash zarurligini asoslab, o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun interfaol va problemali ta’lim metodlarini qo‘llashni tavsiya etadi.

Shuningdek, Teshaboyev M.ning tadqiqotlarida [5] raqamli texnologiyalar (masalan, Flat.io, Soundtrap, MusicLab) asosida musiqiy mashg‘ulotlar tashkil etish o‘quvchilarning emotsional va ijodiy faolligini oshirishda muhim vosita sifatida baholangan. Islomov G‘. esa [6] musiqa darslarida “klasterli yondashuv”, “muammoli vaziyat” va “ijodiy integratsiya” metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilar tafakkurini mustaqil yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida [7] o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va yangilikka intilish fazilatlarini shakllantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, musiqa madaniyati darslari — ijodiy tafakkurni amaliy faoliyat orqali shakllantiruvchi eng samarali yo‘nalishlardan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqa madaniyati darslarida ijodiy fikrlashni shakllantirish quyidagi omillar orqali amalga oshadi:

1. Muammoli vaziyatlar yaratish. O‘quvchilarga musiqa asarlari asosida “kompozitsiyani davom ettirish”, “ohangni o‘zgartirish” kabi topshiriqlar berilganda ularning mustaqil tafakkuri faollashadi.
2. Audio-vizual vositalardan foydalanish. Virtual cholg‘u simulyatorlari, musiqiy dasturlar (Soundtrap, MusicLab) o‘quvchilarning musiqiy tasavvurlarini kengaytiradi.
3. Ijodiy guruhli faoliyat. O‘quvchilarni jamoaviy kompozitsiya yaratish, milliy kuy va raqslarga mos improvizatsiya qilish jarayonlariga jalb etish ularning estetik tafakkurini shakllantiradi.
4. Milliy musiqiy merosni integratsiya qilish. O‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda milliy identitet va badiiy idrok mustahkamlanadi.

Eksperimental sinovlar natijalariga ko‘ra, musiqa madaniyati darslarida interaktiv va ijodiy metodlarni qo‘llagan o‘qituvchilarning o‘quvchilari orasida kreativ fikrlash darajasi 68% dan 87% gacha oshgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarning musiqiy emotsional ifoda, improvizatsiya va o‘z g‘oyalarini badiiy shaklda ifodalash ko‘nikmalari aniq yuksalgan.

Tadqiqot shuningdek, pedagoglarning metodik tayyorgarligi va raqamli savodxonligi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Shuning uchun musiqa o‘qituvchilari uchun kreativ ta’lim texnologiyalariga oid malaka oshirish kurslarini tashkil etish zaruriy shart sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘qituvchining metodik mahorati va kreativ pedagogik yondashuvi — ijodiy tafakkurni shakllantirishning markaziy omilidir.
2. Multimodal va raqamli texnologiyalarni (virtual cholg‘u simulyatorlari, interaktiv platformalar) o‘quv jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning musiqiy tasavvurlarini kengaytiradi.
3. Milliy musiqiy meros asosida o‘tkazilgan ijodiy mashg‘ulotlar yosh avlodda estetik tafakkur, milliy g‘urur va san’atga bo‘lgan mehrni kuchaytiradi.
4. Pedagoglar uchun ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi malaka oshirish tizimini yaratish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF–60-son. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.” 28.01.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ–4884-son. “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida.” 06.11.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-avgustdagi qarori. Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida.
4. Jalilov A.A. Musiqiy tafakkur va ijodiy faoliyatning metodik asoslari. Toshkent, 2019.
5. Teshaboyev M. Musiqa ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning didaktik imkoniyatlari. Toshkent, 2021.

6. Islomov G‘. Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalar va kreativ metodlar. Ilmiy maqola, 2022.
7. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 24-sentabr, №03/20/637/1222-son.
8. Karimov Sh., Mamatqulov N. Boshlang‘ich sinflarda musiqiy ijodkorlikni shakllantirish metodikasi. Toshkent, 2020.

NUTQ VA TAFAKKUR O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TIL ORQALI INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH

Turg‘unova Mohina Akmaljon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
e-mail:turgunovamohina1999@gmail.com tel+998889788666

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning psixologik va pedagogik mohiyati, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda til orqali intellektual rivojlanishni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada bolalarda tafakkur jarayonini faollashtirishda nutqning o‘rni, so‘z boyligini kengaytirish va og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, o‘yin metodlari va interfaol yondashuvlarning intellektual rivojlanishga ta’siri misollar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: nutq, tafakkur, intellekt, til rivoji, muloqot, maktabgacha ta’lim, o‘yin metodikasi, psixolingvistika, kognitiv rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida inson intellektual salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq jarayonlarini uyg‘un shakllantirish masalasi eng dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Chunki bola tafakkuri aynan nutq orqali shakllanadi, nutq esa tafakkurning tashqi ifodasidir. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson tafakkuri, idrok va nutq jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi bolaning kelgusidagi intellektual, muloqot va ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxsiyati shakllanadigan, uning bilish faoliyati, idroki, xotirasi, diqqat-e’tibori, mantiqiy tafakkuri va til boyligi faol rivojlanadigan davrdir. Shu sababli bu bosqichda nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish, bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish maktabgacha ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir.

Nutq — bu inson tafakkurining tashqi ifodasi bo‘lib, tafakkur orqali yaratilgan g‘oyalar, fikrlar, tushunchalar tildagi so‘z va grammatik tuzilmalar orqali ifoda etiladi. Tafakkur esa inson ongining asosiy kognitiv jarayonlaridan biri bo‘lib, u bilish, tushunish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, “nutq tafakkur jarayonining moddiy shaklidir”, ya’ni bola so‘z orqali o‘z fikrini anglaydi va uni boshqalarga yetkazadi. Shuningdek, Vygotskiy “ichki nutq” tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu bola o‘z ichida o‘ylash jarayonini ifodalaydi. Demak, nutq faqat muloqot vositasi emas, balki tafakkurning shakllanish vositasidir.

Jean Piaget esa tafakkur va nutq o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni bolaning bilish bosqichlari orqali tushuntirgan. Uning fikricha, bola dastlab egotsentrik nutqqa ega bo‘ladi — ya’ni u atrofdagilarga emas, o‘z tafakkur jarayoniga qaratilgan bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan bu egotsentrik nutq ijtimoiy nutqqa aylanadi va tafakkur jarayoni yanada mantiqiy, izchil tus oladi.

Shu boisdan, pedagoglar va psixologlar bolalarning tafakkurini rivojlantirish uchun ularning tili, lug‘at boyligi, nutq ifodaliligi, so‘z tanlash qobiliyatiga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Maktabgacha yoshda bola tafakkuri predmetli, amaliy va obrazli xarakterga ega bo‘ladi. U o‘z fikrini aniq, mantiqiy, grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantira olmaydi, ammo tafakkur jarayoni asta-sekin tildagi so‘zlar bilan bog‘lanib boradi.

Bu davrda bolaning tafakkuri quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

– Obrazli tafakkur ustunligi — bola so‘zdan ko‘ra, ko‘rgan narsasiga tayanadi; u tasvir, predmet orqali fikrlaydi.

– Amaliy tafakkur — bola o‘yin, kuzatish, harakat orqali biladi, tajriba orttiradi.

– Ijodiy tafakkur — bola o‘z tasavvuri orqali yangi narsalarni o‘ylab topadi, hikoya yoki ertak yaratadi.

Til esa bu jarayonni tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Bola atrofdagi hodisalarni nomlash, ularni ta’riflash, farqlash, solishtirish orqali o‘z tafakkurini boyitadi. Demak, til tafakkurni shakllantiradi, tafakkur esa tilni rivojlantiradi.

Til orqali intellektni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

1) Til muhitining boyligi

Bola o‘z atrofida grammatik jihatdan to‘g‘ri, emotsional va ma’noli nutqni eshitib o‘sishi kerak. Ota-onalar va tarbiyachilarning so‘z boyligi, talaffuzi va ifoda uslubi bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2) Muloqot faoliyati

Bolani fikrini ifodalashga, suhbatda qatnashishga, savol berishga va javob topishga rag‘batlantirish — tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Har bir suhbat bolaning mantiqiy fikrlashini o‘stiradi.

3) O‘yin va didaktik mashg‘ulotlar

“Topishmoqlar”, “Kim tez topadi?”, “Qaysi so‘z ortiqcha?”, “Bir so‘zdan ko‘p so‘z yasaymiz” kabi o‘yinlar bolaning tahlil qilish, umumlashtirish, bog‘lash va tasniflash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4) Adabiyot va badiiy so‘z

Ertak, she’r, hikoyalar o‘qish bolalarda lug‘at boyligini oshiradi, so‘z ma’nosini his etish, ifodali fikrlash, obrazli tafakkur shakllanishiga yordam beradi.

5) Texnologik vositalardan foydalanish

Bugungi kunda bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv ilovalar, audio va video ertaklar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim dasturlari til va tafakkurni integrallashgan tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Nutq orqali intellektni rivojlantirishning amaliy yo‘llari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi metodlar o‘z samarasini bermoqda:

– Suhbatli o‘qitish – bolalarni fikrlashga undaydigan ochiq savollar asosida muloqot tashkil etish.

– Rol o‘ynash o‘yinlari – bolalar nutqini jonlantirish, emotsional intellektni rivojlantirish, mantiqiy ketma-ketlikni shakllantirish.

– So‘z boyligini kengaytirish mashqlari – sinonim, antonim, ko‘p ma’noli so‘zlar bilan ishlash.

– Hikoya tuzish va ertak aytish – tafakkurni tizimli va izchil ifoda etish qobiliyatini mustahkamlash.

– Rasm asosida hikoya tuzish – obrazli tafakkur va tahliliy fikrlashni uyg‘unlashtiradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, nutq faoliyatining faolligi bolaning umumiy intellektual darajasini oshiradi, chunki u so‘z orqali nafaqat o‘rganadi, balki fikrlaydi, xulosa chiqaradi va ijod qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nutq rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan bolalarda tafakkur, diqqat va xotira jarayonlari ham sezilarli darajada faol bo‘ladi.

Masalan, 2023-yilda UNICEF tomonidan o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, nutq faoliyatini muntazam rag‘batlantiruvchi muhitda o‘sgan bolalar 5 yoshga kelib, o‘rtacha 2,5 baravar ko‘p so‘z boyligiga ega bo‘lgan. Shuningdek, bu bolalar yangi vaziyatlarga moslashish, sabab-oqibatni tushunish, muammoni tahlil qilishda sezilarli ustunlikka ega ekanliklari aniqlangan.

Bu esa nutq va tafakkur o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni, til orqali intellektni rivojlantirishning muhimligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Xulosa

Nutq va tafakkur — bu inson aqliy faoliyatining ikki ajralmas tomoni bo‘lib, biri ikkinchisini ta’minlaydi va rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ikki jarayonni uyg‘un rivojlantirish, ularning kelajakdagi intellektual salohiyatining poydevorini yaratadi.

Til — bu fikrni ifoda etish vositasi emas, balki tafakkurning shakllanish mexanizmidir. Shuning uchun har bir tarbiyachi va ota-ona bola bilan muloqotda so‘z tanlash, savol berish, javobni rag‘batlantirish orqali ularning fikrlash jarayonini boshqarishi kerak.

Intellektual rivojlanishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimida nutqni rivojlantirishga e’tibor berish — bu nafaqat ta’lim sifati, balki millatning intellektual kelajagiga sarmoya kiritishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. *Myshlenie i rech’*. Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Piaget J. *The Language and Thought of the Child*. New York: Routledge, 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi normativ hujjatlari.
4. G‘ofurova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur rivojlanishining psixologik asoslari”, *Ta’lim va fan* jurnali, 2023-yil.
5. UNICEF Uzbekistan. *Early Childhood Development Report*, 2023.
6. Jalilova N. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual salohiyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari”, *Pedagogik innovatsiyalar,* 2024-yil.

TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA SHAXSIY QADRIYATLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nabiyev Navro‘z G‘ulomjonovich
Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik asoslari kompleks tarzda tahlii qilinadi. Maqolada zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning huquqiy ongi va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy-metodologik jihatlari, shu bilan birga preventive ta'sir ko‘rsatishning pedagogik mexanizmlari chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning milliy-ma’naviy jihatlari yoritilgan. Empirik tadqiqotlar natijasida shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning huquqbuzarliklarning oldini olishdagi samaradorligi 78% darajada ekanligi aniqlandi. Maqolada shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya ishlarini tashkil etish usullari va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, preventive, qadriyatlar, pedagogika, ma’naviyat, metodika, kompetensiya, yosh-xususiyat.

KIRISH

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olishning strategik ahamiyati bor. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar nafaqat o‘quv jarayonining sifatiqa, balki butun ma’naviy-ma’rifiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish asosida huquqbuzarliklarning oldini olish muammosi dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyyo‘yevning “Yoshlar siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 14-sentyabrdagi PQ-5250-sonli Qarori [1] va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” [2]da yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat

siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya va qadriyatlar ta’limini samarali tashkil etishni talab qiladi.

Pedagogika fanida shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasi bir qator taniqli olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi [3] va A.G. Asmolovning shaxsiy qadriyatlar shakllanishidagi tizimli yondashuvi [4] ushbu sohaning nazariy asoslarini tashkil etadi. O‘zbekistonlik olimlardan M. Inoyatovning ma’naviy tarbiya konsepsiyasi [5] va O‘. Qo‘chqorovning huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ilmiy ishlari [6] milliy pedagogik amaliyot uchun metodik asos vazifasini o‘tamoqda.

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari va metodik yondashuvlari yetarlicha o‘rganilmaganligi dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Mazkur tadqiqot ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, unda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik asoslari va amaliy modeli taklif etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuning dolzarbligini chuqurroq tushunish va tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlash maqsadida O‘zbekistonlik va xorijlik olimalrning ushbu sohadagi asarlari chuqur o‘rganildi.

O‘zbekistonlik olimalrning tadqiqotlari shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning milliy-ma’naviy asoslarini ochib beradi. M. Inoyatov o‘zining “Ma’naviy tarbiya: Nazariya va amaliyot” asarida shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishni yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, milliy g‘urur va ma’naviy kamolotning asosiy omili sifatida talqin qiladi. Muallif ta’kidlashicha, “ma’naviy tarbiya – bu nafaqat ma’lum qadriyatlarni o‘zlashtirish, balki ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyaga aylantirish jarayonidir” [7, 45-bet]. Ushbu asar mavzuga oid tadqiqotimizning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘. Qo‘chqorov o‘zining “Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish: Pedagogik asoslar” nomli monografiyasida huquqiy ong bilan ma’naviy-qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qiladi. Muallifning fikricha, “huquqbuzarlik, aksariyat hollarda, shaxsiy qadriyatlar tizimidagi kamchiliklar va ma’naviy bo‘shliqning natijasidir” [8, 78-bet]. Ushbu tadqiqot huquqbuzarliklarning psixologik-pedagogik ildizlarini tushunishimizga katta yordam beradi.

N. Hasanov “Pedagogika psixologiyasi” asarida o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mos pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini yoritib beradi. Uning ta’kidlashicha, “o‘smirlik davri – bu shaxsiy qadriyatlar qayta shakllanadigan va mustahkamlanadigan eng muhim bosqich bo‘lib, bu davrda olib borilgan preventive-pedagogik ishlarning samarasi eng yuqori bo‘ladi” [9, 112-bet].

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar, masalan, L.S. Vygotskiy ning ma’naviy-axloqiy rivojlanish nazariyasi [10] va A.G. Asmolov ning shaxsiyatning faoliyat yondashuvi [11], qadriyatlar tizimining shakllanishi ijtimoiy muhtit va faoliyat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu nazariyalar O‘zbekiston milliy tarbiya an’analari bilan uyg‘unlashib, mavzuning chuqurroq tushunilishiga imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

Nazariy tahlil: Mavzuga oid pedagogika, psixologiya va huquqshunoslik sohalaridagi ilmiy adabiyotlar, darsliklar, monografiyalar va maqolalar chuqur o‘rganildi. Ushbu metod yordamida mavzuning nazariy asoslari va tushunchalar apparati ishlab chiqildi.

Tarixiy-taqqosiy tahlil: Shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga o‘tgan davrlar va mustaqillik davri O‘zbekistonida qo‘llanilgan yondashuvlar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar tahlii qilindi.

So‘rovnoma (Anketiruv): Turli ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar o‘rtasida ularning asosiy qadriyatlari, huquqiy ong darajasi va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish xususiyatlarini o‘rganish maqsadida anketalar o‘tkazildi.

Kuzatuv: Ta’lim muassasalarining turli faoliyat sohalarida (dars jarayoni, darsdan tashqari tadbirlar) o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va xulq-atvori tizimli ravishda kuzatildi.

Statistik tahlil: So‘rovnoma va kuzatuvlar natijasida olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlii qilindi, ular asosida diagramma va jadvallar tuzildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha qator fundamental ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy globallashuv sharoitida yangi qiyinchiliklar va tahdidlar paydo bo‘lmogda. Shu sababli, mavjud nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishning innovatsion usul va metodlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida ta'lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijasida quyidagi ma'lumotlar olingan:

Tadqiqot 6 oy davomida 3 ta umumta'lim maktabida 200 nafar 7-9-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Eksperimental guruhda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dastur qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy tarbiya ishlari olib borildi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar qayd etildi:

Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarda huquqiy xulq-atvor normalariga rioya qilish darajasi sezilarli o‘sdi. Dastur boshlanganida 35% bo‘lgan ijobiy ko‘rsatkich, tadqiqot oxirida 78% ga yetdi. Bu shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning huquqbuzarliklarning oldini olishdagi samaradorligini isbotladi.

O‘quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan munosabatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, "Vatanparvarlik", "Halollik", "O‘ziga va boshqalarga nisbatan hurmat" kabi asosiy qadriyatlarni muhim deb biluvchi o‘quvchilar soni 2,5 baravar oshdi.

1-jadval. Eksperimental guruhda o‘quvchilarning shaxsiy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar:

№	Ko‘rsatkich	Dastur boshlanganda	Dastur tugaganda	O‘sish darajasi
1	Huquqiy xulq-atvor normalariga rioya qilish	35%	78%	43%
2	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni muhim deb bilish	42%	85%	43%
3	Muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish	38%	72%	34%
4	Jamiyat qadriyatlarini qabul qilish	45%	82%	37%
5	O‘z harakatlari uchun mas'uliyat hissi	40%	75%	35%

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning 85% ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni muhim deb hisoblagan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 50% ni tashkil etdi.

Muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish qobiliyati eksperimental guruhda 72% ga yetdi, bu o‘quvchilarning konfliktli vaziyatlarda huquqbuzarlik yo‘liga o‘tmasliklarini ko‘rsatadi. Bu natija M. Inoyatovning "ma'naviy tarbiya - bu nafaqat ma'lum qadriyatlarni o‘zlashtirish, balki ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyaga aylantirish jarayoni" [5] degan fikrini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Muntazam va tizimli tarbiya ishlari - darsdan tashqari mashg‘ulotlar, ma'naviy-axloqiy mavzudagi darslar

Shaxsiy namunalar - o‘qituvchilar va ota-onalarning shaxsiy namunasi

Amaliy faoliyat - ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari, hamkorlikdagi o‘yinlar

Individual yondashuv - har bir o‘quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish

Tadqiqot davomida quyidagi qiyinchiliklar aniqlandi:

O‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda cheklangan tajribasi

Ota-onalarning tarbiya jarayonida yetarlicha faol ishtirok etmasligi

Raqamli muhtining shaxsiy qadriyatlar tizimiga salbiy ta'siri

Shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish - bu uzoq muddatli, izchil va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ta'lim muassasasidagi barcha ishtirokchilarning faol hamkorligiga bog‘liq.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijasida “Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik asoslari”ni o‘rganish va takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:

Nazariy asoslarning muhimligi: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish O‘zbekiston pedagogik an'analari va zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar

uyg‘unligiga asoslangan bo‘lishi zarur. M. Inoyatov, O‘. Qo‘chqorov va N. Hasanov kabi olimlarning ishlari ushbu sohada mustahkam nazariy asos yaratadi.

Preventiv ta'sirning samaradorligi: Empirik tadqiqotlar shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishning preventive ta'siri 78% darajada samarali ekanligini isbotladi. Bu yondashuv nafaqat huquqbuzarliklarning oldini oladi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Kompleks yondashuvning zarurati: Huquqbuzarliklarning oldini olishda tizimli, izchil va ko‘p qirrali yondashuv talab etiladi. Bunda muntazam tarbiya ishlari, shaxsiy namunalar, amaliy faoliyat va individual yondashuv o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish: O‘smirlik davri shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda olib boriladigan preventive-pedagogik ishlarning samarasi boshqa yosh davrlariga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Metodik ta'minotning ahamiyati: Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi cheklangan tajribasi, ota-onalarning tarbiya jarayonida yetarlicha faol ishtirok etmasligi va raqamli muhtining salbiy ta'siri kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun maxsus metodik qo‘llanmalar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish asosida huquqbuzarliklarning oldini olish - bu uzoq muddatli, izchil va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ta'lim muassasasidagi barcha ishtirokchilarning faol hamkorligi va davlat siyosatining qo‘llab-quvvatlashi bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi PQ-5250-sonli “Yoshlar siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
3. Vygotskiy L.S. Ma’naviy rivojlanish psixologiyasi. – M.: Pedagogika, 1986. – 345 b.
4. Asmolov A.G. Shaxsiyat psixologiyasi: Qadriyatlar va tizimli yondashuv. – M.: Ma’rifat, 2002. – 416 b.
5. Inoyatov M. Ma’naviy tarbiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Ma’naviyat, 2018. – 228 b.
6. Qo‘chqorov O‘. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish: Pedagogik asoslar. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 192 b.
7. Vygotskiy L.S. Ma’naviy rivojlanish psixologiyasi. – M.: Pedagogika, 1986. – 345 b.
8. Asmolov A.G. Shaxsiyat psixologiyasi: Qadriyatlar va tizimli yondashuv. – M.: Ma’rifat, 2002. – 416 b.
9. Inoyatov M. Ma’naviy tarbiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Ma’naviyat, 2018. – 228 b.
10. Qo‘chqorov O‘. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish: Pedagogik asoslar. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 192 b.
11. Hasanov N. Pedagogika psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 256 b.

INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TEXNIK TERMINOLOGIYANING QIYOSIY TAHLILI: LINGVISTIK XUSUSIYATLAR VA TARJIMA MUAMMOLARI

Abdullayeva Fotima Baxromovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi texnik terminologiyaning struktur-semantik, lingvistik va tarjimaviy xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Texnik terminlarning shakllanishida xalqaro terminlar, kalkalash, qisqartmalar, birikmali terminlar va so‘z yasash modellari muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda uch tildagi terminlarning o‘zaro mosligi, semantik aniqligi, tarjimada ekvivalent tanlash masalalari hamda o‘zbek texnik terminologiyasining me’yorlashuv jarayoni yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili texnik terminlarni yaratishda ixchamlik va xalqaro qo‘llanishga moyil bo‘lsa, rus tilida morfologik moslashtirish va tizimlilik kuchliroq namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida esa terminlarni milliy til qonuniyatlariga moslashtirish, tushunarli va barqaror ekvivalentlarni tanlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: texnik terminologiya, qiyosiy tahlil, tarjima, ekvivalentlik, ingliz tili, rus tili, o‘zbek tili, termin me’yorlari.

Fan va texnika taraqqiyoti til tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, energetika va mashinasozlik sohalarida yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi terminologik qatlamning boyishiga sabab bo‘lmoqda. Ingliz tili xalqaro ilmiy-texnik kommunikatsiyada yetakchi mavqega ega bo‘lgani uchun ko‘plab terminlar dastlab aynan shu tilda shakllanadi. Rus tili esa postsovet ilmiy makonida texnik terminlarning tizimli ifodalanishi va tarqalishida muhim vosita bo‘lib kelgan. O‘zbek tilida texnik terminologiyani shakllantirish jarayoni ushbu ikki til bilan faol aloqada kechmoqda. Shu sababli uch til materialini qiyosiy tahlil qilish tarjima, standartlashtirish va ilmiy muloqot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik, struktur-semantik va tarjimashunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi texnik terminlar tuzilishi, ma’no doirasi, so‘z yasalish modeli va tarjimada berilish usuli jihatidan solishtirildi. Tahlilda terminlarning bir so‘zli, birikmali, qisqartma va xalqaro shakllari e’tiborga olindi. Shuningdek, terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida fonetik, morfologik va semantik moslashuv darajasi ham baholandi.

Ingliz tilidagi texnik terminologiya ko‘pincha qisqa, ixcham va funksional birliklardan tashkil topadi. Masalan, software, hardware, engine, sensor, feedback, controller kabi terminlar xalqaro ilmiy-texnik nutqda keng qo‘llanadi. Ularning ayrimlari rus va o‘zbek tillariga bevosita o‘zlashgan, ayrimlari esa tarjima yoki izohli ekvivalent orqali beriladi. Rus tilida texnik terminlar ko‘pincha morfologik jihatdan moslashtiriladi: контроллер, сенсор, двигатель, программное обеспечение kabi shakllar terminning tizimli ifodalanishini ta’minlaydi. O‘zbek tilida esa bir vaqtning o‘zida bir necha usul kuzatiladi: bevosita o‘zlashtirish, kalkalash, izohli tarjima va milliy muqobil yaratish. Masalan, software termini dasturiy ta’minot, hardware esa apparat ta’minoti yoki texnik vositalar shaklida qo‘llanadi.

Qiyosiy tahlil terminlarning semantik aniqligi har doim ham uch tilda bir xil saqlanmasligini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi bir termin ba’zan rus va o‘zbek tillarida kontekstga qarab turlicha tarjima qilinadi. Masalan, drive termini texnik sohada yuritma, disk qurilmasi, harakatlantirish tizimi kabi ma’nolarda kelishi mumkin. Shuning uchun tarjimada faqat lug‘aviy moslikka tayanish yetarli emas; termin qo‘llanayotgan soha, qurilma turi va funksional vazifasi aniqlanishi zarur. Bu holat texnik tarjimada kontekstual yondashuvning ahamiyatini oshiradi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi texnik terminologiyaning farqlari faqat til tuzilishi bilan emas, balki ilmiy an’ana, standartlashuv darajasi va soha mutaxassislari nutqi bilan ham bog‘liq. Ingliz tilida terminlar ko‘pincha global qo‘llanishga mos ravishda qisqa va universal bo‘ladi. Rus tilida terminlarning grammatik moslashuvi, so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali kengayishi va ilmiy uslubga mosligi yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek tilida esa asosiy muammo terminning tushunarliligi, xalqaro shaklni saqlash yoki milliy muqobilni tanlash o‘rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi.

Tarjima jarayonida eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri sinonimik variantlarning ko‘pligidir. Bir terminning bir nechta tarjimada ishlatilishi ilmiy matnlarda chalkashlik tug‘dirishi mumkin. Masalan, controller so‘zi ba’zi manbalarda kontroller, ba’zilarida boshqaruvchi qurilma tarzida uchraydi. Har ikki variant ma’lum kontekstda to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq ilmiy-texnik hujjatlarda yagona me’yorning tanlanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek texnik terminologiyasida izchil lug‘atlar, sohaviy standartlar va amaliy tarjima mezonlarini takomillashtirish muhimdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi texnik terminologiyaning qiyosiy tahlili terminlarning shakllanishi, tarjimasi va me’yorlashuvi murakkab lingvistik jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ingliz tili xalqaro terminlar manbai sifatida, rus tili tizimli vositachi sifatida, o‘zbek tili esa milliy ifoda va moslashtirish maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Texnik tarjimada ekvivalent tanlashda terminning sohasi, vazifasi, konteksti va amaliy qo‘llanishi hisobga olinishi lozim. O‘zbek tilida texnik terminlarni standartlashtirish ilmiy muloqot aniqligi, o‘quv adabiyotlari sifati va mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
3. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.
5. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2012. – 248 с.
6. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

TEXNIK TARJIMADA TERMINOLOGIYANI BOSHQARISHNING ROLI

Abdullayeva Fotima Baxromovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda texnik tarjima jarayonida terminologiyani boshqarishning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Texnik matnlar aniqlik, izchillik va standartlashgan ifodani talab qilgani sababli terminlarning to‘g‘ri tanlanishi tarjima sifatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda terminologik bazalar, glosariylar, tarjima xotirasi, korpus yondashuvi va sohaviy standartlarning texnik tarjimadagi o‘rni yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, terminologiyani tizimli boshqarish tarjimada semantik noaniqliklarni kamaytiradi, matnning kasbiy ishonchliligini oshiradi hamda tarjimon, muharrir va soha mutaxassisi o‘rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: texnik tarjima, terminologiya, terminologiyani boshqarish, ekvivalentlik, glosariy, tarjima xotirasi, standartlashtirish, sohaviy matn.

Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda texnik tarjimaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Muhandislik, axborot texnologiyalari, energetika, avtomobilsozlik, qurilish va ishlab chiqarish sohalarida yaratilayotgan hujjatlar bir necha tillarga tarjima qilinadi. Bunday matnlarda terminlar oddiy leksik birlik emas, balki muayyan tushuncha, jarayon yoki texnologik obyektni aniq ifodalovchi kasbiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun texnik tarjimada terminologiyani boshqarish faqat lug‘at bilan ishlash emas, balki butun tarjima jarayonini me’yorlashtirish, nazorat qilish va sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi murakkab faoliyatdir.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-lingvistik va tarjimashunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Texnik matnlarda uchraydigan terminlarning tarjimada berilishi, ularning ekvivalentlari, variantdorligi va standartlashuv darajasi nazariy manbalar asosida o‘rganildi. Shuningdek, terminologiyani boshqarishda qo‘llaniladigan glosariy, terminologik baza, tarjima xotirasi va sohaviy korpuslarning vazifalari tahlil qilindi. E’tibor asosan terminlarning izchil qo‘llanishi, semantik aniqligi va tarjima sifatiga ta’sir etuvchi omillarga qaratildi.

Texnik tarjimada terminologiyani boshqarish eng avvalo ekvivalent tanlash jarayonini tartibga soladi. Bir terminning turli tarjimalarda har xil berilishi matn mazmunining buzilishiga, texnik topshiriq yoki yo‘riqnoma noto‘g‘ri tushunilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, control termini kontekstga qarab boshqaruv, nazorat, rostlash yoki tekshirish ma’nolarida qo‘llanishi mumkin. Agar tarjimon soha xususiyatini hisobga olmasa, noto‘g‘ri ekvivalent tanlanadi va matnning kasbiy aniqligi pasayadi. Terminologik boshqaruv aynan shunday xatolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Terminologiyani boshqarishning muhim vositalaridan biri glosariy hisoblanadi. Glosariyda terminning asl shakli, tarjimasi, izohi, qo‘llanish sohasi va kerak bo‘lsa, tavsiya etilmaydigan variantlari beriladi. Bu tarjimon uchun yagona mezon yaratadi. Ayniqsa, katta hajmli texnik hujjatlar, qo‘llanmalar, loyiha hujjatlari va dasturiy ta’minot lokalizatsiyasida glosariy tarjima izchilligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv bir nechta tarjimon ishtirok etadigan loyihalarda yanada zarur bo‘ladi.

Tarjima xotirasi va terminologik bazalar ham texnik tarjima sifatini oshiruvchi asosiy omillardandir. Tarjima xotirasi ilgari tarjima qilingan segmentlarni saqlaydi va yangi matnda o‘xshash jumlalar uchraganda ularni tavsiya qiladi. Terminologik baza esa aynan terminlar bilan ishlashga yo‘naltiriladi. Ushbu vositalar tarjimada tezlikni oshirish bilan birga, matnning uslubiy va terminologik bir xilligini ta’minlaydi. Natijada tarjimon har safar terminni qayta izlashga majbur bo‘lmaydi, balki tasdiqlangan ekvivalentdan foydalanadi.

Texnik tarjimada terminologiyani boshqarish faqat texnik vositalarga tayanmaydi. Bu jarayonda tarjimonning lingvistik bilimlari, soha bo‘yicha tushunchasi va matn kontekstini tahlil qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayrim terminlar lug‘atlarda mavjud bo‘lsa-da, muayyan matnda boshqa ma’noda kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon terminni alohida so‘z sifatida emas, balki butun texnik vaziyatning bir qismi sifatida baholashi kerak. Terminologik boshqaruvning samaradorligi tarjimon, muharrir va soha mutaxassisi o‘rtasidagi hamkorlikka ham bog‘liq.

O‘zbek tilida texnik terminologiyani boshqarish masalasi yanada dolzarbdir. Chunki ayrim sohalarda xalqaro terminlar, rus tili orqali kirib kelgan birliklar va o‘zbekcha muqobillar parallel qo‘llanadi. Bu holat tarjimada variantdorlikni kuchaytiradi. Masalan, software termini dasturiy ta’minot shaklida me’yorlashgan bo‘lsa, ayrim matnlarda inglizcha yoki ruscha shaklga yaqin variantlar ham uchrashi mumkin. Bunday vaziyatda terminologik siyosat, sohaviy lug‘atlar va standartlashtirilgan tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik tarjimada terminologiyani boshqarish tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. U terminlarning izchil, aniq va standart shaklda qo‘llanishini ta’minlaydi, semantik chalkashliklarning oldini oladi hamda texnik matnning ilmiy-amaliy qiymatini oshiradi. Glosariylar, terminologik bazalar, tarjima xotirasi va korpus texnologiyalaridan foydalanish texnik tarjimada samaradorlikni kuchaytiradi. O‘zbek tilida texnik terminlarni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish ilmiy-texnik kommunikatsiya sifati, o‘quv adabiyotlari mazmuni va ishlab chiqarish hujjatlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеева И.С. Профессиональный тренинг переводчика. – СПб.: Союз, 2001. – 288 с.
2. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
3. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.
4. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.
5. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: ЛИБРОКОМ, 2012. – 248 с.
6. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
8. Wright S.E., Budin G. Handbook of Terminology Management. Vol. 1. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1997. – 370 p.

TEXNOLOGIK MASHINA VA JIHOZLARDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TEXNIK DIAGNOSTIKA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Olimov Bekzodbek Kamoliddin o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti “Texnologik mashina va jihozlar» yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik mashina va jihozlarda sun’iy intellekt asosida texnik diagnostika tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi hamda sanoat korxonalarida yuqori unumdor uskunalardan keng foydalanilishi ularning texnik holatini uzluksiz nazorat qilish va nosozliklarni erta aniqlash zaruratini kuchaytirmoqda. Maqolada mashinali o‘qitish, chuqur o‘rganish, sensor texnologiyalari va sanoat interneti imkoniyatlari asosida diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, uskunalarning xizmat muddatini uzaytirish hamda ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida aqlli diagnostika tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: texnologik mashina va jihozlar, sun’iy intellekt, texnik diagnostika, mashinali o‘qitish, sanoat interneti, monitoring, avtomatlashtirish, Industry 4.0.

Аннотация: В статье рассмотрены современные подходы к совершенствованию систем технической диагностики технологических машин и оборудования на основе искусственного интеллекта. Проанализированы вопросы автоматизации диагностики с использованием методов машинного обучения, глубокого обучения, сенсорных технологий и промышленного Интернета вещей. Особое внимание уделено повышению эффективности технического обслуживания, раннему обнаружению неисправностей, увеличению срока службы оборудования и обеспечению безопасности производственных процессов. Полученные результаты свидетельствуют о высокой эффективности внедрения интеллектуальных диагностических систем в современных промышленных предприятиях.

Ключевые слова: технологические машины и оборудование, искусственный интеллект, техническая диагностика, машинное обучение, промышленный Интернет вещей, мониторинг, автоматизация, Industry 4.0.

Annotation: This article examines modern approaches to improving technical diagnostic systems for technological machinery and equipment based on artificial intelligence. The study analyzes the automation of diagnostic processes using machine learning, deep learning, sensor technologies, and the Industrial Internet of Things. Particular attention is paid to improving maintenance efficiency, early fault detection, extending equipment service life, and ensuring production safety. The results indicate that implementing intelligent diagnostic systems is one of the key factors in increasing the efficiency and reliability of modern industrial enterprises.

Keywords: technological machinery and equipment, artificial intelligence, technical diagnostics, machine learning, Industrial Internet of Things, monitoring, automation, Industry 4.0.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilayotgan texnologik mashina va jihozlarga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy uskunalar yuqori unumdorlik, uzluksiz ishlash, energiya tejamkorligi va ekspluatatsion ishonchlilikni ta’minlashi bilan bir qatorda, ularning texnik holatini doimiy nazorat qilish ham muhim vazifaga aylanmoqda. Texnologik mashina va jihozlarning nosozligi ishlab chiqarish jarayonining to‘xtashi, mahsulot sifati pasayishi, qo‘shimcha ta’mirlash xarajatlari hamda mehnat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli texnik diagnostika tizimlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari, asosan, uskunalarga belgilangan muddatlarda profilaktik xizmat ko‘rsatish yoki nosozlik yuzaga kelgandan keyin ta’mirlash tamoyiliga asoslanadi.

Bunday yondashuv ko‘plab hollarda iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib, ayrim ehtiyot qismlarning muddatidan oldin almashtirilishiga yoki aksincha, yashirin nuqsonlarning vaqtida aniqlanmasligiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy sanoatda esa uskunalarning haqiqiy texnik holatini real vaqt rejimida baholash va ehtimoliy nosozliklarni oldindan prognoz qilishga asoslangan diagnostika tizimlariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi texnik diagnostika sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Mashinali o‘qitish algoritmlari, chuqur o‘rganish usullari, aqlli sensorlar va sanoat interneti texnologiyalaridan foydalanish orqali texnologik mashina va jihozlarning ishlash jarayonini uzluksiz monitoring qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda nosozliklarni dastlabki bosqichlarda aniqlash mumkin. Bu esa ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash, ta’mirlash xarajatlarini kamaytirish va uskunalarning xizmat muddatini uzaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Industry 4.0 konsepsiyasining joriy etilishi sanoat korxonalarida aqlli boshqaruv va raqamli ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishni jadallashtirmoqda. Mazkur konsepsiya doirasida texnologik mashina va jihozlardan olinadigan ma’lumotlarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi texnologik mashina va jihozlarda sun’iy intellekt asosidagi texnik diagnostika tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish, ularning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslash hamda sanoat korxonalarida qo‘llash istiqbollarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism

Texnologik mashina va jihozlarning ekspluatatsiya jarayonida ishonchli ishlashi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Uskunalarda yuzaga keladigan nosozliklarni dastlabki bosqichda aniqlash korxonaning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan diagnostika tizimlari zamonaviy sanoatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Mazkur tizimlar turli sensorlar orqali uskunalardan olinayotgan ma’lumotlarni uzluksiz yig’adi va ularni avtomatik ravishda tahlil qiladi. Vibratsiya, harorat, bosim, elektr toki, aylanish tezligi kabi ko‘rsatkichlarning me’yoriy qiymatlardan og’ishi sun’iy intellekt algoritmlari yordamida aniqlanadi. Natijada nosozliklarning dastlabki belgilari operator aralashuvisiz aniqlanib, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

Mashinali o‘qitish algoritmlari avvalgi ekspluatatsiya ma’lumotlari asosida uskunaning normal ishlash holatini o‘rganadi. Keyinchalik yangi ma’lumotlar ushbu model bilan taqqoslanib, eng kichik o‘zgarishlar ham aniqlanadi. Bu esa oddiy diagnostika usullari orqali aniqlash qiyin bo‘lgan yashirin nosozliklarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlarining muhim afzalligi shundaki, ular faqat mavjud nosozlikni aniqlash bilan cheklanmaydi. Tizim yig’ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ehtimoliy nosozliklarning kelajakda yuzaga kelish vaqtini ham prognoz qilishi mumkin. Natijada korxona rejasiz to‘xtashlarning oldini oladi, ta’mirlash ishlari esa optimal muddatlarda amalga oshiriladi.

1-jadval

An’anaviy va sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlarining taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	An’anaviy diagnostika	Sun’iy intellekt asosidagi diagnostika
Monitoring	Davriy nazorat	Uzluksiz real vaqt monitoringi
Nosozlikni aniqlash	Nosozlik yuzaga kelgandan keyin	Nosozlik boshlanishidan oldin
Ma’lumotlarni tahlil qilish	Mutaxassis tomonidan	Avtomatik algoritmlar orqali
Aniqlik darajasi	O‘rtacha	Yuqori
Texnik xizmat ko‘rsatish	Rejali	Bashoratli (Predictive Maintenance)
Ekspluatatsiya xarajatlari	Yuqori	Nisbatan past
Ishlab chiqarish to‘xtashi	Ko‘p uchraydi	Minimal darajada

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish hamda uskunalarning xizmat muddatini uzaytirishda an’anaviy usullarga nisbatan ancha ustun hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan sanoat korxonalarida aqlli diagnostika tizimlari ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Industry 4.0 konsepsiyasi doirasida sun’iy intellekt, sanoat interneti (IIoT), bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish usullari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston sanoat korxonalarida ham raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, energetika va to‘qimachilik tarmoqlarida zamonaviy texnologik jihozlardan foydalanish ko‘lami kengaymoqda. Mazkur korxonalarda sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish hamda avariya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bunday tizimlarni keng joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, yuqori aniqlikdagi sensor uskunalarining narxi, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish xarajatlari, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda mavjud ishlab chiqarish tizimlarini raqamli platformalar bilan integratsiyalash zarurati asosiy muammolar qatoriga kiradi. Ushbu masalalarni bosqichma-bosqich hal etish orqali sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlarini mahalliy sanoat korxonalarida samarali joriy etish imkoniyati kengayadi.

Xulosa

Texnologik mashina va jihozlarda sun’iy intellekt asosidagi texnik diagnostika tizimlarini qo‘llash zamonaviy sanoatning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizimlar uskunalarning texnik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish, nosozliklarni dastlabki bosqichda aniqlash hamda ularning rivojlanishini prognoz qilish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarishning uzluksizligi ta’minlanadi, ta’mirlash xarajatlari kamayadi va uskunalarning ekspluatatsiya muddati uzayadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini texnik diagnostika tizimlariga integratsiya qilish ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish va sanoat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida mahalliy korxonalarda bunday tizimlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish hamda milliy dasturiy yechimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni raqamlashtirish va innovatsion rivojlantirishga oid qarorlari.
3. Lee J., Bagheri B., Kao H. A. A Cyber-Physical Systems Architecture for Industry 4.0-Based Manufacturing Systems. – *Manufacturing Letters*, 2015.
4. Alpaydin E. *Introduction to Machine Learning*. – MIT Press, 2021.
5. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. – MIT Press, 2016.
6. Mobley R. K. *An Introduction to Predictive Maintenance*. – Elsevier, 2020.
7. Jardine A. K. S., Lin D., Banjevic D. A review on machinery diagnostics and prognostics. – *Mechanical Systems and Signal Processing*.
8. Wang K. Intelligent Predictive Maintenance for Industry 4.0. – *Journal of Manufacturing Systems*, 2021.
9. ISO 13374. *Condition Monitoring and Diagnostics of Machines*. Geneva.
10. ISO 17359. *Condition Monitoring and Diagnostics of Machines – General Guidelines*. Geneva.

UDK: 378.046.4:005.336.2:005.95

KORPORATIV OLIY TA’LIM SHAROITIDA RAHBAR-KADRLARNING SOFT-KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV-PEDAGOGIK MODELI

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science dotsenti
Email: umiaxrorhamid@gmail.com
Tel: (94) 309 08 08
ORCID: 0009-0008-9086-4879

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning boshqaruv-pedagogik modeli ishlab chiqilgan va nazariy jihatdan asoslangan. Model ijtimoiy buyurtma asosida shakllanuvchi oltita o‘zaro bog‘liq blok — maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik, diagnostik-baholash va natijaviy bloklardan iborat. Modelning o‘ziga xosligi pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, muvofiqlashtirish, nazorat va tuzatish funksiyalarini bajaruvchi boshqaruv quyi tizimi bilan uyg‘unlashtirishda hamda tajribaga tayanish, individual trayektoriya, refleksiv-tahliliy va mentorlik-kouching kabi to‘rtta andragogik mexanizmga tayanishida namoyon bo‘ladi. Diagnostik-baholash blokidan maqsadli blokka qayta aloqa modelning o‘z-o‘zini tuzatuvchi tizim sifatida ishlashini ta’minlaydi. Modelni samarali amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shartlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv-pedagogik model, korporativ oliy ta’lim, korporativ universitet, rahbar-kadrlar, soft-kompetensiyalar, pedagogik modellashtirish, boshqaruv funksiyalari, andragogik mexanizmlar, qayta aloqa.*

УПРАВЛЕНЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ SOFT-КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ КОРПОРАТИВНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье разработана и теоретически обоснована управленческо-педагогическая модель развития soft-компетенций руководящих кадров в условиях корпоративного высшего образования. Модель формируется на основе социального заказа и включает шесть взаимосвязанных блоков: целевой, методологический, содержательный, технологический, диагностико-оценочный и результативный. Своеобразие модели заключается в интеграции педагогического процесса с управленческой подсистемой, выполняющей функции планирования, организации, мотивации, координации, контроля и коррекции, а также в опоре на четыре андрагогических механизма: опору на опыт, индивидуальную траекторию, рефлексивно-аналитический механизм, наставничество и коучинг. Обратная связь от диагностико-оценочного блока к целевому обеспечивает функционирование модели как самокорректирующейся системы. Показаны организационно-педагогические условия эффективной реализации модели.*

Ключевые слова: *управленческо-педагогическая модель, корпоративное высшее образование, корпоративный университет, руководящие кадры, soft-компетенции, педагогическое моделирование, функции управления, андрагогические механизмы, обратная связь.*

A MANAGERIAL-PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING SOFT COMPETENCIES OF MANAGERIAL STAFF IN CORPORATE HIGHER EDUCATION

Abstract: *The article develops and theoretically substantiates a managerial-pedagogical model for developing the soft competencies of managerial staff in corporate higher education. Formed on the basis of a social demand, the model consists of six interrelated blocks: goal, methodological, content, technological, diagnostic-evaluative and outcome blocks. Its distinctive feature is the integration of the pedagogical process with a management subsystem that performs the functions of planning, organizing, motivating, coordinating, controlling and correcting, and its reliance on four andragogical mechanisms: building on experience, individual learning pathways, reflective analysis, and mentoring and coaching.*

Feedback from the diagnostic-evaluative block to the goal block allows the model to operate as a self-correcting system. The organizational and pedagogical conditions for implementing the model effectively are outlined.

Keywords: *managerial-pedagogical model, corporate higher education, corporate university, managerial staff, soft competencies, pedagogical modeling, management functions, andragogical mechanisms, feedback.*

KIRISH

Korporativ oliy ta’lim tashkilot strategiyasini xodimlar, avvalo, rahbar-kadrlarning kompetensiyalari orqali amalga oshirishga xizmat qiluvchi ta’lim tizimi sifatida tobora keng tarqalmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uzluksiz ta’limning mustaqil turi sifatida belgilangan [1], “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa boshqaruv kadrlarining salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan [2]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish vazifasi belgilangan [3].

Rahbar faoliyatining samaradorligi tobora ko‘proq uning kommunikativ, liderlik, emotsional va refleksiv sifatlariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Biroq soft-kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘p hollarda tarqoq treninglar shaklida, tashkilotning boshqaruv tizimidan ajralgan holda tashkil etiladi. M.Beer va hammualliflar treninglar natija bermasligining asosiy sababi o‘qitish mazmunida emas, balki tashkiliy tizim — rollar, mas’uliyat va rahbariyat yondashuvi o‘zgarmay qolishida ekanligini ko‘rsatgan [4]. Demak, soft-kompetensiyalarni rivojlantirish faqat pedagogik emas, balki boshqaruv vazifasi hamdir.

Shu sababli pedagogik jarayonni tashkilotning boshqaruv funksiyalari bilan uyg‘unlashtiruvchi yaxlit model zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning boshqaruv-pedagogik modelini ishlab chiqish va uning tarkibiy qismlari hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik modellashtirishning nazariy asoslari falsafa va pedagogika metodologiyasida ishlab chiqilgan. V.A.Shtoff modelni tadqiq etilayotgan obyektni almashtiruvchi va u haqida yangi bilim olish imkonini beruvchi tizim sifatida ta’riflagan [5]. A.M.Novikov va D.A.Novikov pedagogik tadqiqotda modellashtirishni jarayonning tuzilishi, bosqichlari va natijalarini yaxlit loyihalash vositasi sifatida asoslagan [6]. L.Bertalanffy umumiy tizimlar nazariyasi esa modelni o‘zaro bog‘liq elementlar va qayta aloqaga ega ochiq tizim sifatida qurish uchun metodologik asos bo‘ladi [7].

O‘zbekiston pedagogika fanida J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonov pedagogik texnologiyani maqsad, mazmun, metod, vosita va natijaning uzviy birligi sifatida tavsiflagan [8], N.A.Muslimov esa kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini bosqichli pedagogik tizim sifatida modellashtirgan [9]. Bu ishlar modelning bloklarini ajratishda muhim mo‘ljal bo‘ladi.

Boshqaruv nazariyasida A.Fayol boshqaruvning rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish va nazorat funksiyalarini ajratgan [10]. Rus pedagogikasida bu g‘oyalar ta’lim jarayonini boshqarishga tatbiq etilgan: V.P.Simonov pedagogik menejmentni ta’lim jarayonini maqsadli boshqarish texnologiyasi sifatida ishlab chiqqan [11], Yu.A.Konarjevskiy esa ta’lim muassasasini boshqarishda maqsadga ko‘ra boshqaruv va pedagogik tahlil funksiyalarini asoslagan [12]. T.Bush ta’lim menejmenti va liderligi nazariyalarini umumlashtirib, boshqaruv modelini tashkilot maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatgan [13].

Korporativ ta’lim sohasida J.Meister korporativ universitetni tashkilot strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi ta’lim tuzilmasi sifatida tavsiflagan [14], M.Allen esa uning strategik muvofiqlik va natijalarni o‘lchash xususiyatlarini tahlil qilgan [15]. T.Garavan kadrlarni rivojlantirishni tashkilot strategiyasi bilan bog‘lovchi strategik yondashuv (strategic HRD) tamoyillarini asoslagan [16], D.Ulrich esa HR xizmatini strategik hamkor va o‘zgarishlar agenti sifatida qaragan [17].

Pedagogik jarayon nuqtai nazaridan M.Knowles andragogika tamoyillari [18], D.Kolbning tajribaviy o‘qitish sikli [19] va D.Shonning refleksiv amaliyot konsepsiyasi [20] modelning andragogik mexanizmlari uchun asos bo‘ldi. Soft-kompetensiyalar tarkibini aniqlashda I.A.Zimnyaya [21] va R.Boyatzis [22] tasniflari, baholash blokini loyihalashda esa D.Kirkpatrick va J.Kirkpatrick modeli [23] hamda C.Lacerenza va hammualliflarning liderlik treninglari bo‘yicha meta-tahlili [24] hisobga olindi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli-strukturaviy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Modelning metodologik asoslari.

Model to‘rtta yondashuvga tayanadi. Tizimli yondashuv modelni ijtimoiy buyurtmadan natijagacha bo‘lgan, qayta aloqaga ega yaxlit tizim sifatida qurish imkonini berdi [7]. Kompetensiyaviy yondashuv model natijasini rahbarning boshqaruv faoliyatida kuzatiladigan xulq-atvor orqali belgilashga asos bo‘ldi [22]. Andragogik yondashuv rahbarni o‘z rivojlanishining faol subyekti sifatida qarashni talab etdi [18]. Boshqaruv-pedagogik yondashuv esa pedagogik jarayonni tashkilotning boshqaruv funksiyalari bilan bog‘lashni ta’minladi [10; 11].

Mualliflik ta’rifiga ko‘ra, korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning boshqaruv-pedagogik modeli – bu tashkilot strategiyasidan kelib chiquvchi maqsad asosida pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini boshqaruv funksiyalari va andragogik mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirib, rahbarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni boshqaruv amaliyotiga ko‘chirishni ta’minlovchi tizimning ilmiy asoslangan nazariy ifodasidir.

Modelning tuzilishi.

Model uch tarkibiy qismdan iborat: oltita blokdan tashkil topgan pedagogik yadro, uni boshqaruvchi boshqaruv quyi tizimi va pedagogik jarayonni kattalar ta’limi xususiyatlariga moslashtiruvchi andragogik mexanizmlar (1-rasm).



1-rasm. ***Korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning boshqaruv-pedagogik modeli***

Modelning bloklari, ularning tarkibi hamda har bir blokda boshqaruv quyi tizimi bajaradigan vazifalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Boshqaruv-pedagogik model bloklarining tarkibi va boshqaruv vazifalari

Blok	Tarkibi	Boshqaruv quyi tizimining vazifasi
Maqsadli	Ijtimoiy buyurtma, lavozim kompetensiyalar profili, maqsad va vazifalar	Tashkilot strategiyasi asosida o‘qitish maqsadlarini rejalashtirish
Metodologik	Tizimli, kompetensiyaviy, andragogik, boshqaruv-pedagogik yondashuvlar va tamoyillar	Dasturni loyihalash talablarini belgilash
Mazmuniy	Kommunikativ, liderlik, emotsional-irodaviy, kognitiv-strategik va refleksiv modullar kasbiy mavzular bilan integratsiyada	O‘quv dasturini tashkil etish, akademik va korporativ ekspertlarni jalb etish
Texnologik	Keys, simulyatsiya, loyiha, action learning, aralash ta’lim, mentorlik va kouching	Tinglovchilarni motivatsiyalash, o‘qitish va ish joyidagi faoliyatni muvofiqlashtirish
Diagnostik-baholash	Mezonlar, darajalar, 360 darajali qayta aloqa, kechiktirilgan baholash	Nazorat, natijalarni tahlil qilish va dasturni tuzatish
Natijaviy	Soft-kompetensiyalar rivojlanganlik darajasining oshishi, boshqaruv faoliyatidagi o‘zgarish	Natijalarni tashkiliy ko‘rsatkichlar bilan qiyoslash

Boshqaruv va pedagogik quyi tizimlarning o‘zaro aloqasi.

Modelning asosiy g‘oyasi shundaki, pedagogik jarayon uni boshqaruvchi tashkiliy tizimsiz barqaror natija bermaydi. Boshqaruv quyi tizimi A.Fayol tomonidan ajratilgan funksiyalarni [10] korporativ ta’lim sharoitiga moslashtirib bajaradi. Rejalashtirish funksiyasi o‘qitish maqsadlarini tashkilot strategiyasi va rahbar lavozimi talablari bilan bog‘laydi. Tashkil etish funksiyasi o‘quv dasturi, o‘qituvchilar, mentorlar va resurslarni yagona tizimga keltiradi.

Motivatsiyalash funksiyasi rahbarning o‘qitishga ichki ehtiyojini shakllantirishga va o‘qitish natijalarini martaba rivojlanishi bilan bog‘lashga qaratiladi. Muvofiqlashtirish funksiyasi auditoriya mashg‘ulotlari va ish joyidagi faoliyat o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etadi: rahbarning bevosita boshlig‘i va mentori o‘qitish jarayoniga jalb etiladi. Nazorat va tuzatish funksiyasi diagnostik-baholash bloki ma’lumotlari asosida dastur mazmuni va texnologiyalarini o‘zgartirish imkonini beradi.

Boshqaruv quyi tizimining subyektlari korporativ universitet, tashkilotning HR xizmati, rahbarning bevosita boshlig‘i va mentor hisoblanadi. D.Ulrichning HR xizmatini strategik hamkor sifatida qarash g‘oyasi [17] aynan shu subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadi. Bu subyektlarning birortasi jarayondan chetda qolsa, o‘qitish natijalarining ish faoliyatiga ko‘chishi qiyinlashadi.

Andragogik mexanizmlar.

Pedagogik yadroni kattalar ta’limi xususiyatlariga moslashtiruvchi to‘rtta andragogik mexanizm ajratildi (2-jadval). Ular modelning barcha bloklarida amal qiladi, biroq ayniqsa mazmuniy va texnologik bloklarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

2-jadval

Modelning andragogik mexanizmlari

Mexanizm	Mazmuni	Amalga oshirish vositalari
Tajribaga tayanish	Rahbarning boshqaruv tajribasi o‘qitishning manbai sifatida foydalaniladi [18]	Tinglovchilarning real holatlari asosidagi keyslar, tajriba almashish seminarlari
Individual trayektoriya	O‘qitish rahbarning ehtiyojlari va boshlang‘ich darajasiga moslashtiriladi	Kirish diagnostikasi, individual rivojlanish rejasi, tanlov modullari
Refleksiv-tahliliy	Rahbar o‘z faoliyati va qarorlarini tanqidiy tahlil qiladi [19; 20]	Refleksiv kundalik, qayta aloqa sessiyalari, o‘zini o‘zi baholash
Mentorlik-kouching	Kursdan keyin ish joyida o‘rganilganni qo‘llash qo‘llab-quvvatlanadi	Mentor biriktirish, kouching sessiyalari, ish joyidagi loyihalar

Andragogik mexanizmlar o‘zaro bog‘liq: individual trayektoriya kirish diagnostikasiga, tajribaga tayanish va refleksiv-tahliliy mexanizm esa D.Kolbning tajribaviy o‘qitish sikliga asoslanadi [19]. Mentorlik-kouching mexanizmi siklni kursdan keyin ham davom ettirib, o‘qitishni ish joyidagi rivojlanish bilan bog‘laydi. C.Lacerenza va hammualliflarning meta-tahlilida bir necha sessiyaga bo‘lingan o‘qitish va qayta aloqa transferni yaxshilashi aniqlangan [24], bu esa mazkur mexanizmlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Modelni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shartlari.

Modelning samarali ishlashi uchun quyidagi shartlar zarur: birinchidan, rahbar lavozimlari uchun soft-kompetensiyalar profili ishlab chiqilgan bo‘lishi; ikkinchidan, korporativ universitet, HR xizmati va bevosita rahbarlar o‘rtasida vazifalar aniq taqsimlanishi; uchinchidan, o‘qitish natijalari rahbarning faoliyatini baholash va martaba rivojlanishi tizimiga kiritilishi; to‘rtinchidan, diagnostik-baholash blokining natijalari muntazam ravishda dastur tuzatishga qaytarilishi.

Taklif etilgan model nazariy umumlashma natijasi ekanligini ham qayd etish lozim. Uning samaradorligi, bloklar va mexanizmlarning hissasi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirilishi talab etiladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish faqat pedagogik emas, balki boshqaruv vazifasi hamdir, chunki o‘qitish natijalarining ish faoliyatiga ko‘chishi tashkiliy tizim tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan boshqaruv-pedagogik model ijtimoiy buyurtma asosida shakllanuvchi maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik, diagnostik-baholash va natijaviy bloklardan iborat pedagogik yadroni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, modelning o‘ziga xosligi pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, muvofiqlashtirish, nazorat va tuzatish funksiyalarini bajaruvchi boshqaruv quyi tizimi bilan uyg‘unlashtirishda hamda tajribaga tayanish, individual trayektoriya, refleksiv-tahliliy va mentorlik-kouching andragogik mexanizmlariga tayanishida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, diagnostik-baholash blokidan maqsadli blokka qayta aloqa modelni o‘z-o‘zini tuzatuvchi tizimga aylantiradi. Modelni amalga oshirish soft-kompetensiyalar profili, subyektlar o‘rtasida vazifalar taqsimoti, o‘qitish natijalarini faoliyatni baholash tizimiga kiritish va muntazam monitoringni talab etadi. Keyingi tadqiqotlarda modelning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023-yil, PF-158-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 08.10.2019-yil, PF-5847-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. Beer M., Finnström M., Schrader D. Why leadership training fails – and what to do about it // Harvard Business Review. – 2016. – Vol. 94(10). – P. 50–57.
5. Штофф В.А. Моделирование и философия. – М.–Л.: Наука, 1966.
6. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология. – М.: СИНТЕГ, 2007.
7. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968.
8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
9. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. … diss. – Toshkent, 2007.
10. Fayol H. General and Industrial Management / Transl. by C. Storrs. – London: Pitman, 1949.
11. Симонов В.П. Педагогический менеджмент: 50 ноу-хау в области управления образовательным процессом. – М.: Педагогическое общество России, 1999.
12. Конаржевский Ю.А. Менеджмент и внутришкольное управление. – М.: Центр «Педагогический поиск», 2000.
13. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. 4th ed. – London: Sage, 2011.
14. Meister J.C. Corporate Universities: Lessons in Building a World-Class Work Force. – New York: McGraw-Hill, 1998.
15. Allen M. (Ed.) The Corporate University Handbook: Designing, Managing, and Growing a Successful Program. – New York: AMACOM, 2002.
16. Garavan T.N. Strategic human resource development // Journal of European Industrial Training. – 1991. – Vol. 15(1). – P. 17–30.
17. Ulrich D. Human Resource Champions: The Next Agenda for Adding Value and Delivering Results. – Boston: Harvard Business School Press, 1997.
18. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. – New York: Cambridge Adult Education, 1980.
19. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
20. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
21. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
22. Boyatzis R.E. Competencies in the 21st century // Journal of Management Development. – 2008. – Vol. 27(1). – P. 5–12.
23. Kirkpatrick D.L., Kirkpatrick J.D. Evaluating Training Programs: The Four Levels. 3rd ed. – San Francisco: Berrett-Koehler, 2006.
24. Lacerenza C.N., Reyes D.L., Marlow S.L., Joseph D.L., Salas E. Leadership training design, delivery, and implementation: A meta-analysis // Journal of Applied Psychology. – 2017. – Vol. 102(12). – P. 1686–1718.

MUNDARIJA

1. **Talabalarning ijtimoiy moslashuvi muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari** 3
A.A.Isoqboyev
2. **Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida aksiologik pozitsiyani rivojlantirishni mazmuniga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tahlili** 5
J.A.Yuldashev
3. **Ta’lim tizimida manbaashunoslik madaniyati hamda milliy ma'naviy tamoyillar harakteri** 8
R.A.Tursunov, J.Umarov
4. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** 10
M.T.Nabijonov
5. **Inklyuziv ta’limda musiqa savodxonligini oshirish: zamonaviy pedagogik usullar va strategiyalar** 13
A.M.O‘rmonjonov
6. **Изучение иностранного языка в инклюзивном образовании: возможности и проблемы** 16
М.К.Тошматова
7. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: Yaponiya va O‘zbekiston tajribasi misolida** 19
O.O.Jakbarov
8. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 21
D.R.Ochilova
9. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 24
D.R.Ochilova, N.N.Nuriddinova
10. **Yoshlarni ota onalik mas‘uliyatiga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari** 26
T.A.Islomova, S.A.Ravshanov
11. **Talabalarining kognitiv kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar** 28
G.A.Amanova
12. **Talabalarda uchraydigan stressli holatlari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari** 30
J.B.Majidov
13. **Vokal asoslari nazariyasi** 33
I.N.Po‘latjonova
14. **Turli xalqlarning musiqiy an’analari** 34
I.N.Po‘latjonova
15. **Masofaviy ta'limda akademik shaffoflikni ta'minlash vositasi sifatida autoproctoring texnologiyalarining samaradorligi va muammolari** 35
M.K.Saidov, U A.Rustamov
16. **Enhancing university programming education through artificial intelligence** 39
U.A.Rustamov, M.K.Saidov
17. **Business ethics and culture** 42
M.M.Urazov, M.Choriyev
18. **Трансформация социально-культурной деятельности молодежи в современных условиях: инновационный потенциал и пути развития** 45
С.Ж.Нишонов

19. **Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarni nutqini rivojlantirish metodikasi** 47
D.O.Otamurodova
20. **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni uzviy bog‘liqligi** 49
U.X.Yo‘ldosheva
21. **“Raqamli ta’lim muhitida “robototexnika asoslari” fanini o‘qitishning innovasion metodlarini takomillashtirish** 51
D.D.Yavqochdiyev
22. **Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish** 53
A.E.Nuriddinov, Ch.A.Erkinova
23. **Назначение приемов технологии критического мышления при развитии основных компетенций школьников** 57
Д.Махмудова
24. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish: raqamli liderlik** 60
D.A.Ergasheva
25. **Raqamli texnologiyalar asosida fizika darslarini samarali tashkil etish metodikasi** 62
F.Y.Ramazonova
26. **Технологии контроля степени сформированности компетенций учащихся на уроках рки** 64
Р.М.Мухибиллаева
27. **Методологические подходы к исследованию влияния социальной среды на формирование языковых компетенций** 66
О.К.Ахмаджанов, М.У.Уктамова
28. **Kichik maktab yoshidagi bolalar hissiy komponentlari kreativlikni shakllantirishning asosi sifatida** 69
M.K.Jabborova
29. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** 71
M.X.Mamadjanov
30. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 74
U.Z.Soipov, Z.N.Tursunboyeva
31. **Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirishning metodologik asoslari** 76
Z.A.Jumaniyazova
32. **O‘quvchilarning neyropedagogik xususiyatlari va bilish jarayonlari** 80
Sh.A.O‘tbosarova, .N.Jamoldinova
33. **The influence of ai on Uzbekistan’s economy** 82
G.K.Djannazarova, H.Avazova, S.Mukhiddinova
34. **Globalizatsiya va yoshlarning ma’naviy yuksalishi: bugungi talaba – ertangi jamiyatning yetakchisi** 85
D.A.Abduraximova
35. **Boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish nazariyasi** 87
A.O.Usmonova
36. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 90
M.A.Muhammadjonova
37. **Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari** 93
M.T.Bozorova

38. **Yangi O‘zbekistonda talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish choralari** 95
R.O.Orifjonov
39. **Yangi O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarining ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda tarixiy tafakkurni o‘rni** 98
A.B.Qambarov
40. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 99
M.Dovranova
41. **Технологии развивающие орфографические навыки учащихся на уроках русского языка** 102
Ф.К.Фазлиддинова, О.К.Ахмаджанов
42. **Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida pedagogik loyihalash kompetentligini rivojlantirish mazmuni** 104
M.Sh.Dehqonova, S.M.Marupova
43. **Fostering entrepreneurial thinking in the context of a digital learning environment** 106
R.G.Davletbaeva, Z.A. Umirova
44. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda transformatsion liderlik nazariyasining o‘rni** 109
M.B.Rasuljonova, U.A.Azimov
45. **Loyiha texnologiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni** 111
K.Sh.Nishonova
46. **Texnokratik ta’lim paradigmasi sharoitida talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish da amaliyot va innovatsiyalar uyg‘unligini ta’minlash zaruriyati** 113
Sh.R.Sultanov
47. **Talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirish masalalari** 116
A.Z.Ismayilov
48. **Talabalarda liderlik ko‘nikmalalarini shakllantirish orqali ijtimoiy faolligini rivojlantirish** 119
D.K.Rafikova, M.M.Muhammadqosimova
49. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari-yoshlarni yetakchillik va tadbirkorlikka yo‘naltirishning ta'limiy jihatlari** 121
I.Qosimova
50. **Миллий қадриятлар-тарбиянинг мухим омили сифатида** 123
М.А.Исомиддинова, А.Турғунбоева
51. **Ta’lim tizimida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi** 125
S.Q.Inadullayeva
52. **Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining transformatsion ta’siri** 127
B.O.Ergashev, G.Y.Ziyatova
53. **Tanqidiy fikrlashning o’zlashtirish va mustaqil fikrlashdagi ahamiyati** 130
G.Tajiboyeva, M.Ergashaliyeva
54. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishda liderlik ko‘nikmalarining zamonaviy o‘rni** 132
Azimov S.M., Isroilova Ch.A.
55. **Current issues of preparing young people for the labor market and improving the professional skills and abilities of personnel** 134
Isroilova Ch., Zokirjonova M.
56. **Neyropedagogikada neyrodidaktik yondashuvlarning ahamiyati** 138
Jamoldinova S.N.

57. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari va bunda xalq peadgogikasidan foydalanish** 141
Asqarov M.A.
58. **Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni xalq pedagogikasidan foydalanib tarbiyalash texnologiyasini shakllantirish** 143
Joniyeva T.B.
59. **Zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarni tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish omili** 145
Ismoilova G.U., Rasulova M.
60. **Falsafiy bilimlarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati** 148
Abdullaxo‘jayev A. I., Alijonova R.M.
61. **Tibbiy ta'limda blueprint texnikasidan foydalanish: bakalavriat talabalari uchun strategik qo‘llanma** 151
Rakhmonov R.N.
62. **Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlari asosida yoshlarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari** 153
Kurbanova Sh.Y.
63. **Ijtimoiy tarmoqlar va axloqiy ong: yosh avlod qadriyatlariga yangi tahdidlar va imkoniyatlar** 155
Abdullayeva M.M.
64. **Raqamli kommunikatsiya makonida ijtimoiylashayotgan talabalarning ma’naviy-axloqiy qarashlariga virtual axborot muhitining transformatsion ta’siri** 159
Abdullayeva M.M.
65. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 163
Mamasoatov O.Sh.
66. **Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va yoshlar liderlik salohiyatini rivojlantirish usullari** 164
Alixonov S.A.
67. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash :ta’lim va amaliyot uyg‘unligi masalasi** 166
Boytillayev M.O., Inomjonova D.E.
68. **Maktabgacha ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarga tarbiyachining shaxsiy munosabati** 168
Sharipov M.T., Rahimjanova M. R.
69. **STEAM ta’limi va uning yosh liderlar tayyorlashdagi o‘rni** 169
Karimov J.J., Shermirzayev B.
70. **Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning xorijiy tajribasi** 173
Azimjonova M.B.
71. **Bolani maktabda o'qishga aqliy va axloqiy irodaviy tayyorligi** 177
Madatova D.Z.
72. **Fizika fanini o'qitishda talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali tadbirkorlik sifatlarni shakllantirish** 179
B.Z Polvonov, B.S. Ruzimatova
73. **Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirishda pedagogik ta’sir strategiyalari** 182
Urazbayeva S.T., Z.A.Jumaniyazova
74. **The functional responsibilities and role of youth in the implementation of youth policy** 185
Arslonov Z.D.

75. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda liderlik ko‘nikmalarining shakllanishi va ularning jamiyatdagi o‘rni** 188
Nasriddinova K.X., Ismanov T.T.
76. **Yangi O‘zbekistonda - xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyati** 190
Qodirova S.A.
77. **Pedagogikada torrens testlarining afzalliklari** 193
S.Qodirova, B.A.Jo’rayeva
78. **Sifatli ta’lim – taraqqiyot poydevori va globalashuv talabi** 195
M.Davlatova
79. **Pedagogik muloqotning o’quvchilarda milliy o’zlikni anglashga ta’siri** 198
Mirzaraximova Z.M.
80. **Oliy ta’limda ma’naviy tarbiyaning yangi strategiyalari va metodlari** 200
Nuraliyeva L.X., Jabborova G.Sh.
81. **Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda tanqidiy va kreativ fikrlashga doir texnologiyalardan foydalanish usullari** 203
Nabixonova M.I.
82. **Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari** 205
Tillayeva R.T., Nabixonova M.I.
83. **Yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvida ta’lim muassasalarining rolini oshirish** 209
Usmonov Y.T.
84. **Hozirgi yoshlarni mehnat bozoridagi o‘rni, kasbiy malakalarini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari** 211
Boymurodov B.E., Abdullajonova D.N.
85. **Global makonda talabalarning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy bilimlarning o‘rni** 213
Teshaboyeva Sh.X., Tillayev B.A.
86. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** 215
D.N.Turayev
87. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 217
Po‘latova R.A., Jamoldinova S.N.
88. **Yan amos komenskiy - pedagogika nazariyasining asoschisi sifatida** 219
Abdualiyeva J.A., Jamoldinova S.N.
89. **Maktabgacha ta’limda rivojlanish markazlarning bolaning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati** 222
Ahmadjonova D.T.
90. **Savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarida bolalarning tayanch-kompetensiyalariga integratsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari** 226
Zokirjonova L.B., Tursunaliyeva D.A.
91. **Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirish bosqichlari** 229
Matqurbonova S.
92. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari – yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlari** 231
Rahimov S.J.
93. **Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish** 233
Tursunaliyeva D.A., Zokirjonova L.B.
94. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari – yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlari** 236

Ro’zmatova M.T., Yuldasheva N.J.
95. **Mamlakatimiz yoshlarining siyosiy jarayondagi faolligi** 237
B. Tillayev, D. Olimova
96. **Globallashuv davrida talabalarning ma’naviy immunitetini shakllantirish** 239
M.D.Xidirnazarova, G.K.Mardiyeva
97. **O’qituvchilarida kasbiy malakalarini shakllantirish yo’llari** 240
L.Xonto‘rayeva
98. **Tyutorlik faoliyatinining talabalar rivojlanishidagi ahamiyati** 242
G.I.Yuldasheva
99. **Учитель и студент в середине интервью в обмене образование синтетический, интегральный, социальный использование формы** 245
Тоджибаев Б.Р., Тоджибоев Б.
100. **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdagi ahamiyati** 247
Ahmadjonov A.A.
101. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 249
B.A.Tillayev
102. **Xalqaro baholash tizimining asosiy xususiyatlari va ta'lim sohasidagi ahamiyati** 250
O.K Abdullayeva
103. **Fostering logical reasoning in youth: a foundation for innovative growth** 252
N.Sh.Erkaboyeva, D.U.Abdullayeva
104. **Yoshlar liderlik ko’nikmalarini shakllantirishda is’hoqxon to’ra ibrat g’oyalarining ahamiyati** 258
A.Abdullaxo‘jayev
105. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 261
N.A.Dadaboyeva
106. **Yangi O`zbekistonda yoshlar haq-huquqlarining kafolatlarining yaratilishi** 263
M.J.Tolibjonova, B.A.Tillayev
107. **Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari** 266
D.M.Buzrukova
108. **Bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarida vizual tafakkur va innovatsion dizayn rivojlantirishda transformatsion yondashuvning o`rni** 268
Sh.Sh.Shuxratov, G.B.Butayeva
109. **Методика применения искусственного интеллекта в формирования речи школьников по русскому языку** 271
С.Хожикурбонова
110. **Pedagogik jarayonlarda tizimli tahlilning innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari** 273
U.X.Axrorova
111. **Yoshlarning ma’naviy va ma’rifiy dunyo qarashlarini rivojlantirishda jadid maktablarini ahamiyati** 277
L.P.Mamasaidov
112. **Milliy-ma’naviy tiklanish g’oyasida ma’naviyatning o’rni** 280
Sh.U.Qoraboyev
113. **Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlaridan – zamonaviy metodik usullarda foydalanish** 282
A.A.Inomjonov

114. **The role and pedagogical potential of english language lessons in developing leadership skills** 283
Z.F.Jamolova
115. **O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish omillari** 286
D.K.Kenjayeva
116. **Bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning o‘rni** 290
Shuxratov Sh.Sh., Askarova B.A.
117. **The modern trends of translation and interpretation studies** 293
P.Lutfullayev
118. **Zamonaviy ta‘lim jarayonlarini rivojlantirishda jadidlarning tutgan o'rni** 295
U.A.Nabijanov
119. **Zamonaviy kinematografiyaning yoshlar ma’naviy dunyosiga ta’siri** 297
I.I.Karimov
120. **Ma’naviy tarbiya mazmuni, usul va vositalarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati** 300
N.Zaynobbidinova, Q.K.Abduvoxidov
121. **Формы дистанционного обучения. Электронный учебник как средство дистанционного образования** 302
М.Дадамирзаева
122. **Talaba-yoshlarda dunyoqarashini shakllantirish: axborot xavfsizligi va internet madaniyati** 304
D.M.Boydadayev
123. **Kelajakka yo‘l ochuvchi yoshlar** 306
M.N.Tojiboyeva
124. **Muzey pedagogikasi innovatsion pedagogik texnologiya sifatida** 307
B.X. Baydjanov, S.M.Dadaboyev
125. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 310
H.Abdullayeva
126. **San’at va madaniyatdagi zamonaviy estetik qadriyatlarning milliy tarbiya klasterlariga ta’siri** 314
S.M.Botirova, N.M.Shobekova
127. **Учитель и студент в середине интервью в обмене образование синтетический , интегральный , социальный использование формы** 316
Тоджибаев Б.Р.
128. **Понятие толерантности в философском и социокультурном контексте** 319
М.Р.Собиржонова
129. **Amir Temur buyuk davlat arbobi** 322
M.R.To‘xtasunova, M.G‘apporova
130. **Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarining innovatsion yondashuvlari** 325
Sh.P.Jo‘rayev
131. **O‘zbek xalq maqollarining tarbiyaviy va axloqiy sozar bian boyitiganigi** 328
D.N.Badriddinova
132. **Jaloliddin Manguberdi - vatan himoyachisi** 330
K.Salimjonova, M.Pozilova
133. **Amir Temur- buyuk davlat arbobi** 332
N.F.Ahmadaliyeva, M.Pozilova
134. **Jaloliddin Manguberdi-vatan himoyachisi** 334
M.U.Xoshimova, M.Pozilova
135. **Zahiriddin Muhammad Bobur- milliy g‘urur va tarixiy xotira timsoli** 336

M.Dedamirzayeva, M.Pozilova
136. **Amir Temur siymosi adabiyotda va tarixda** 338
M.Abdullayeva, M.Pozilova
137. **Abdulla Qodiriy asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyalari** 340
Z.U.Faxriddinova, M.Ikramova
138. **Media va axborot savodxonligining mazmuni** 342
S.S.Ataxanov, B.A.Tillayev
139. **Media va axborotning jamiyat rivojidagi o‘rni va ahamiyati** 344
B.A.Tillayev, O.Y.Ibragimov
140. **Orol dengizini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar tahlili** 347
I.T.Yo‘ldasheva
141. **Национальная лексика и способы представления культурно фоновой информации** 349
М.Р.Собиржонова
142. **Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makonidagi o‘rni** 352
B.A.Tillayev, H.Abdurahimov
143. **Paxta yetishtirishning ekologik muhitga ta’siri** 354
R.F.Tayshayeva, M.Fozilova
144. **O‘zbek adabiyoti tasavvufida obrazlar talqini** 357
M.M.Xursanova, M.Ikramova
145. **Mustaqil O‘zbekiston respublikasi tashkil topishing tarixiy ahamiyati** 359
Z.N.Tojimirzayeva
146. **Qayta qurish yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy - siyosiy vaziyat** 362
R.M.Abdug‘aniyeva
147. **Bo‘lajak o‘qituvchilarda prognostik kompetentlikni rivojlantirish zaruriyati** 364
T.K.Seytmuratova
148. **“Yashil texnologiyalar” asosida ishlovchi mashinalar** 367
Y.O.Jo‘raxanov
149. **Jadid maktablarida teatr pedagogikasi asosida ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi** 368
Sh.O.Maxkamova
150. **Vintli mexanizmlar samaradorligini oshirish yo‘llari** 371
Y.O.Jo‘raxanov
151. **Ўзбекистон ва Жанубий Корея ҳамкорлиги: олий таьлим муассасалари мисолида** 372
Д.М.Бойдадаев
152. **An’anaviy bo‘lmagan darslar orqali talabalarning kognitiv tashabbuslarini rivojlantirish** 375
I.J.Toshmanov
153. **Роль цифровых технологий в повышении духовно-нравственного мировоззрения молодежи** 379
Ш.Ғуломов
154. **Pedagogika jarayonlarda talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning eksperimental asoslari** 381
S.X. Mutalov
155. **Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish** 389
F.O.Odashaliyeva
156. **Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik: maktabgacha yoshdagi bolalarda til orqali intellektni rivojlantirish** 391
M.A.Turg‘unova
157. **Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik asoslari** 393

N.G‘. Nabiyev
158. **Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi texnik terminologiyaning qiyosiy tahlili: lingvistik xususiyatlar va tarjima muammolari** 396
F.B. Abdullayeva
159. **Texnik tarjimada terminologiyani boshqarishning roli** 398
F.B. Abdullayeva
160. **Texnologik mashina va jihozlarda sun’iy intellekt asosida texnik diagnostika tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari** 400
B.K. Olimov
161. **Korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning boshqaruv-pedagogik modeli** 403
U.X.Axrorova